

Zohidjon Sadiqov,  
Dilrabo Abdurahmonova

# TARJIMASHUNOSLIK TERMINLARINING KO'PTILLI LUG'AT-MA'LUMOTNOMASI

(o'zbek, olmon, ingliz, rus tillari)



**OZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Zohidjon Sadiqov, Dilrabo Abdurahmonova**

**TARJIMASHUNOSLIK TERMINLARINING**  
**KO‘PTILLI LUG‘AT-MA‘LUMOTNOMASI**

**(o‘zbek, olmon, ingliz, rus tillari)**

**Namangan – 2017**

Ushbu terminologik lug'at NamDU o'quv-uslubiy kengashining 2017-yil 12-fevraldagi 7-sonli yig'ilishi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya qilingan.

*Mazkur terminologik lug'at-ma'lumotnomada 500 dan ortiq tarjimashunoslikka oid terminlar izohi berilgan. Unda asosan o'zbek, rus va G'arbiy Evropa tarjimashunosligiga oid terminlarning ma'nolari izohli-tarjima asnosida ifodalangan. Ushbu lug'at-ma'lumotnoma asosan o'zbek talabari hamda tadqiqotchilarining jahon tarjimashunosligidagi mavjud tadqiqotlarni tushunishlariga yordam berish maqsadida tayyorlandi. Shu bois undan avvalo oliy o'quv yurtlarining bakalavr va magistratura bosqichi talabalari, shunnigdek, tarjimashunoslik muammolari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning foydalanishlari tavsiya etiladi*

Mas'ul muharrir: f.f.d., prof. N. Uluqov

Taqrizchilar: f.f.d., prof. S. Saidaliyev  
f.f.n., dots. M. Qahhorova

*Mazkur kitob o'zbek tarjimashunoslik fanining asoschisi, O'zbekiston Fan Arbobi, professor G'aybulla As-Salom(marhum) porloq xotirasiga bag'ishlanadi*

## MUQADDIMA

Lug'at yaratish juda qiyin ish. Bu isbot talab qilmaydigan narsa, aksiomadir. Hatto, bu haqda shunday gap ham bor: "Sen kimni jazolamoqchi bo'lsang, unga lug'at tuzdir". O'zbek-olmon, o'zbek-ingliz, o'zbek-rus lug'atchiligi, shuningdek, mazkur soha terminlari lug'atchiligi borasida anchagina tajriba to'plandi. Bunga ustozlar Sano Saidov, Muxtor Umarxo'jayev, Jamol Bo'ronov, Ravshan Bo'tayev, Shavkat Karimov, Yusuf Ismoilov, Saydumar Saydaliyev, Qambarali Nazarov, Muhiddin Sattarovlar yaratgan izohli, tarjima va terminologik lug'atlarni misol keltirish mumkin. Ammo mamlakatimizda Ergash Ochilovning dastlabki urinishini aytmaganda hanuzgacha tarjimashunoslik terminlari lug'ati tuzilmagan. Buni o'z vaqtida rahmatli ustoz G'aybulla as-Salom ham ko'p marotaba ta'kidlab, shunday ish qilishni shogirdlardan so'ragan edilar. Mazkur lug'at-ma'lumotnomani domlamizning ushalmay qolgan bir orzularini ro'yobga chiqarish yo'lidagi sa'y-harakat natijasi sifatida ham tushunilishi mumkin. E'tirof etish kerakki, nafaqat o'zbek tilidagi, balki rus, olmon va ingliz tillaridagi tarjimashunoslikka oid kitoblarni o'qiganimizda ularda juda ko'plab terminlar ma'nolarini bilishga qiynalamiz yoki yaxshi tushunmay qolamiz. Mazkur lug'atni yozishga turtki bergan sabablardan yana biri ana shu. Ushbu lug'at kaminaning uzoq yillik izlanishlari natijasi bo'lib, uni tayyorlashda o'zbek, rus va Garbiy Evropa tarjimashunosligi hamda boshqa filologik sohalardagi lug'at, qo'llanma, monografiya, risola, xullas, shu sohaga daxldor ishlardan foydalanildi. Terminologik lug'atni yaratishda bizga har tomonlama yordam bergan Germaniya Akademik Almashinuv Xizmati (DAAD)ning "Olimlar uchun ilmiy-tadqiqotlar dasturi"ga, hamda uning Toshkentdagi vakolatxonasi vakillariga, xususan, o'zining qimmatli maslahatlarini

ayamagan Germaniya Mainz Universiteti Til, madaniyat va tarjimashunoslik fakulteti professori doktor Mixayil Shrayberga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

### **Lug'atning tuzulishi haqida**

Tarjimashunoslikka oid so'zlar lug'at-ma'lumotnomada lotin imlosidagi o'zbek alifbosi tartibida joylashtirilgan. Unda dastlab terminning o'zi beriladi. Masalan, **An'anaviy tarjima**. So'ngra uning o'zbek tilida anglatadigan ma'nolari keltiriladi: 1.Original asar muallifi bo'lmagan tarjimon tomonidan amalgam oshirilgan tarjima. 2.Inson (mashina emas) tomonidan bajarilgan tarjima. 3.Muayyan mamlakat yoki til tarjimachiligidagi tarjima tendentsiyasi.

Lug'at-ma'lumotnoma avvalo o'quv maqsadlarini ko'zlaganligi bois, so'zning tarjima mashg'ulotlarida qo'llanilishi ham ko'rsatilgan. Agar termin o'zbek tiliga chet tildan kirib kelgan, baynalmilal atama bo'ladigan bo'lsa, uning kelib chiqishi haqida ham izoh beriladi. Terminning o'zbekcha izohli ma'nosi berilgandan so'ng, o'rni bilan, shu atamaning sinonimlari yoki uni yanada mukammalroq tushunish uchun ham maxsus izohlar berib boriladi. Nihoyat mazkur terminning olmon, ingliz va rus tillaridagi tarjimalari ham keltiriadi. Masalan, *Olm.: traditionelle Uebersetzung. Ing.: traditional translation. Rus.: традиционный перевод.*

Mazkur lug'at-ma'lumotnoma tarjima terminlari to'g'risidagi dastlabki urinish bo'lganligi bois unda kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Shu bois uni keleshda yanada takomillashtirish borasidagi taklif va mulohazalarni bajonidil qabul qilamiz.

*Zohidjon Sodiqov*

## **Shartli qisqartmalar:**

Olm. – olmon tilida;

Ing. – ingliz tilida;

Rus. – rus tilida;

lot. – lotin tilida;

fran. – fransuz tilida;

yunon. – yunon (grek) tilida;

o'zb. – ozbek tllida;

AT - asliyat tili;

TT - tarjima tiliga;

ATD - asliyatdagi tarixiy davr;

TTR - tarjimadagi tarixiy davr.

**ABBREVIATURA** (ital. *Abbreviatura*; lot. *brevis* — *qisqa*) // qisqartma - bir necha soʻz yoki soʻz birikmalarining birinchi harfi yoki tovushi asosida yasalgan qisqartma soʻz. Abbreviaturalar tarjimasida tarjima tili alifbosi bilan transkripsiyalash yoki tarjima tiliga soʻzma-soʻz tarjima qilish tamoyillaridan faol foydalaniladi. Masalan: UNO (United Nation Organisation) - BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti).

*Olm.: die Abbraviatur. Ing.: abbreviation. Rus.: аббревиатура.*

**ADABIY TARJIMA** – 1. Badiiy matnlar tarjimasida uchga boʻlinadi: nasriy asarlar tarjimasida, sheriylar asarlar tarjimasida va dramaturgiya asarlari tarjimasida. Adabiy tarjimaga xos boʻlgan xususiyatlar: a) arxaizm, varvarizm, dislektizm, oʻzlashma soʻzlarning keng qoʻllanilishi. Asliyatga tarjima tilidagi til birliklarining koʻpincha uslubiy jihatdan muqobil kelishi. Asliyatdagi personaj tilida qoʻllanilgan dialektizmlarni aynan (soʻzma-soʻz) oʻgirish imkoniyati boʻlmaydi; b) asliyat tilidagi matnda koʻplab replika (luqma) lar qoʻllaniladi. Ularga tarjima tilida maxsus izohlar berish zarurati boʻladi; c) asliyat matnida tuzilgan gaplar ham murakkab tuzulishga ega boʻlib, turlicha semantik-uslubiy ahamiyat kasb etadi; d) faqat asar muallifi yashab turgan geografik muhitga oid soʻzlar qoʻllaniladi. Asliyat milliy boʻyoqqa ega boʻladi; e) matnda asliyat muallifi yashagan tarixiy davr aks ettiriladi. Bunday hollarda tarjima zamonaviy oʻquvchi oʻqiydigan tilga yaqinlashtiriladi.

Qarang: badiiy tarjima.

*Olm.: literarische Uebersetzung. Ing.: literary translation. Rus.: литературный перевод.*

**ADABIY TIL** – 1. Umumxalq tilining bir qismi boʻlib, shevaga xos tildan farq qiladigan, qoidalari hamma tomonidan toʻgʻri deb topilgan, namunali, meʼyorlashtirilgan til. 2. Xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiladigan, meʼyorlashtirilgan badiiy adabiyot, publitsistika, matbuot, radio, teatr, fan, maorif hamda davlat korxonalarini tili.

*Olm.: Literatursprache. Ing.: literary language. Rus.: литературный язык.*

**ADABIYOTSHUNOSLIK TARJIMA NAZARIYASI** – badiiy tarjimaning nazariy muammolari bilan shug'ullanuvchi fan bo'lib, tarjima tarixini ham o'rganadi.

*Olm.: literarische Uebersetzungstheorie. Ing.: literary translation theory. Rus.: литературоведческая теория перевода.*

**ADAPTATSIYALI TARJIMA** – (lot. *adaptatio*; yengillashtirish, soddalashtirish) asliyatdagi asar yoki boshqa matnning asosan syujet chiziqclariga urg'u berib, uning ma'no va uslubiy jihatlarini e'tibordan qochirish orqali soddalashtirilgan holda amalga oshirilgan tarjima.

*Olm.: adaptierte Uebersetzung. Ing.: adapted translation. Rus.: адаптированный перевод.*

**ADEKVAT TARJIMA** – (rus. *Adekvatnoe* lot. o'zb. tenglashtirilgan, teng, to'la mos keladigan, bir-biriga (tarjimaning asliyatga mos kelishi nazarda tutiladi) aynan o'xshagan tarjima. Asl nusxani to'liq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjimadir.

*Olm.: adequate Uebersetzung. Ing.: adequate translation. Rus.: адекватный перевод.*

**ADRESSAT** (rus. *отправитель почты – почта юборувчи*). Tarjimon abstrakt tasavvurga ega bo'lgan, yozma yoki og'zaki tajima yo'naltirilgan shaxs yohud guruh (tarjima o'quvchisi, tinglovchisi).

Tarjima tarjimonning o'z o'quvchilarini tanishini talab qiladi, ular jamiyatning turli kasb egalari bo'lishlari mumkin: soliqchilar, kasaba uyushma azolari, vrachlar, jurnalist yoki tadqiqotchilar va hokazo. Ammo shunga qaramay, tarjimonda ular haqida umumiy tasavvur bo'ladi xolos. Masalan, o'zbek yoshlari, o'zbek xotin-qizlari, talabalar ... *Sinonimi*: qabul qiluvchi, tarjima o'quvchisi, tarjimani taqdim qilish maqsad qilingan kitobxon.

*Olm.: Empfänger. Ing.: addressee. Rus.: адресат.*

**AKTUALLSHTIRISH** –leksik birlikni muayyan kontekst talablaridan kelib chiqib nutq birligiga o'tkasish.



*Olm.: die Aktualisierung. Ing.: actualization. Rus.: актуализация.*

**ALLITERATSIYA** – (lot. *ad – ga, da*; *littera – harf so'zidan olingan*) 1. Bir xil tovush, harflarlar yoki tovush, harf birikmalarining takrorlanib kelishi; 2. Bir xil undoshlarning sheriyl qofiyada ohagdorlikni ta'minlash maqsadida takrorlanib kelishi.

*Olm.: die Alliteration. Ing.: alliteration. Rus.: аллитерация.*

**ALMASHTIRISH** – asliyatdagi turli xil leksik yoki grammatik birliklarni tarjima tilidagi muqobillari bilan o'zgartirish.

*Olm.: veraendern. Ing.: change. Rus.: замена.*

**ANAFORA** (yunon. *anaphora – yuqoriga ko'tarish so'zidan olingan*).

Bir so'z yoki so'z birikmasining nutqda takrorlanib kelishi va bu bilan muayyan kontekstdagi ma'noni ifodalashda muhim belgi vazifasini bajarishi.

1. Asliyatda qo'llanilgan *anafera* tarjimada ham aynan *anafera* bilan o'girilishi shart emas. Masalan: Inglizchada - *It was the best times, it was the worst times, it was the age of wisdom, it was the age of foolishness, it was the epoch of belief, it was the epoch of incredulity, it was the season of light, it was the season of darkness ...* (Charles Dickens, *A Tale of Two Sites*). Olmonchasi: *Es war die beste und die schlimmste Zeit, ein Jahrhundert des Weisheit und des Unsinn, eine Epoche des Glaubens und des Unglaubens, eine Periode des Lichts und und der Finsterniss ....* (Charles Dickens. *Die Geschichte zweier Städte*).

2. Bir gapning ichida bir necha so'zlarning keyinchalik takrorlanishida birgina so'z bilan berilishi. Masalan: 1) *ta'lim xodimlari, talabalar, texniklar, barcha majlisda qatnashdilar*. 2) *Schwetsariya shokoladi – buni ko'rganda doimo ishtaham ochiladi*.

*Olm.: Anapher. Ing.: anaphora. Rus.: анафора.*

**AN'ANAVIY TARJIMA** – 1. Original asar muallifi bo'lmagan tarjimon tomonidan amalgam oshirilgan tarjima. 2. Inson (mashina emas) tomonidan bajarilgan tarjima. 3. Muayyan mamlakat yoki til tarjimachiligidagi tarjima an'analari.

*Olm.: traditionelle Uebersetzung. Ing.: traditional translation. Rus.: традиционный перевод.*

**ANGLIZIZM** (lot. *anglicismus*. – ingliz tiliga xos bo'lgan). Ingliz tilidan kelib chiqqan va boshqa tillarda ekvivalenti bo'lmagan so'z yoki so'z birikmalari. Masalan: *Bobby* – ingliz politsiyasi; *oldtimer* – dastlabki ingliz avtomobili markasi; *home, sweet home* – kishi uvidagidek hech qayda o'zini yaxshi his qilmaydi.

So'zning kelib chiqishi, ma'nosi, uning morfologik elementi, sintaktik qurulishi yoki shakli ingliz tilidan kirib kelgan bo'lsa: *know-how, hotdog* (semantik anglizizmlar), *agenda* – kun tartibi (morfologik) *bureau* – byuro (grafik) anglizizmlar hisoblanadi.

*Olm.: Anglizismen. Ing.: anglicism. Rus.: англицизм.*

**ANIMATIK IFODALASH** (fransuz. *animation* so'zidan oilingan bo'lib – jonlantirish ma'nosini ifodalaydi). Jonsiz predmetlar yoki abstrakt voqea hodusalarni insonga xos bo'lgan harakat va his-hayajonlar vositasida jonlantirishdan iborat retorik tasvir vositasi. Masalan, 1) osmon kulib boqdi – der Himmel lacht; 2) sog'lom iqtisodiyot – die gesunde Wirtschaft. Sinonimi – jonlantirish.

*Olm.: animatische Ausdrucksweise, Personifikation. Ing.: animated expression, personification. Rus.: персонификация.*

**ANIQ TARJIMA** – 1. Asliyatning semantik ma'nosi aniq o'girilgan tarjima. 2. Asliyatga yo'naltirilgan tarjima. Evropa tarjimashunosligida buni *xorijylashtirilgan tarjima* ham deyiladi.

*Olm.: genaue Uebersetzung. Ing.: exact translation. Rus.: точный перевод.*

**ANIQLASHTIRISH** - tarjima matnidagi uslubiy talqin, asliy matn xususiyatlarini hisobga olgan holda tarjimada uslubiy vositalarni tahlil qilish va tanlash tarjimaviy aniqlashtirish deyiladi. Bu jarayonda uslubiy vositalar sezgirlik bilan va ongli ravishda tahlil qilinadi va tanlab olinadi. Bu birinchi navbatda tarjimonning uslubshunoslik qobiliyati va kasb mahoratiga bog'liq bo'lib, asliyat matnining yangi talqini sifatida tavsiflanadi. Asliyatning tarjimaga ko'rsatadigan ta'siri yoki lisoniy va uslubiy omillarining boshqa yaqin tillardan o'girish jarayonida yoki yosh tarjimonlar faoliyatida gipnozday quvvatga ega. Tarjima asliyatni

sifatli takrorlash hamdir. Buning uchun soʻzning ayni kontekst ichidagi sifati, eskirganlik, yangilik, majoziylik, hurmatlash, eʼzozlash, pardalash, piching, gʻazab, haqorat va hokazo maʼnolarini bilmoq soʻngra tarjima tilidan oʻsha koʻrsatgichlarga muvofiq keladiganini topa bilmoq kerak. Buning uchun esa, tilni faqat bilishgina emas, balki tuyish, his qilish lozim.

*Olm.: die Praezisierung. Ing.: specification. Rus.: уточнение.*

**ANTONOMIK TARJIMA** – (*antonimi* - grek. *ant* (i) *protiv+onomaniya*) - shakli bir-biriga zid, ammo maʼnolari monand birikmalarga asoslangan tarjima. Masalan, rus tilida "nima boʻlsa ham shu boʻlsin", "mening parvoyimga kelmaydi" degan maʼnoda *хоть правда не правду* degan frazeologik butunlik ishlatiladi. Uni oʻzbek tiliga *menga desa gʻovlab ketsin* deb oʻgiriladi. Demak, rus tilida "menga desa oʻt oʻssin" desa, oʻzbek tilida "gʻovlab ketsin". Birikmalar aks maʼnoda oʻgirilgan boʻlsa ham mazmunlari bir-biriga monanddir.

*Olm.: antonymische Uebersetzung. Ing.: antonymic translation. Rus.: антонимический перевод.*

**ARXISEMA** (yunon. *archi* - bosh, *muhim* + *sema* – belgi). Bir semantik (mazmun) maydonidagi lugaviy maʼnolarning tutashtiruvchi, umumiy ifodasi. Masalan, novcha, baqaloq, choʻziq va hakazolardagi "meʼyor", chopmoq, oqmoq, sakramoq va boshqalar.

*Olm.: die Archesema. Ing.: Arhiseme. Rus.: архисема.*

**ASLIYAT** – 1. Tarjima qilish uchun murojaat qilingan original asar yoki matn; 2. Tarjima qilish uchun murojaat qilingan tarjima asari. Bunda bilvosita (tarjimadan tarjima) nazarda tutiladi.

*Olm.: der Ausganstext. Ing.: original text. Rus.: исходный текст.*

**ASLIYAT VA TARJIMADA MATNLARARO MUSHTARAKLIK** - original asar va uning tarjimasi lisoniy-uslubiy vositalari oʻrtasidagi bir xillik, oʻzaro oʻxshashliklarning mavjudligi.

*Olm.: die intertextuelle Gemeinsamkeit in Ausgang und Uebersetzungstext. Ing.: Intertextual similarity between original and translation texts. Rus.: Интертекстуальная общность в исходном и в переводном тексте.*

**ASLIYAT VA TARJIMADAGI LISONIY VOSITALARNING USLUBIY IDENTIFIKATSIYASI (muvofiglikka keltirilishi)** - obrazlar sistemasini uslubiy-semantik talqin yordamida matn tili badiiyatini baqolash. Tarjima matnida badiiylikni ta'minlash bir vaqtning o'zida ham nazariy, ham amaliy jihatdan tarjimonning intuitiv faoliyati natijasida yaratiladi.

*Olm.: Stilistische Identifikation der Sprachmittel im Ausgang und Uebersetzungstext. Ing. stylistic identification of linguistic means in original and translation texts. Rus.: Стилистическая идентификация лингвистических средств в исходном и в переводческом тексте.*

**ASL NUSXANI IDROK ETISH** - tarjima jarayonining dastlabki bosqichidir. Bu bosqichda matn so'zma-so'z, ya'ni filologik tarzda idrok etiladi.. Bunda bir qancha tarjima qusurlari ro'y berishi mumkin: boshqa tildagi bir so'zni xuddi shunday jaranglaydigan bo'lak so'z bilan qorishtirish, yaqin tillardagi soxta ekvivalentlar domiga tushib qolish, kontekstni noto'qri o'zlashtirish, ayrim xos so'zlarning ma'nosiga tushunib yetmaslik, muallifning muddaosini anglamaslik kabilar sodir bo'ladi.

*Olm.: das Verstehen des Ausganstextes. Ing.:comprehension of original text Rus. : понимание исходного текста.*

**ASL NUSXA INTERPRETATSIYASI** - tarjima jarayonining asl nusxani idrok qilinganidan so'nggi ikkinchi bosqichi. Bunda uslubiy omillarga e'tibor qilinadi. Matnni to'g'ri o'qigan kitobxon lisoniy ifodaning uslubiy omillarini ham angelaydi, ya'ni kayfiyat, piching yoki fojeaviy ma'no, oqangdorlik yoxud voqeani quruq bayon qilishga moyillik va hakazo. Rostmana kitobxon barcha sifatlarni anglab etishi shart emas, tarjimon esa avtor qanday qilib tegishli natijaga erishayotganini aniqlashi, tadqiq etishi lozim. Tarjima oddiy o'qishga nisbatan kitobga ancha yuqori talab bilan ongli munosabatda bo'lishni talab qiladi.

*Olm.: Interpretation des Ausganstextes. Ing.: interpretation of original text. Rus. : интерпретация исходного текста.*

**ASL NUSXANI QAYTA IFODALASH** - tarjima jarayonining so'nggi bosqichi. Bunda ayrim til vositalarining uslubiy va ma'no-mazmunini anglashdan tarjimon asarning badiiy yaxlitligini, badiiy voqelik hodisasi, xarakterlar, ularning munosabati, muallifning g'oyaviy niyatini anglashga o'tadi. Matnni anglashning bu yo'li ancha murakkab va og'ir - muallif yaratgan badiiy voqelikni to'laligicha idrok etish uchun tarjimon keng mushohada quvvatiga ega bo'lmog'i darkor. Asl nusxani to'laligicha qamrab olish, idrok etish, aytaylik, rejisserga qanday tasavvur quvvati talab etilsa, tarjimonda ham ana shunday tasavvur qobiliyati bo'lishi zarur.

*Olm.: Wiedergabe des Ausganstextes. Ing.: reproduction of original text. Rus.: воссоздание исходного текста.*

**ASLIYAT** - 1. Tarjima qilish uchun mo'ljallangan original matn. 2. Boshqalardan farq qilib turuvchi, nusxa bo'lmagan original matn.

*Olm.: Ausganstext. Ing.: original text. Rus.: исходный текст.*

**ASLIYAT TILI** – 1. Tarjima amalga oshiriladigan til. 2. Asliyatdagi matn tili. 3. Tarjima gilinadigan til.

*Asliyat* so'zi bilan yana birikib keladigan bir qancha iboralar mavjud: asliyat madaniyati, asliyat matni, asliyatdagi voqelik ... Sharqiy olmonlarda asliyat so'ziga sinonim ravishda *Quelle Sprache* (sarchashma til) atamasi ham qo'llaniladi.

*Olm.: Ausgangsprache. Ing.: source language. Rus.: исходный язык.*

**ASLIYAT TILIGA YO'NALGAN TARJIMON.** Asliyatda tasvirlangan tarixiy-milliy o'ziga xoslikni tarjimada aks ettirishda tarjima o'quvchisuni imkon qadar asliyat tili voqe'ligiga yaqinlashtirish. Sinonimi: Asliyat matniga yo'nalgan tarjimon

*Olm.: ausgangssprachlich orientierter Übersetzer. Ing.: source language oriented translator. Rus.: переводчик направленный на исходный язык.*

**ASLIYAT MATNI** – tarjima amalga oshiriladigan matn.

*Olm.: Ausgangstext. Ing.: source text. Rus.: исходный текст.*

**ASLIYAT MATNIGA YO'NALTIRILGANLIK.** Asliyat tilidagi lisoniy-madaniy xususiyatlarning aksariyati tarjima matniga

aynan o'tkazilishi, asliyat lisoniy vositalariga sodiq qolishlik. Tarjima amaliyotida tarjimonlar o'z o'quvchilarini asliyatda aks etgan voqe'likka yaqinlashtirishga harakat qilishlari kuzatiladi. *Sinonimi – xorijiy lashtirilgan tarjima.*

*Olm.: Ausgangstext-orientiert. Ing.: source language orientation*

*Rus.: ориентированность на исходный язык.*

**AVTOMATLASHTIRILGAN TARJIMA** – qarang: *mashinaviy tarjima*

*Olm.: Automatische Uebersetzung. Ing.: automatical translation.*

*Rus.: автоматический перевод.*

**AVTOR TARJIMASI** – 1. Bilingvist (zulisonayn) muallif tomonidan o'zi yozgan asarni o'zga tilga qilingan tarjimasi. Muallif o'z asarini o'zi tarjima qilishi tarjima amaliyoti uchun juda qiziqarli va muhim. Chunki, asar originalini muallifchalik hech kim yaxshiroq bilmaydi. Ammo ayni paytda muallifdan tarjima tilini mukammal bilishlik talab qilinadi. Afsuski, tarjima amaliyotida bunday hodisalar kam uchraydi.

*Olm.: Uebersetzung des Autors. Ing.: authorial translation. Rus.: авторский перевод.*

**AVTORLASHTIRILGAN TARJIMA** – original asar yoki matn muallifining qisman ishtiroki, tahriri asosida amalga oshirilgan tarjima. O'zbek tilida – muallif ishtirokidagi tarjima, deb ham yuritiladi.

*Olm.: Autoreierte Uebersetzung. Ing.: authorized translation.*

*Rus.: авторизованный перевод.*

**AYTIB BERISH** – yozma yoki og'zaki nutq mazmunini o'z so'zlari bilan aytib berish.

*Olm.: Nacherzaehlung. Ing.: retell. Rus.: пересказ.*

**ASOSIY MA'NO** - lug'atlarda so'zning dastlabki ma'nosi sifatida keltiriladigan varianti. Muayyan kontekstda so'zning qo'shimcha ma'nolari ham bo'lishi mumkin. Asosiy ma'no haqida gapirganda so'zning bir paytning o'zida ham leksikologiya, ham lingvistikaning atamasi sifatida ham tushunilishi mumkin. Bir paytning o'zida so'zning bir nechta asosiy ma'nolari bo'lishi mumkin. Masalan, olmon tilida 1) Kabatett – siyosiy matbuatda qo'llaniladigan hazilomuz kichik janr; 2)

bir necha kishi tomonidan sahnada ijro uchun mo'ljallangan guruh; 3) olmonlarda salat yoki boshqa taomlar uchun ishlatiladigan likopcha.

So'zning bir necha ma'nolarga ega bo'lishini – polisemiya deyiladi. Sinonimi – Nutqdagi ma'no

*Olm.: Aktuelle Bedeutung. Ing.: primary meaning Rus.: основной смысл.*

**ASOSIY TIL** - muayyan mamlakatda rasmiy til sifatida e'tirof etilgan, shu mamlakatning ko'pchilik aholisi og'zaki va yozma nutqda qo'llaydigan til. Buni Dalat tili deb ham ataladi. Masalan, O'zbekistonda o'zbek tili asosiy davlat tilidir.

Fransiyada fransuz tili, Gollandiyada flamand tili, Olmoniyada olmon tili asosiy tildir.

Xalqaro munosabatlarda *dominant til* atamasi qo'llaniladi. Asosiy til deganda ona tili masalasi o'ziga xoslikka ega. Masalan, O'zbekistondagi o'zbeklar uchun ona tili o'zbek tili. Ammo, Olmoniyadagi rus yoki boshqa sharq xalqlari uchun olmon tili ona tili bo'lmasa ham, ular bu tilni ona tillaridan yaxshiroq bilishlari mumkin.

Professional tarjimonlar aslyat va tarjima tillari masalasiga yondoshganda ana shu asosiy tilga ahamiyat berishlari lozim.

Tilmochlarda ham eng yaxshi gapiradigan tillari asosiy til, qolganlari ikkinchi va boshqa chet tillar sifatida yuritiladi.

*Olm.: Dachsprache. Ing.: primary language. Rus.: основной язык.*

**ASOSIY TILGA TARJIMA** – xorijiy tildan asosiy tilga qilingan tarjima. Tarjima didaktikasida asosiy tilga asosan mashqlar va ixchamlashtirilgan matnlar tarjima qilinib, ular ko'proq so'zma-so'z xarakterda amalga oshiriladi. Asosiy tilga tarjima ham faqat karayon xarakterida bo'lmay, natija xususiyatiga ham ega.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *didaktik tarjima, tarjima.*

*Olm.: Herübersetzung. Ing.: version translation into primary language Rus.: перевод на основной язык.*

**AVTOR // MUALLIF.** Tarjimashunoslikda asosan original asar muallifi tushuniladi.

*Olm.: Autor. Ing. : Author. Rus.: автор*

**AXBOROT YO'QOTISH.** Tarjima jarayonida ayrim yoki sezilarli darajada ma'noviy va uslubiy yo'qotishlarning kelib chiqishi tarjimonni asliyat haqida qo'shimcha axborot olishiga va tarjima matniga uslubiy sayqal berishga turtki beradi. Axborot yo'qotishni baholash bilan tarjima matni sifatiga munosabat bildirish o'zaro uyg'un tushunchalardir. Axborot yo'qotish she'riy tarjimalarda og'ir kechganidek, ilmiy va ijtimoiy matnlar tarjimasida ham ma'noviy kemtiklarni keltirib chiqaradi. Uni asosan kompensatsiya yo'li bilan to'ldiriladi. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *tushurib qoldirish, kemtik*.

*Olm.: Informationsverlust. Ing.: information loss Rus.: ympama informatsii.*

## ~ B ~

**BADIIY ASARNING ILMIIY TARJIMASI** - asliyatdagi badiiy asarni turli fan soqalari qiziqishlari nuqtai nazaridan turib tarjima qilish. Tarjimashunoslikda badiiy asarlarni ilmiy maqsadlarda o'girilgan ishlarga nisbatan turlicha atamalar qo'llanmoqda. Jumladan, *ilmiy-adabiy tarjima, filologik tarjima, so'zma-so'z tarjima, izohli tarjima, nasriy tarjima*. Ularning bir-biriga o'xshash jihatlari mavjud. Nasriy tarjima atamasida ularning qammasini umumlashtiruvchi jihat bor. Ammo so'zma-so'z tarjima bilan ilmiy-adabiy tarjimini bir narsa deb qarab bo'lmaydi. So'zma-so'z tarjima qilish uchun faqat til bilish qobiliyatiga ega bo'linsa kifoya. Biroq badiiy asarni ilmiy yo'sinda o'girish atamasiga nisbatan yuqoridagilarning birortasini aynan qo'llab bo'lmaydi. Badiiy asarning ilmiy tarmalari quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

1. Badiiy asarning ilmiy-adabiy tarjimasini quruq so'zma-so'zlikka asoslangan tarjima emas.

2. Badiiy asarning ilmiy maqsadlarda amalga oshirilgan tarjimasini asliyatning to'laqonli badiiy muqobil variantini yaratishni da'vo qilmasada, uni amalga oshiradigan olim-tarjimon adabiyot, so'z san'ati



ilmidan xabardor bo'lishi lozim. U yaratgan tarjimada asliyatdagi badiiyligni qayta yaratish xususiyati albatta uchraydi.

3. She'riy asar ilmiy-adabiy tarjimada albatta nasriylashtiriladi. Bu to'qri tartibli, rosmana gap tuzish orqali amalga oshiriladi.

4. Tarjimada izoqlar, asosan, asarda olim-tarjimon uchun muqim bo'lgan jiqatlarga qaratiladi. Bunda olim-tarjimonning mutaxassislik soqasi ko'proq aks etadi.

5. Badiiy tarjimaning ilmiy-adabiy tarjimasida tilni bilib, adabiyotni bilmaslik yoki aksincha bo'lishi tarjimaga salbiy ta'sir o'tkazadi.

6. Badiiy asarning ilmiy maqsadlarda o'girilgan tarjimalari fanning faqat muayyan soqasi uchungina mo'ljallangan bo'ladi. Biroq, tajribalardan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur tarjima sifati darajasiga qarab, undan foydalanish mundariyasi yanada kengroq bo'lishi mumkin. Aynan ana shunday tarjimalargina kelajakda yaratiladigan to'laqonli badiiy tarjimalar yaratishda muqim qo'llanma bo'lib xizmat qila oladi.

*Olm.: Fachuebersetzung des literarischen Werkes.*

*Ing.: scientific translation of artistic works.*

*Rus.: научный перевод художественного произведения.*

**BADIIY TARJIMA** – 1. Badiiy asarlar tarjimasida bilan shug'ullanuvchi soha. Uning nazariy asosi adabiy tarjimashunoslikda yaratiladi. 2. Bir tildagi badiiy asarni boshqa til vositalari bilan qayta yaratish natijasi. Badiiy asarlar tarjimasiga agar asar xorijiy tildan o'zbek tiliga o'girilayotgan bo'lsa, uning muallifi o'zbek bo'lganida qangay yozgan bo'lardi? – degan talab bilan yondoshiladi. 3. Agar asliyat matnida kamchiliklar bo'lsa, ana shu jihat uning tarjimasida ham ifodalanishi lozim. 4. Tarjimonda qanchalik tajriba, malaka va mahorat yetishmasa, u shunchalik erkinlikka moyil bo'ladi. Malakasiz tarjimon o'ziga, mahoratli tarjimon asliyatga qarab intiladi. 5. Badiiy tarjimada asliyat muallifining estetik qarashlari, individual uslubiy xususiyatlari, originalning obrazlilikligi qayta yaratiladi. 6. Biz badiiy tarjima ikki xalq madaniyatlararo mushtarakliklari va o'ziga xosliklarining uchrashuvidir. 7. Badiiy tarjima Vatan adabiyotini yangi obrazli tafakkur va timsollar

bilan boyitish vositasi, adabiyotlar o'rtasidagi oltin ko'prik, milliy adabiyotni jahon adabiyotiga olib chiquvchi muhim vositadir.

*Olm.: die Literaturuebersetzung. Ing.: literary translation.*

*Rus.: художественный перевод.*

**BADIIY TARJIMA BILAN SHUG'ULLANUVCHI TARJIMON FAOLIYATI** - ikkilamchi adabiyot mahsulini tayyorlovchi ijodiy faoliyat, bir karra yaratilgan original asarni boshqa tilda qayta yaratadigan jarayon. Bunda badiiy matn tarjimonning asliyatga boshqa tilda ham monand bo'lgan matn yaratuvchilik mahorati samarasi sifatida namoyon bo'ladi.

*Olm.: Literaturuebersetzers Taetigkeit. Ing.: literary translator's activity.*

*Rus.: деятельность переводчика художественного произведения.*

**BADIIY TARJIMANING ORIGINAL BADIIY ADABIYOTDAN FARQI** - badiiy tarjimada filologik tahlil va lisoniy-uslubiy qiyosning ishtirok etishi bilan belgilanadi. Chunonchi, yozuvchi, shoir yoki dramaturgdan shu janrlardagi asarlarni o'z tiliga o'girish ishi bilan shug'ullanuvchi ijodkorning farqi shundaki, u (tarjimon) muallifning muddaosini boshqa tilda qayta ifodalaydi, uning asarini qayta tiklaydi. Bunda esa, tasvirdan tashqari, qiyos va tahlil ham ishtirok etadi.

*Olm.: Unterschied zwischen Literaturuebersetzung und Originalliteratur.*

*Ing.: Difference between artistic translation and original literature.*

*Rus.: разница между художественного перевода и оригинальной литературы.*

**BADIIY TARJIMA MATNI QURULISHI DARAJALARI** - matn darajasida tarjima matni qurulishini klassifikatsiya qilish. Badiiy tarjima matnning birgina elementi darajasida bajarilmaydi. Har ikki til va adabiyotning xususiyatlariga qarab, bu jihat doimo o'zgarib boradi. Badiiy qayta yaratish jarayoni asliyat matniga mos keladigan fonematik

darajadan morfematik, leksik, frazeologik, dialektal va yaxlit matngacha bo'lgan darajani o'z ichiga oladi.

*Olm.: die Strukturgrad der Literaturuebersetzungstexte. Ing.: Structural grade of artistic translation texts. Rus.: структуральная степень текста художественного перевода.*

**BADIIY USLUB** – badiiy asarning umumiy jarangosi va koloriti, obrazni tahlil qilish usuli, san'atkorning voqe'likka bo'lgan munosabatidir. Uslubni yozuvchining umumiy bisotidan ajratgan holda qarab, ko'r-ko'rona uning lisoniy xususiyatlariga aylantirib qo'yib bo'lmaydi. Badiiy asarda obraz bilan uslub o'zaro chambarchas bog'langan bo'ladi. Uslub yozuvchi ijodining uning asarlarida takrorlanib turadigan asosiy, tipik g'oyaviy-badiiy xususiyatlari majmuasidir. Yozuvchining dunyoqarashi va u yaratgan asarlarning mazmuniga aloqador asosiy g'oyalar, muallif ko'proq tasvirlagan syujet va xarakterlar silsilasi, san'atkor ijodida tez-tez uchrab turadigan badiiy tasvir vositalari, o'ziga xos tili uning individual uslubini tashkil etadi.

*Olm.: Stil der schoenen Literatur. Ing.: literary style Rus.: художественный стиль.*

**BARQAROR BIRIKMA.** Nutq me'yorlari asosida yasalgan barqaror birikmalar. Ular ko'pincha metaforik iboralardan ham tashkil topadi. Masalan, olmon tilida *vafot etgan salbiy ma'noda ins Gras beißen (o't tishlamoq)* deyiladi.

1. Ular maqol ko'rinishida ham kelishi mumkin: *Lügen haben kurze Beine – Yolg'onning umri qisqa. Morgenstunde hat Gold im Munde (Ertalabki paytning og'zida oltini bor) – Erta tursang sof havо, kech turganga ne ravo.*

2. Sö'z birikmasi olmon tilida ravishli-sintagma (statt dessen – buning o'rniga) hamda predlogli-sintagma (in bezug auf – ga nisbatan) ko'rinishida kelishi mumkin.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *idiomatik ibora, klische, metafora.*

*Olm.: Redewendung. Ing.: fixed expression Rus.: фразеологическая единица.*

**BELGILANGAN SO'Z** - muayyan matnda yoki tilda boshqalarga nisbatan xarakterli jihatlari borligini bilish uchun ajtarib ko'rsatilgan so'z. Bunday hodisa asosan tarjima jarayonida yoki tahlil paytida amalga oshiriladi.

Belgilangan so'z ma'lum maqsad va vazifalari bilan bog'liq bo'ladi. Batafsilroq ma'lumot beruvchi so'z: *Ma'no*.

*Olm.: Bezeichnendes Wort. Ing.: highlighted words. Rus.: выделенное слово.*

**BELGILAR ASOSIDA AMALGA OSHIRILADIGAN TARJIMA** – muayyan belgi (simvol)lar vositasida bajariladigan tarjima turi. Bunday usuldan ko'pincha sinxron tarjimalarda foydalaniladi.

*Olm.: Uebersetzung durch Symbolmitteln. Ing.: translation through symbols Rus.: перевод с помощью символов.*

**BEVOSITA TARJIMA** - aslyiat (original asar) tilidan bevosita amalga oshirilgan tarjima.

*Olm.: Uebersetzung aus erster Hand. Ing.: first hand translation. Rus.: непосредственный перевод.*

**BILVOSITA TARJIMA** - tarjimadan tarjima. Bunda aslyiatdan qilingan tarjimadan amalga oshirilgan tarjima yoki uchinchi tildan amalga oshirilgan tarjima nazarda tutiladi. Buni rus tarjimashunosligida *перевод из вторых рук, вторичный перевод* terminlari bilan ataladi.

*Olm.: Uebersetzung aus zweiter Hand. Ing.: second hand translation. Rus.: перевод с языка-посредника.*

**BILINGVIST // ZULLISONAYN** (lot: *bi* – «ikkita», «ikkitomona» va *lingua* – «til») - ikki tilni bir xil darajada egallagan kishi.

*Olm.: Bilingv. Ing.: bilinguist. Rus.: билингв.*

**BILINGVIZM**– ikki tilni bir xil darajada egallash. Bilingvizm tabiiy va sun'iy bo'lishi mumkin. Tabiiy bilingvizm kishi ikki tilli sharoitda ulg'aygan va ularni tabiiy ravishda bilganda hosil bo'ladi.

*Olm.: Bilingvizmus. Ing.: bilinguism. Rus.: билингвизм.*

## ~ D ~

**DEKOMPRESSIYA** - keng, izohlab ifodalash bilan tarjima qilish.

*Olm.: Dekompression. Ing.: decompression. Rus.: декомпрессия.*

**DELUTSUYA.** Asliyatdagi soʻz maʼnosini adekvat tarjima qilish uchun tarjima tilida uni kengaytirilgan holda berish. Bunda tarjima tilidagi soʻzning miqdori asliyatdagidan koʻproq boʻladi. Masalan: *Unda rostlik liboslari mujassam edi (QB.) – Er war immer ehrlich, gerechtfertigt ( u doimo rostgoʻy va adolatli edi).*

Mufassalroq maʼlumot olish uchun qaralsin: *perifrasa.*

*Olm.: delution. Ing.: delusion Rus.: делуция.*

**DENOTAT** – ( lot. *denotare* – belgilamoq). 1. Voqeʼlik parchasining axborot koʻrinishida ifodalanishi. 2. Real voqeʼlikdagi predmet, jarayon va uning sifatini belgilarda ifodalanishi. 3. Konkret yozma asar tilida aks etgan perdemet va voqeʼlik. 4. Real voqeʼlik boʻlagining anglangan holari. 5. Referent. 6. Leksik birlik yoki soʻz birligi bilan ifodalangan obʼyekt.

*Olm.: Denotat. Ing.: denote Rus.: денотат.*

**DENONATIV EKVIVALENTLIK** - ekvivalentlik turlari.

*Olm.: Denotative Aequivalentlichkeit. Ing.: denotative equivalence. Rus.: денотативный эквивалентность.*

**DENOTATSIYA.** Soʻzning muayyan kontekstda qoʻllanilishidan holi boʻlgan holati. Soʻzning obʼyektiv maʼnosi. Uni *maʼno oʻzagi* deb ham yuritiladi. Tarjima didaktikasida *denotatsiyani* soʻzning amalda qoʻllanilishi va kontekstda turli maʼnolarni bildirishini hamda *konnotatsiyadan* farqini bilishning ahamiyati katta.

*Olm.: Denotation. Ing.: denotation. Rus.: денотация.*

**DENOTATIV ALOQA** – obyektiv borliqni ifodalaydigan leksik birliklar.

*Olm.: die denotative Beziehung. Ing.: denotative sense. Rus.: денотативный смысл.*

**DENOTATIV MAʼNO** – soʻzning voqeʼlikdagi predmet yoki voqeʼlikni ifodalovchi maʼnosi.

*Olm.: Denotative Bedeutung. Ing.: denotative content Rus.: денотативное содержание.*

**DENOTATIV TARJIMA NAZARIYASI** – asliyat tilini tarjima tili vositasida tasvirlash jarayonini o'rganuvchi tarmoq.

*Olm.: Denotative Uebersetzungstheorie. Ing.: denotative translation theory. Rus.: денотативная теория перевода.*

**DETERMINANT.** So'z yoki so'z birikmasi tarkibida aniqlovchi vazifasini bajaruvchi element. Masalan: *qishki palto – olmon tilida “der Witermante”l.* Bir tilda birikma tarkibida kelgan determinant ikkinchi tilga so'z birikmasi tarkibida ham kelishi mumkin. Determinant har ikki tilde ham bir xil kelishi mumkin: *o'ta sabrli - sehr geduldig.*

*Olm.: Determinans. Ing.: determinant . Rus.: детерминант.*

**DIAXRONIYA** - tilning muayyan davr va tadrijiy taraqqiyotiga oid faktlar tahlili.

*Olm.: Diachronie. Ing.: diachrony. Rus.: диахрония*

**DIAXRONIK TARJIMA** – tarixan qadimgi davrda yaratilgan asarni hozirgi zamon tillariga tarjima qilish. Bunda asliyat bilan tarjima davriy uzoqligi bilan xarakterlanadi.

*Olm.: diachronische Uebersetzung. Ing.: diachronical translation. Rus.: диахронический перевод.*

**DIKTANT-TARJIMA** – chet til darslarida asliyatdagi matn sekinlashtirilgan tarzda o'qituvchi tomonidan talabalarga *og'zaki* o'qib berilishi bilan *yozma* tarjima qilishga asoslangan mashq. O'qib berilgan matnni yozuv mashinkasida tarjima qilib yozish yoki kompyutorga kiritish tarjima amaliyotida uchraydi.

*Olm.: Diktat-Uebersetzung. Ing.: dictation-translation. Rus.: диктант-перевод.*

**DIDAKTIK TARJIMA.** Chet til ta'limida tillararo transformatsiyadan foydalanish. 1. Til ta'limida tarjima mashqlari muayyan so'z ma'nosini bilish, yangi sintaktik qurilmalarni o'rganishda, matnni tushinishda va bopshqa lisoniy muammolarni aniqlashda qo'l keladi. 2. Didaktik tarjima, shuningdek, tarjima va teskari tarjima (tarjima qilingan matnni o'sha asliyat tiliga qaytarib tarjima qilish) mummolarini halqilishda foydalaniladi. Bunday amaliyot so'zning

kontekstdagi ma'nosini aniqlash tahlillarida ishlatiladi. *Sinonimi* – pedagogik tarjima, maktab tarjiması, universitet tarjiması. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: Tarjima didaktikasi.

*Olm.: didaktische Übersetzung. Ing.: pedagogical translation.*

*Rus.: дидактический перевод.*

**DIFFERENTIAL LUG'AT** – bir-biriga yaqin, qarindosh tillarning lug'at boyligi tarkibi o'rtasidagi farqlarni tavsiflovchi lug'at.

*Olm.: differenziales Woerterbuch. Ing.: differential dictionary.*

*Rus.: дифференциальный словарь.*

**DOKUMENTATSIYA (HUJJATLAR MAJMU'I).** 1. Tarjimani amalga oshirish uchun qo'llaniladigan qog'oz, magnit yohud raqamli elektron-texnik vositalari hamda og'zaki kommunikatsiya vositalari, shuningdek, boshqa ashyoviy buyumlar: 1) Monografiya, paralellmatnlar, nashr etilgan lug'at va qomuslar qog'oz ko'rinishadagi dokumentatsiyaga kiradi. 2) elektron terminologik lug'atlar va elektron qo'llanmalar raqamli elektron texnik vositalarga kiradi; 3) Magnitofon, kassetalar, vidiokassetalar magnit texnik vositalaridir; 4) Mutaxassislar va ekspertlar esa, og'zaki axborot manbalariga kiradi.

2. Tarjima qilish uchun talab qilinadigan barcha hujjatlar majmuasi va manbalari. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *Tarjimaga yordam beruvchi vositalar, parallel matnlar.*

*Olm.: Dokumentation. Ing.: documentation. Rus.:*

*документация.*

**DOKUMENTAL TARJIMA** – hujjatlarga asoslangan tarjima.

*Olm.: dokumentarische Uebersetzung. Ing.: documented translation. Rus.: документальный перевод.*

**DOMINANT TIL** – asosiy til, ona tili, rasmiy til, davlat tili.

*Olm.: Dominant Sprache. Ing.: Dominant language. Rus.: язык-доминант*

**DUNYONI BILISH ASOSIDA MATNNI KENGAYTIRISH.** Asliyatga muqobillikni ta'minlash uchun tarjimonning dunyoni bilish asosidagi bilimlari hisobiga tarjima matnini kengaytirishi. Bu bilimlar muayyan kommunikativ kontekstga daxldor bo'lib, asliyat muallifi, u yaratgan matn (asar), tarjima tili va o'quvchilarining imkoniyatlari bilan

bog'liq bo'ladi. Mufasssalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *interpretatsiya, situatsiya (holat), lisoniy belgi, dunyoni bilsh.*

*Olm.: Textergänzung aus dem Weltwissen. Ing.: world view based text expansion Rus.: расширение текста через мирознания.*

## ~ E ~

**EKSPRESSIV LEKSIKA** – erkalash, hazil-mutoyiba, kinoya, ortiqcha maqtash yoki kamsitish, bir so'z bilan aytganda kishi hissiyotiga ta'sir qiluvchi so'z yoki so'z birikmalari.

*Olm.: Expressive Lexik. Ing.: expressional lexicon. Rus.: экспрессивная лексика.*

**EKSTRALINGVISTIKA** – real voqe'likni ifodalovchi tildan tashqari muloqot vositalari.

*Olm.: Extralinguistik. Ing.: extralinguistics. Rus.: экстралингвистика.*

**EKVIVALENTLIK** – 1. Ekvivalent - (lot. *aequivalens*; rus. *равноценное, равнозначное, равносильное*; o'zb. *teng baholi, teng qiymatli, teng kuchli*). Ikki tilda, kontekstsiz ham, ma'nolari bir-biriga monand va bir-birining o'rmini qoplay oladigan maqol, matal va idiomalarni "ekvivalent birikma" deb qabul qilinadi. Ekvivalent birikmalarga quyidagilarni misol keltirish mumkin: *куй железно пока горячо* - *temirni qizig'ida bos, проходят красное нутью* - *qizil ip bo'lib o'tmoq, Alle fuer Einen, Eine fuer Allen* - *hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun*. 2. Asliyat va tarjima matnidagi lisoniy birliklarning o'zaro to'la yoki qisman mos kelishi.

Ekvivalentlik invariantga xos xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Asliyat tilidagi idiomatik birikmaga tarjima tilidan mos birikmaning ekvivalentligi: *Gebrantes Kind scheut das Feuer* (*kuyib qolgan bola olovdan qo'rqadi*) – *kuygan kishi qatiqni ham puflab ichadi*.

*Olm.: Äquivalenz. Ing.: equivalence. Rus.: эквивалентность.*

**ERKIN TARJIMA** – 1. Asliyatdagi yozma yoki og'zaki nutqning lisoniy-uslubiy xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratmagan holda uning asosiy mazmunini tarjimon o'zi tusunganicha tarjima qilishi. 2. Asliyat



va tarjima tillarining lisoniy qoidalariga erkin yondoshib amalga oshirilgan tarjima. 3. Asliyatdagi matn emotsional-erspressiv xususiyatlarini inobatga olmay, uning asosiy mazmunini qayta yaratishga qaratilgan tarjima. 4. Asliyat muallifi uslubi individual xususiyatlarini tarjima tili o'quvchisi qiziqishlariga qarab amalga oshirilgan tarjima. 5. Fuqarolashtirilgan (olmon tarjimashunosligida) tarjima. 6. Erkin tarjima – adaptatsiya. 6. Asliyat adabiy-lisoniy va uslubiy xususiyatlari tarjimasiga erkin yondoshish. Slovak olimi A.Popovich buni *sverxinterpretatsiya teksta*, deb nomlaydi. Tarjima amaliyotida erkin tarjima ijodiylikning yuksak namunasi sifatida baholangan holatlar ko'p uchraydi.

*Olm.: freie Übersetzung. Ing.: free translation. Rus.: вольный перевод.*

## ~ F ~

**FONEMATIK TARJIMA** - matnning fonematik xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratilgan tarjima.

*Olm.: fonematische Uebersetzung. Ing.: phonemic translation. Rus.: фонематический перевод.*

**FRAZEOLOGIZMLARNI IZOHLI TARJIMA QILISH** – 1. Asliyatdagi frazeologik birlikning obrazli xususiyatini tarjima tilida neytral so'zlar vositasida berish usuli. 2. Frazeologizmni nofrazeologik usulda tarjima qilish.

*Olm.: die erklärende Uebersetzung der Fraseologismen. Ing.: explanatory translation of phraseological expressions Rus.: пояснительный перевод фразеологизмов.*

**FRAZEOLOGIZMLAR OB`EKTIV ASOSI** - muayyan frazeologik birikma tarkibida ishlatilgan predmet (jonli yoki jonsiz) nazarda tutiladi. Xususan, maqol, matal va idiomalarning bittadan tortib to bir nechta ob`ektlari bo'lishi mumkin. Masalan, собаку съел idiomasida bitta *собака* so'zi ob`ekt bo'lsa, *кошке игрушки, а мышке слёзки* matalida esa ikkita - *кошка* va *мышка* so'zlaridir. Olmon tilida *die Perlen vor dem Schweinen schuetteln* (cho'chqaning oldida

*munchiq shodasini shaqqillatmoq*) da ham *die Perlen* (munchiq shodasi) va *Schwein* (cho'chqa) ikkita ob'ekt bor. Tarjimada ana shu ob'ektning qandayligi uni qay yo'sinda tarjima qilishni belgilovchi shartlardan hisoblanadi.

*Olm.: das Objekt der Phraseologismen. Ing.: object of phraseological expressions Rus.: объект фразеологизмов.*

**FRAZELOGIZMLARNING OB'EKTI TIMSOL VA RAMZLARDAN IBORAT BO'LISHI** - muayyan hodisa va voqealarning mazmuni ma'lum narsa va tushunchalar orqali anglashiladi. Masalan, bulbul va gul - oshiq va ma'shuq timsoli, kaptar - tinchlik timsoli, baqor - yangilanish va navqironlik timsoli va qakazo. Tillarning frazeologiyasini o'rganishda xalq qanday narsalarning nomini qanday voqea, qodisalarning timsoli sifatida qabul qilganligini aniqlash katta aqamiyatga ega. Masalan, tulki o'zbeklarda ayyorlik timsoli bo'lsa, olmonlarda donishmandlik ramzidir.

*Olm.: Der Bestand der Phraseologismen aus den bildlichen Wörtern und den Symbolen.*

*Ing.: phraseological expressions with figurative words and symbols content Rus.: состав фразеологизмов из образных слов и символов.*

**FRAZELOGIK TARJIMA** - asliyatdagi birikmani tarjima tilida qam frazeologik birlik orqali ifodalash, asliyatdagi frazeologizmlar tarjimasiga asosiy urg'u berilgan tarjima. Frazeologizmlar tarjimasida asosan quyidagi usullar bilan amalga ishirladi: 1) mos ekvivalent (to'la yoki qisman) bilan o'girish; 2) muqobil variant bilan berish; 3) so'zma-so'z tarjima qilish; 4) tarjima tilida tushuntirish yoki izohlab berish.

Bu qoidalar frazeologizmlar tarjimasining umumiy qoidalari bo'lib, ularni har qanday til yoki asarni har qanday tilga o'girishga nisbatan mutlaqlashtirib bo'lmaydi.

*Olm.: phraseologische Uebersetzung. Ing.: phraseological translation. Rus.: фразеологический перевод.*

**GERMENEVTIKA** - (*yunon. Hermeneutikos*) - shoriqlik san`ati.

- Bu badiiy asarni talqin qilish san`ati bo`lib, dastlab antik davrda (m.av. III asrdan milodiy V asrgacha) paydo bo`lgan. Matnni talqin qilish nazariyasi deb ham yuritiladi. qali yozuv paydo bo`lmagan davrlarda turli tillarda so`zlashuvchi qabila va elatlarning o`zaro muloqotlari "begona til"ni to`g`ri tushunish zarurati tarjimani yuzaga keltirdi. Bizdagi adabiyotlarda uni *Germanevtika* deb yoziladi. Germenevtika atamasi qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan bo`lib, antik mifologiyada xudolar amrini bandalarga etkazuvchi boshqa xudo Germes nomi bilan boqliq. Atamaning ma`nosi tushunarli bo`lishi uchun Germes ularning amr-farmonlarini muvofiq tarzda sharhlab, tushuntirib berishi kerak edi. Bu o`rinda u faqat vositachigina emas, balki shoriq qam bo`lgan.

*Olm.: Hermeneutik. Ing.: hermeneutics. Rus.: герменевтика.*

**GERMENEVTIK TARJIMA MODEL** – tarjimaning tushunish qonuniyati asosida amalga oshirilishi. Bunda tarjimon asliyatdagi international xoslikni chuqurrog anglash uchun muayyan ijtimoiy-psixologik talablar asosida uni ikkinchi bor tushunishga harakat qiladi.

*Olm.: Hermeneutische Model der Uebersetzung.*

*Ing.: hermeneutical models of translation.*

*Rus.: герменевтическая модель перевода.*

**GRAMMATIK HARFXO`RLIK** – asliyat matni grammatik shaklini tarjimada doimo aynan saqlab qolish.

*Olm.: grammatische Buchstäbelei. Ing.: Grammatical literalness*

*Rus.: грамматический буквализм.*

**GRAMMATIK ME`YOR** – muayyan tilda so`zlashishni tartibga solish uchun til amaliyotidan kelib chiqqan grammatik qoidalar majmuyi.

*Olm.: grammatische Norm. Ing.: grammatical norm. Rus.:*

*грамматическая норма.*

**GRAMMATIK TAFOVUT**– asliyat va tarjima matnlari grammatik qurulishi o`rtasidagi farq. Professor A.V.Fedorov asl nusxa

bilan tarjima tili o'rtasida yuz beradigan grammatik tafovutning 3 xil ko'rinishini qayd etadi:

1. Asl nusxa tilida asar tarjima qilinayotgan tilda bo'lmagan grammatik elementlar (artikllarning bor-yo'qligi, aniq va noaniq artikllar o'rtasidagi farq, ba'zi tillardagi o'tgan zamon fe'lining analitik va sintetik shakllari) uchraydi.

2. Asar tarjima qilinayotgan tilda asl nusxa tilida bo'lmagan, lekin tarjima jarayonida ishlatiladigan grammatik elementlar (tugallanganlik va tugallanmaganlik, grammatik jins kabilar) mavjud.

3. Asl nusxa tilida mavjud elementlar boru, ammo ular o'z funksiyalari tomonidan farq qiladi.

*Olm.: grammatischer Unterscheid. Ing.: grammatical difference.*

*Rus.: грамматическое различие.*

**GRAMMATIK SINONIMLAR** – bir-biriga teng qiymatli bo'lgan grammatik qurilmalar.

*Olm.: grammatische Synonyme. Ing.: grammatical synonyms.*

*Rus.: грамматические синонимы.*

**GRAMMATIK TAHLIL** – so'zlar o'rtasidagi grammatik aloqalarni aniqlash.

*Olm.: grammatische Analyse. Ing.: Grammatical analysis. Rus.: грамматический анализ.*

**GRAMMATIK TRANSFORMATSIYA** – 1. Asliyati matni grammatik tuzulishini tarjima tili qoidalaridan kelib chiqib o'zgartirish. 2. Asliyati matnidagi axborot mazmunini saqlab qolish uchun undagi gap, so'z birikmasi yoki so'zlar tuzulishini o'zgartirish asosida amalga oshiriladigan tarjima qilish usullaridan biri. 3. Sintaktik transformatsiya. 4. Asliyati va tarjima tillari grammatik tuzulishidagi farqlarni muvofiqlashtirish uchun bajariladigan tarjima usuli yoki metodlaridan biri. Unga: tarjimaviy kompensatsiya, o'rnini almashtirish, gap turini o'zgartirib tarjima qilishlar kiradi.

*Olm.: grammatische Transformation. Ing.: grammatical transformation. Rus.: грамматическая трансформация.*

## ~ H ~

**HARFMA-HARF TARJIMA** - asliyatda aks etgan obrazlar sistemasi va tarjima o'quvchisi ehtiyojlarini inobatga olmagan qolda uning tilini qanday bo'lsa shundayligicha o'girish, ko'r-ko'rona kalkalashtirish. Buni rus tarjimashunosligida "буквальный перевод" atamasi bilan ham ishlatiladi. Ammo buni so'zma-so'z tarjima (дословный перевод) atamasi bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Chunki so'zma-so'z tarjima o'z o'rnida qo'llanganda ijodiy mahorat samarasi bo'lishi mumkin. O'zbek tarjimashunosligida *harfma-harf tarjima*ni - *hijjalab qilingan tarjima* termini bilan ham qo'llanilib, ularni shaklbozlik (formalizm) jumlasiga kiritiladi.

*Olm.: Die buchstäbliche Übersetzung. Ing.: literal translation.*

*Rus.: буквальный перевод.*

**HIPERONIM.** Asliyatdagi ifodani tarjimada bir qadar maydalashtirib, detallashtirib berish. Masalan, olmon tilidagi *Tier* (*hayvon*) so'zini – *ot, it, mushuk va h.k.* tarzida o'girish. Olmon tilidagi *Stasse* (ko'cha) so'zini fransuzlarda ikkita *rue, route* ning o'rtasidagi so' sifatida tushuniladi. Sin.: generik (qarindosh) so'zlar.

*Olm.: Hyperonym. Ing.: superordinate. Rus.: хипероним.*

**HIPONIM.** Asliyatdagi ifodani tarjimada anchagina umumlashtirib berish.

Hiponimlar bo'lmish *stol, stul, divan, kreslolar*ni *mebel* degan hiperonim bilan ifodalanadi.

*Olm.: Hyponym. Ing.:hyponym Rus.: хипоним.*

## ~ I ~

**IDENTIFIKATSIYA** – 1. Tayin qilish, moslashtirish, muvofiqlashtirish. 2. Analogik bilishdan iborat nutq faoliyati.

*Olm.: Identifikation. Ing.: identification. Rus.: идентификация.*

**IDENTIFIKATSIYALASH KATEGORIYASI** – narsa va hodisalarni muayyan xususiyatlariga ko'ra muvofiqlashtirish.

*Olm.: Identifikation Kategorie. Ing.: identification category.*

*Rus.: идентификационная категория.*

**IDENTIK** – bir-biriga aynan oʻxshagan, toʻliq mos keldigan.

*Olm.: Identität. Ing.: identity. Rus.: идентичность.*

**IDEOGRAFIK LUGʻAT** – 1. Rasmi lugʻat. 2. Shartli belgilar, simvollar asosiga tavsiflanadigan lugʻat.

*Olm.: Ideographisches Woerterbuch. Ing.: ideographic dictionary. Rus.: идеографический словарь.*

**IDIOLEKT.** Muayyan soʻzlovchining muayyan vaqt birligi davomida soʻzlagan nutqi. Asliyat matni muallifi tasvirlagan *idiolekt* individual xususiyatlari (individual uslub) saqlansa, asliyat tiliga yoʻnaltirilgan tarjima yaratiladi yoki tarjima tili meʼyorlariga asosiy eʼtibor berilsa, “tarjima tili madaniyatiga yoʻnaltirilgan” tarjima paydo boʻladi. (shu oʻrinda quyidagilarni eslatib oʻtish lozim: olmon tilidagi “*Ausgangstext*” (*chiqish, dastlabki matn*) va “*Zieltext*” (*maqsad, maqsadli yoʻnaltirilgan*) terminlarni oʻzbek tiliga aynan oʻgirib boʻlmaganligi sababli ularni bizning tarjimashunoslikda qoʻllanilib kelayotgan anʼanaviy atamalar bilan berishga qaror qildik.). Mufassalroq maʼlumot olish uchun qaralsin: *registr, soziolekt.*

*Olm.: Idiolekt. Ing.: idiolect. Rus.: диалект.*

**IDIOMALAR TARJIMASI** – idiomar tarjimasida quyidagi holatlar roʻy beradi: 1. Idiomani aynan shunday idioma bilan soʻzma soʻz tarjima qilish. 2. Idiomani muqobil idioma bilan almashtirish. 3. Idiomani tarjima tilida izohlab berish. Bunda tarjima tilida obrazli birlikma ishlatilmaydi.

*Olm.: Die Übersetzung der Idiome. Ing.: idioms translation. Rus.: перевод идиом.*

**IDIOMATIK TARJIMA.** Tarjima tili imkoniyatlaridan kelib chiqib asliyatdagi matnni tarjima qilish strategiyalaridan biri. 1. Muayyan ijtimoiy-madaniy jabhada tilni amalda qoʻllash va meʼyorlarga tayanish bilan idiomatik tarjimadan foydalanish tarjima jarayonida amalga oshiriladi. Bu esa oʻz oʻrnida tarjima oʻquvchilarining qiziqish va ehtiyojlarini ham inobatga olinadi. 2. Qoida boʻyicha tarjimon tarjima oʻquvchisi (adresat)ning ham kutgan narsalarini hisobga olishi kerak.

Badiiy tarjima hamda “Injil” yoki “Qur’on” tarjimalarida tarjima yo’nalishini asliyatga qaratiladi. Bunday hollarda so’zma-so’z aniqlik talab etilganligi bois, idiomatik tarjimani qo’llab bo’lmaydi. Mufassalroq ma’lumot olish uchun qaralsin: *transparents, so’zma-so’z tarjima, tarjima o’quvchisiga yo’naltirilgan tarjima*

*Olm.: idiomatische Übersetzung. Ing.: idiomatic translation.*

*Rus.: идиоматический перевод.*

**IDIOMATIK IBORA.** Shaklan bo’laklarga ajralmaydugan, maxraji birikma tarkibidagi so’zlarning to’g’ri va konkret ma’nosi bilan talqin qilinmaydigan, ko’chma ma’no anglatuvchi barqaror so’z birikmasidir.

Masalan: qo’ltig’idan tarvuzi tushdi.

Idiomalarni boshqa tilga so’zma-so’z tarjima qilib bo’lmaydi. Ularni doimo muqobil variant bilan o’girish lozim. Sin.: Frazeologizm.

Mufassalroq ma’lumot olish uchun qaralsin: *anglizizmlar, klishelar.*

*Olm.: idiomatische Wendung. Ing.: idiomatic expression. Rus.: идиоматическое выражение.*

**IFODALASH.** Muayyan kontekst ichidagi verbal muloqot. Kontekstga – kommunikativ akti muayyan hudud va vaqt birligida o’zaro amalga oshiradigan muloqot qiluvchilar: axborotni “yuboruvchi” va „qabul qiluvchi“ kiradi. Tarjimada asliyatdagi xabar yoki axborot tarjima tili xususiyatlaridan kelib chiqib o’girilganligi bois muayyan o’zgarishlarga uchraydi. Tarjimon doimo axborot uzatuvchi, yangi matn yaratuvchi bo’lib qoladi.

*Olm.: Äusserung. Ing.: enunciation. Rus.: выражение.*

**IKKI TOMONLAMA TARJIMA** – bir tildan ikkinchi tilga va aksincha ikkichinchi tildan birinchi tilga amalga oshirilgan tarjima.

*Olm.: die Rueckuebersetzung. Ing.: back translation. Rus.: обратный перевод.*

**IKKI BOSQICHLI SINXRON TARJIMA** – ikk bosqichli sinxron tarjimada dastlab notiqning nutqi mazkur tili biluvchi tarjimonlarning yetakchi kabinasiga uzatiladi. Masalan, ingliz tilidan o’zbek tiliga. Keyin esa, mazkur yetakchi kabinadan tinglovchilarning til

bilish imkoniyatlariga qarab boshqa tillarni biluvchi tarjimonlar o'tirgan kabinalarda yuboriladi. Yetakchi kabinada vositachi tilni biladigan tarjimonlarning bo'lishi yetarli hisoblanadi.

*Olm.: die zweigestufte Simultanuebersetzung. Ing. : Two-level simultaneous translation Rus.: двухступенчатый синхронный перевод.*

**IKKI TILARO KOMMUNIKATSIYA AKTI** – qarang: *tarjima jarayoni*.

*Olm.: die zweisprachige Kommunikationsakt. Ing. : bilingual communication act. Rus.: двуязычный коммуникационный акт.*

**IKKI TILLI KOMMUNIKATSIYA** – turli tilda gaplashadigan muloqot ishtirokchilarining tarjimon vositasida o'zaro kommunikatsiyaga kirishuvlari.

*Olm.: die zweispracheige Kommunikation. Ing. : bilingual communication. Rus.: двуязычная коммуникация.*

**IKKI TILLI LERKSIKOGRAFIYA** – ikki tilli tarjima lug'atlari bilan shug'ullanuvchi soha.

*Olm.: die zweispracheige Lexikographie. Ing. : bilingual lexicology. Rus.: двуязычная лексикография.*

**ILLYUSTRATSIYALI TARJIMA LUG'ATI** – ko'rgazmalilik (rasm, jadval va boshqa tasviriy vositalar) asosida tuzilgan ikki yoki ko'p tilli lug'at.

*Olm.: Illustrations Uebersetzungswoerterbuch. Ing.: illustrated translation dictionary. Rus.: иллюстрированный переводческий словарь.*

**ILMIY ADABIYOT TARJIMASI** – tarjima tilining me'yorlariga mos kelishi kerak. Bunda asliytdagi ilmiy matn terminologiyasi va uning mazkur kontekstdagi o'rnini bilish talab qilinadi. Asliytdagi terminga mos variant tanlashda avvalo ona tili lug'at xazinasi, keyin esa o'zlashma so'zlardan ham foydalanish tavsiya qilinadi. Bunday tarjimada aslyiat matnidani chetga chiqish mumkin emas.

*Olm.: Uebersetzung der wissenschaftlichen Literatur. Ing.: translation of scientific literature. Rus.: перевод научной литературы.*



**ILMIY TARJIMA** – maxsus ilmiy matnlar tarjimasi.

*Olm.: wissenschaftliche Uebersetzung. Ing.: scientific translation. Rus.: научный перевод.*

**ILMIY-TEXNIK TARJIMA** – 1. Asosiy xususiyati emotsional-ekspressiv so'zlardan minimal foydalangan holda, terminlardan faol foydalanib, asliyat mazmunini aniq o'girishga qaratilgan tarjima turlaridan biri. Bunday tarjima tarjimondan maxsus sohaga oid terminlarni yaxshi bilishdan tashqari ulardan tarjima jarayonida o'rinli foydalanishni ham talab etadi. 2. Ilmiy-texnik sohadagi matnlar tarjimasi bilan shug'ullanuvchi tarjima janrlaridan biri. U badiiy tarjimadan o'zining mazmuniy aniqligi, lo'ndaligi va siqiligi bilan farqlanadi.

*Olm.: Uebersetzung der wissenschaftlich-technische Literatur. Ing.: Translation of scientific-technical literature. Rus.: перевод научно-технической литературы.*

**IMITATSIYALI TARJIMA** – asliyat matnini imitatsiya (taqlid) qilish yo'li bilan aks ettirish.

*Olm.: Imitationsuebersetzung. Ing.: imitational translation. Rus.: имитационный перевод.*

**INFORMATSIYA** – nutq faoliyatida uzatish, saqlash va qayta ishlashga mo'ljallangan ma'lumot.

*Olm.: Information. Ing.: information. Rus.: информация.*

**INFORMATSION ZAXIRA** – tillararo kommunikatsiya (tarjima) jarayoni ishtirokchilari, xoh asliyat muallifi, xoh tarjimonning o'z lisoniy informatsion zahirasi bo'ladi. tarjimon va tarjimashunos olim R.K. Minyar Beloruchev 5 ta darajadagi informatsoin zahira mavjudligini ko'rsatadi.

*Olm.: der informative Vorrat. Ing.: information stock. Rus.: информационный запас.*

**INFORMATSION ZAXIRANING BIRINCHI DARAJASI** – hayotning u yoki bu tomonini minimal aks ettiradigan leksik zahiraga ega bo'lish.

*Olm.: der erste Stufe der informativen Vorrat. Ing.: the first step of information stock. Rus.: первый степень информационного запаса.*

**INFORMATSION ZAXIRANING IKKINCHI DARAJASI** – bo bosqichda predmet va hodisalarni faqat turlarga bo'lishdan ularni xillarga ajratishga ham o'tiladi.

*Olm.: der zweite Stufe der informativen Vorrat. Ing.: the second step of information stock. Rus.: второй степенъ информацииого запаса.*

**INFORMATSION ZAXIRANING UCHINCHI DARAJASI** – bir tur yoki xilga masub predmetlardan ularning bajaradigan vazifasiga qarab turli xillari – denotatlarga ajratib olinadi.

*Olm.: der dritte Stufe der informativen Vorrat. Ing.: the third step of information stock. Rus.: третий степенъ информацииого запаса.*

**INFORMATSION ZAXIRANING TO'RTINCHI DARAJASI** – predmetlardan ularning bajaradigan vazifasiga qarab turli xillari – denotatlar haqida muayyan sistemalashtirilgan axborotlar soni aniqlanadi.

*Olm.: der vierte Stufe der informativen Vorrat. Ing.: the fourth step of information stock. Rus.: пятый степенъ информацииого запаса.*

**INFORMATSION ZAXIRANING BESHINCHI DARAJASI** – denotat to'g'risida yanada kengroq ma'lumotlarga ega bo'linadi.

*Olm.: der fuenfte Stufe der informativen Vorrat. Ing.: the fifth step of information stock. Rus.: пятый степенъ информацииого запаса.*

**INFORMATSION TARJIMA** – asliyatdagi matnning faqat adresatgagina mo'ljallangan qismini o'z ichiga olgan tarjima.

*Olm.: Informationsuebersetzung. Ing.: informational translation. Rus.: информационный перевод.*

**INFORMATSION TIL** – turli axborot tizimlarida qo'llaniladigan sun'iy til.

*Olm.: die Informationssprache. Ing.: informational language. Rus.: информационный язык.*

**INTERPRETATSIYA** (lot.interpretation) – rus. толкование, раскрытие смысла, разъяснение того или иного текста).

Tarjimonning asliyat matnida ifoda etilgan soʻzlarga mos keladigan tarjima matnini yaratishi va bunda uning dunyo haqidagi bilimlarining aks etishi. Interpretatsiya asliyat matnidagi har qanday soʻzga bir xil darajada qoʻllanavermaydi. Soʻzning matnda tutgan oʻrniga qarab – soʻzma-soʻz oʻtkazish, muqobil variantlaridan foydalanish, soʻz maʼnosini faollashtirish, izohlash, konkretlashtirish hamda boshqa metodlardan foydalanish mumkin boʻladi.

Sin.: talqin. Mufassalroq maʼlumot olish uchun qaralsin: *professional tarjima, talqin, tarjima yaxlitligi.*

*Olm.: Interpretation. Ing.: interpretation. Rus.: интерпретация.*

**INTERPRETATSIYALI TARJIMA** – asliyatdagi axborotning toʻlaligicha tarjimada aks ettirilishi. Asliyatdagi ayrim soʻz yoki birikmalarni agar oʻziday olinadigan boʻlsa, bunday tarjimadan hech qanday maʼno chiqmaydi. Shuning uchun uning oʻzbekcha tarjimasi mantiqan tabiiy shaklda boʻlishi lozim. Bunday hollarda shaklan asliyatda boʻlmagan ayrim soʻzlar tarjima matniga "qoʻshiladi". Ularni biz mazmunan originalda bor, deb bilamiz. Ruschada: "- ... как ни корми, а мой родной сын – капитан и командир батареи, это ни шутка!" ni oʻzbek tiliga: "- ... Nima desang, de, oʻz pushti kamarimdan boʻlgan oʻqlim - kapitan, batareya komandiri, bu hazil gap emas!" deb tarjima qilingan. Ruscha *мой родной сын* birikmasidagi *родной* soʻzini oʻzbek tiliga shunday soʻz bilan oʻgirib boʻlmaydi. Shuning uchun tarjimon bu soʻzning oʻrniga *oʻz pushti kamarimdan boʻlgan* soʻzlarini qoʻshib tarjima qilgan, ammo bu bilan originalga xilof etmagan, aksincha u sodda va tushunarli chiqqan. Bundan tashqari, "это не шутка" iborasini "bu hazil gap emas" deb tarjima qilganda "gap" soʻzining qoʻshilishi ham interpretatsiyadir.

*Olm.: Interpretations Uebersetzung. Ing.: interpretative translation. Rus.: интерпретационный перевод.*

**INFORMATSION TARJIMA NAZARIYASI** – tillararo kommunikativ faoliyatning tarjimashunoslik asnosida tadqiq qilinishi. Bunday tushunchani fanga taniqli tarjimon va tarjimashunos olim R.K. Minyar-Beloruhev olib kirgan. Unga koʻra AT (asliyat tili) dagi matn TT (tarjima tiliga)ga informativ xarakterda oʻgiriladi. Bunday

tarjimadan ko'zlangan asosiy maqsad asliyatdagi axborotnigina berishdan iborat bo'ladi. R.K. Minyar Beloruchev asliyatdagi axborotni 3 qismga ajratadi: 1) fonli informatsiya (shovqin-surondan iborat); 2) aytilayotgan fikrning ma'nosini ifodalovchi semantik- situativ informatsiya; 3) tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq beradigan nutq uslubiga oid informatsiya.

*Olm.: Informations Uebersetzungstheorie. Ing.: informational translation theory Rus.: информационная теория перевода.*

**INTERFERENTSIYA** - ona tili xususiyatlarining o'rganilayotgan chet tiliga o'tish hodisasi. Tarjimada esa, asliyat va tarjima tili imkonoyatlarini yetarli darajada bilmaslik yoki tarjima metodlaridan noto'g'ri foydalanish natijasida kelib chiqadigan xato va kamchiliklar. 1. Ingliz tilida *he realize a mistake* jumlasini olmon tiliga *einen Fehler realisieren* tarzidanoto'g'ri o'girib qo'yiladi. Bunday xato inglizcha realizeni shundayligicha tushunish oqibatida kelib chqadi. Uni aslida *einen Fehler erkennen* tarzida tarjima qilinishi kerak. 2. Ingliz tilidan kirib kelgan ana shunday so'larni anglizizm, olmon tilidan bo'lsa, germanizm, faransuz tilidan bo'lgan taqdirda gallizizm deb ataladi. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *o'zlashma so'zlar, chalkashtiruvchi ma'no, soxta do'stlar.*

*Olm.: Interferenz. Ing.: interference. Rus.: интерференция.*

**INTERNATSIONAL LEKSIKA** - 1. Turli tillarda bir xil shakl va ma'no anglatadigan so'z, termin va lug'aviy birliklar. Ular tilga boshqa tillardan yoki uchinchi bir tildan kirib kelib, o'zlashadi. 2. Ko'plab tillarda mavjud bo'lib, o'zaro mazmun jihatdan bir-biriga mos keladigan, ammo yozilishi o'zlashtirgan til imlo qoidalari bo'yicha yoziladigan, kelib chiqishi bir tilga borib taqaladigan so'zlar.

*Olm.: Internationale Lexik. Ing.: international lexicon. Rus.: интернациональная лексика.*

**INTERNATSIONAL SO'ZLAR** - qarang: internatsionalizmlar.

*Olm.: Internationale Woerter. Ing.: international words. Rus.: интернациональные слова.*

**INTERPRETATSIYAVIY MAVQE'** - tarjimonning asarga qanday shart-sharoitlar bilan yondoshuvi, unda nimani ko'rishni maqsad

qilib yaqinlashuvidir. Ana shu o'ziga xosliklarga qarab original asar tarjimada turlicha gavdalanishi mumkin.

*Olm.: Interferenz Kompetenz. Ing.: interference competence.*

*Rus.: интерференционная компетенция.*

**INTERSEMIOTIK TARJIMA** – 1. Bir tabiiy til (so' bilan ifodalanadigan)dagi matnni boshqa bir sun'iy til (xoreografiya, musiqa)ga o'girish. 2. Tabiiy tilda yaratilgan matnni sun'iy tilda talqin qilish.

*Olm.: Intersemiotische Uebersetzung. Ing.: intersemiotical translation.*

*Rus.: интерсемиотический перевод.*

**INVARIANT** – 1. Tilning amaliyotda qo'llanishidan farqli ravishda, uning abstract tafakkur holatidagi shakily birligi. 2. Ifodaning o'zgarmagan, amaliyotga tadbiiq qilinmagan ko'rinishi. 3. Inson tafakkuri mahsuli bo'lgan fikr mazmuni bilan uning tildagi ifodasi o'rtasida o'zaro mutanosiblik bo'lmagan holatdagi qonuniy ob'yektiv abstraktsion ko'rinishi. Bu mutanosiblik yo'qligining sababi tafakkur va tilning o'zaro bi-biri bilan bog'liq bo'lsa ham bilishning turli ko'rinishlariga ega bo'lgan bir narsa emasligidir.

*Olm.: Invariant. Ing.: invariant. Rus.: инвариант.*

**INVARIANT ZARURIYATI.** Tarjimon yoki tarjima tanqidchilarining asliyatdagi qaysi jihatni muqobil variant sifatida tarjima matnida qoldirish haqidagi xulosalari. Invariant zaruriyati tarjima maqsadi, asliyat matni xususiyatlaridan kelib chiqib tarjimon tomonidan intuitiv tanlanadi. Ana shundagina tarjima asliyatga ekvivalent bo'la oladi. Invariantni har qanday til birligiga bir xil darajada qo'llab bo'lmasligi uning darajalari ro'yxatini tuzishni taqazo qiladi.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *ekvivalentlik, matn tipologiyasi.*

*Olm.: Invarianzforderung. Ing.: invariance requirement. Rus.: инвариантная потребность.*

**INDIVIDUAL SILJISH** - tarjimonning ta'bi, obrazlilikni qis qilish xususiyati, individual o'ziga xosligi bilan boq'liq bo'lgan uslubiy siljish.

*Olm.: die individuelle Verschiebung. Ing.: individual shift. Rus.: индивидуальный сдвиг.*

**ISHLOV BERISH** (olm. *die Bearbeitung* – qayta ishlash, ishlov berish). Tarjima matnini asliyatga moslashtirish maqsadida unga sayqal berish. Germaniya tarjimashunosligida ushbu termin Albrecht Jorn tomonidan kiritilgan bo'lib, u tarjima usullarini umumlashtiruvchi ma'no o'rnida qo'llaniladi.

*Olm.: die Bearbeitung. Ing.: refinement. Rus.: обработка.*

**IZOH BERISH ORQALI KENGAYTIRISH (EKSPLIKATSIYA)**. Bunday usul asliyatgagi biror bir so'z yoki tushuncha tarjima o'quvchisiga tushunilishi qiyin bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Izoh berish bevosita tarjima matni ichida berilib, kontekst talablaridan kelib chiqqan holda matnni kengaytirishda maxsus so'z kiritib ketiladi. M.: *Er gab vor, zum Essen verabredet zu sein und schlenderte mit einem ungueten Gefühl in der Nähe des Flora umher.* - *U ovqatlanishga kelishib qo'yganligi bois ham Flora kafesi atrofida yoqimsiz his-tuyg'u bilan laqqillab yurdi.* Bu o'rinda asliyatdagi *Flora* so'zi tarjima o'quvchisiga tushunarsiz bo'lganligi uchun ham izohlovchi *kafe* so'zi kiritilgan.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *dilutsiya, perifraza, tabaqalashtirish*

Ant.: lo'ndalashtirish;

*Olm.: Explizierung. Ing.: explication. Rus.: экспликация.*

**IZOHLI TARJIMA** – 1. Tarjima tilida asliyatga ijtimoiy, geografik va milliy xususiyatlarga aynan mos keladigan muqobillar bo'lmagan taqdirda qo'l keladigan faol tarjima usullaridan biri. 2. Asliyat matni mazmunini tarjima tilida tushuntirish, izohlash va tavsiflab berishga asoslangan tarjima usuli. 3. Muqobilsiz leksikani tarjima qilish yo'llaridan biri. 4. Asliyatdagi lisoniy birlikni tarjima tilida erkin tavsiflab berish.

*Olm.: die erklärende Uebersetzung. Ing.: Explanatory translation. Rus.: пояснительный перевод.*

~ J ~

**JANRIY SILJISH** - original asar janrining tarjima matnida ayrim o'zgarishlarga uchrashi. Bunday siljishlarga ko'pincha bir asarning bir necha tarjima variantlarining bo'lishi ham sabab bo'ladi.

*Olm.: die genrehafte Verschiebung. Ing.: Genre shift. Rus.: жанровый сдвиг.*

**JUMLAVIY TARJIMA** – gapma-gap amalga oshirilgan tarjima.

*Olm.: die Satzuebersetzung. Ing.: sentence translation. Rus.: перевод предложения.*

~ K ~

**KALIT SO'Z** – tarjima jarayonida o'zida matndagi eng muhim axborotni mujassamlashtirgan so'z.

*Olm.: das Schluesselwort. Ing.: Keyword. Rus.: ключевое слово.*

**KALKA** – so'z yoki so'z birikmasini harfma-harf (hijjalab) tarjima qilish bilan o'girish. Uning quyidagi turlari bor:

1. *Leksik kalka* – tarjima tilida asliyatdagi qoidalar bo'yicha yasalgan so'z.

2. *Semantik kalka* – so'zning chet tilidagi ma'nosi ta'siri bilan paydo bo'lgan ifodasi.

3. *frazeologik kalka* – chet tilidagi birikmani qismlarga bo'lib hijjalab (harfma-harf) tarjima qilish.

*Olm.: die Kalke. Ing.: Calque. Rus.: калькирование*

**KENGAYTIRISH.** Tarjima jarayonida asliyat asosiy mazmunini yoki biror bir so'zni to'laqonli aks ettirish uchun tarjima matnida asliyatdagidan ko'proq so'z qo'llanilishi mumkin. Agar bu jarayon faqatgina so'zma-so'zlikka asoslanadigan bo'lsa, unda uslubiy muqobillikni ta'minlab bo'lmaydi. Kengaytirish faqat jarayongina emas, balki natija hamdir.

Ant.: die Ökonomie; Sin.: Ma'noviy kengaytirish. Mufasssalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: dilutsiya, perifraza, tarjima matnini kengaytirish.

*Olm.: die Erweiterung. Ing.: Amplification. Rus.: расщупение.*

**KETMA-KET (IZCHIL) TARJIMA** – 1. Tinglab tushunilgandan so'ng amalga oshiriladigan og'zaki tarjima. Bunday tarjimalar odatda jumla yoki absatzlarga bo'lib o'giriladi. Aks holda qiyinchiliklar tug'iladi. Ketma-ket (izchil) tarjimada asliyat tilida so'zlovchi notiq tarjimonning uning nutqini tinglab tushunish imkoniyatiga ahamiyat qaratishi lozim. 2. Asliyatdagi yozma nutqni tinglab tushunish natijasida, nutq paytida avvaldan ko'zda tutilgan to'xtalish paytida amalgam oshiriladigan og'zaki tarjima xillaridan biri. 3. O'zga tildagi nutqni tnglangandan so'ng amalgam oshiriladigan og'zaki tarjima.

*Olm.: die konsequente Uebersetzung. Ing.: Consecutive translation. Rus.: последовательный перевод.*

**KINO/VIDEO MATERIALLARI TARJIMASI** – sinxron, ketma-ket va yozma tarjima jumlasiga kiradi. Bunda asosan muayyan auditoriyaga mo'ljallangan ovoz berish muhim ahamiyat kasb etadi.

*Olm.: Uebersetzung der Kino/Video Materialien. Ing.: Translation of cinema and video materials. Rus.: перевод кино/видео материалов.*

**KLASSITSISTIK TARJIMA** – klassitsizm davri hukm surgan muhitda amal qilgan tarjimaviy oqim. Bunda asliyat matniga ham ayrim o'zgartirishlar qilish kabi erkinliklarga yo'l qo'yilgan. Ammo bunday harakatlar tarjimonning sub'yektiv tashabbusi bilan bo'lmay, o'sha davr estetik talab va qiziqishlaridan kelib chiqib qilinadi.

*Olm.: die klassizistische Uebersetzung. Ing.: classicistical translation. Rus.: классицистический перевод.*

**KILISHE** – 1. Doimo bir xil ma'no va ma'lumotni o'z ichiga olgan, tez-tez takrorlanib turadigan har qanday nutq birligi. 2. Eng ko'p qo'llaniladigan so'z va so'z birikmalari. Ularni situativ klishe'lar deb ham ataladi.

*Olm.: der Klische. Ing.: Cliché. Rus.: клише.*



**KOHARENS.** G'arbiy Evropa tarjimashunosligida qo'llaniladigan atama bo'lib, u muayyan bir matn yoki ifoda tarkibidagi lisoniy birliklarning o'zaro bo'g'liq va bir-birini taqazo qilishini ifodalaydi. Ana shu tarkibning yaxlitligi matnning umumiy ma'nosini bera oladi. Masalan, *ob havo yaxshi bo'lganida yer quyosh atrofida aylanadi* degan gapda *koharens* yo'q. Koharens turli morfologik, sintaktik va uslubiy birliklarning mantiqiy va kontekstual birikishidan hosil bo'ladi.

*Olm.: Kohärenz. Ing.: coherence. Rus.: когеренция*

**KOMMENTARIY** – asliyat tilidagi muayyan so'z, atoqli ot, termin, tarixiy voqea, grammatik yoki uslubiy vositalar, leksik birlik va ayniqsa realiyalarni sharxlash yoki tavsiflash.

*Olm.: das Kommentar. Ing.: the comment. Rus.: комментарий.*

**KOMMUNIKAT** – 1. Kommunikatsiya ishtirokchilaridan biri, manba yoki adresat. 2. Axborot almashishdagi ma'lumot uzatuvchi yoki uni qabul qiluvchi shaxs. 3. Manba yoki adresat sifatida namoyon bo'lgan kommunikativ vazifasidagi tarjimon. 4. Nutq kommunikativiyasi (muloqoti) dagi (*gapiruvchi – adresant, tinglovchi - adresat*) hamkorlar.

*Olm.: das Kommunikat. Ing.: communicator. Rus.: коммуникат.*

**KOMMUNIKATIV BIRLIK** – axborotni mustaqil uzatish imkoniyatiga ega bo'lgan nutq birligi. Nutqdagi asosiy kommunikativ birlik – gap hisoblanadi.

*Olm.: das Kommunikative Einheit. Ing.: communicative unit. Rus.: коммуникативная единица.*

**KOMMUNIKATIV KOMPETENSTIYA** – 1. Nutq muloqoti sohasidagi matn va kommunikativ interpretatsiy natijalaridan iborat bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar mujmuyi. 2. Ijtimoiy me'yorlarni inobatga olgan holda nutq faoliyatining turli sharoitlaridagi lisoniy ifoda imkoniyatlari.

*Olm.: das Kommunikative Kompression. Ing.: communicative compression. Rus.: коммуникативная компрессия.*

**KOMMUNIKATIV MAVQE'** - tarjimonning asliyat lisoniy-uslubiy xususiyatlarini tarjima tiliga moslashtirish, qayta yaratish, ikki til va adabiyot o'rtasidagi kommunikativ munosabat jarayonida tutgan

o`midir. Bunda dastlab asliyat matni tahlil qilinadi (kodlashtirish) va tarjima matniga o`tkaziladi (dekodlashtirish). Tarjimon bu o`rinda asliyatdagi obrazlar sistemasi va uslubini tarjima adabiyoti obrazlar sistemasi va uslubiga o`tkazib, ularni o`zaro muayyanlashtiradi.

*Olm.: die kommunikative Kompetenz. Ing.: communicative competence. Rus.: коммуникативная компетенция.*

**KOMPENSATSIYA** - (lot.*compensare*, o`rnini to`ldirish), vozmeshenie, voznagrajdenie za poteryannoe ili ustuplennoe ; o`zb. o`mini to`ldirmoq, yo`qotilgan yoki yo`qotilgan yoki berib turilgan narsa o`rniga mukofot berish. Asarning asl nusxadagi ko`chma ma`noli birikmalarni ularning ekvivalentlari va muqobil variantlari bilan almashtirish uncha qiyin emas. Ammo, unda shunday maqol, matal va boshqa birikmalar ham borki, ular ayni tilning o`zigagina xos bo`lib, boshqa tilga ko`chirish juda katta qiyinchiliklar tuqdiradi. Bunday holda o`sha frazeologizm o`rniga boshqa birikma keltirilib qo`yiladi va bu bilan originalning o`rni to`ldiriladi. Kompensatsiya terminining lug`aviy ma`nosini "tovon to`lash" deyish mumkin. N.V.Gogol`ning "Uylanish" komediyasidagi basurman (asarda bunda frantsuz tilini nazarda tutilgan) so`zini o`zbek tiliga musulmon deb o`girilsa, asliyatning milliy xosligiga putur etkazilgan bo`lardi. Shuning uchun ham uni A.Qahhor chulchutcha bilan kompensatsiya qilgan.

*Olm.: die Kompensation. Ing.: compensation. Rus.: компенсация.*

**KOMPENSATSIYA USULLARI** – 1.Tarjima jarayonida ro`y beradigan ma`noviy-uslubiy yo`qotishlar o`rnini to`ldirish uchun qo`llaniladigan turli usullar. 2. Asliyatni qayta yaratishda aynan o`sha joyda bo`lmasa ham o`rni bilan boshqa o`rinda mazkur kemptikni to`ldirib ketish usuli. 3. Tovon to`lash usuli.

*Olm.: die Methoden der Kompensation. Ing.: Methods of compensation.*

*Rus.: методы компенсации.*

**KOMPLEMENTAR ALOQA** - tarjima matniga turli qo`shimchalar (izoq, sharh va boshqa qo`shimcha tavsiflar)ning kiritilishi.

*Olm.: Komplementare Verbindung. Ing.: Complementary relation*

*Rus.: комплементарная связь.*

**KOMPILYATIV TARJIMA** - bir asarning muayyan tilga avval bir karra qilingan tarjimasiga suyangan va unga asoslangan holda amalga oshirilgan tarjima.

*Olm.: kompilative Uebersetzung. Ing.: compilative translation.*

*Rus.: компилятивный перевод.*

**KOMPOZITSIYA** – matnning ichki va tashqi tuzulishi munosabatlari printsipli va uning lisoniy-uslubiy ifodasi; bu shunchaki shakliy qurilma bo'lmay, matn mazmuni bilan chambarchas bog'liq bo'lgan g'oyaviy-estetik kategoriya hisoblanadi.

*Olm.: die Komposition. Ing.: composition. Rus.: композиция.*

**KOMPRESSIYA** (lot. *Compressio* - lo'nda ifodalash) - fikrni qisqa va lo'nda ifodalash. Bu holatda so'z birikmalarini aloqida so'z bilan, bevosita sintaktik aloqaga kirishmagan ikki yoki undan ortiq so'zlarni birgina so'z bilan, ergash gapli qo'shma gaplarni sodda gaplar bilan almashtirish kabi tarjima usullaridan foydalaniladi. Bunda "ortiqsa" so'z va ifodalardan voz kechiladi. Kompressiya usuli bilan o'g'irganda ko'pincha kirish so'z va so'z birikmalari (masalan, rus tilidagi "следует отметить", "необходимо указать", "нельзя не заметить" kabilari) tashlab ketiladi.

*Olm.: die Kompression. Ing.: compression. Rus.: компрессия.*

**KONFRONT** – mashinaviy (elektron) lug'atdagi tarjimaviy ekvivalent.

*Olm.: Konfront. Ing.: confront. Rus.: конфронт.*

**KONKRETLASHTIRISH** – 1. Kengroq ma'noli so'zni tarjimada nisbatan torroq mazmunli so'z bilan berish. 2. Asliyatdagi so'zning mantiqiy xususiyatlarini tarjimada yanada aniqlashtirishda qaratilgan usul.

*Olm.: die Konkretisation. Ing.: Concrete definition. Rus.: конкретизация.*

**KONNOTATSIYA** (lot. *Cun, con* – birga+notare – belgilamoq). Til birligining konnotativ ma'no (ekspressiv, bo'yoqli kabi qo'shimcha ma'nolari) ifodasi. Denotativ ma'nodagi barcha subjektlar majmuining

amalda turli holatlarda ishlatilishi bilan yana boshqacha talqinlarga ega bo'lishi. Tarjima didaktikasida konnotatsiyaning ta'sirchanlik va emotsional effektlariga ega bo'lishi bilan denotatsiyadan farqlanishini to'g'ri tushunilishi kerak.

*Olm.: Konnotatsion. Ing.: connotation. Rus.: коннотация.*

**KONTEKST** (*lot. Contextus – yaqin aloqa, birikish, qo'shilish.*) Tildagi leksik birlikning muayyan kommunikativ muhitda to'g'ri deb topilgan ma'nosi. Tildagi kontekst bilan tildan tashqaridagi kontekstni tilshunos olim Ketford *Ko-text va Kontext* deb ataydi. Boshqalar buni *situational context* yoki *kontekst* deydi. 1. U yoki bu til birligi qo'llaniladigan lisoniy muhit. 2. Kichik kontekst – so'z yoki so'z birikmalari ishtirok etgan til birligi; katta kontekst – nutq manbai axborot zahirasi bo'lmish – leksik birlikning ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan bilim, o'tmish tajribalari. 3. Nutq birligi mazmunini ifodalash uchun oldindan yaratilgan sharoit, muhit. Ana shu yaratilgan muhitga qarab unda ishtirok etgan til birliklari turlicha mazmunni ifodalashi mumkin bo'ladi.

*Olm.: Kontext. Ing.: context. Rus.: контекст.*

**KONTEKSTUAL** – muayyan kontekst bilan chambarchas bo'g'liq bo'lgan.

*Olm.: kontextuell. Ing.: contextual. Rus.: контекстуальный.*

**KONTEKSTUAL ALMASHTIRISH** – 1. Faqat muayyan kontekstdagina bir-biriga muqobil bo'la oladigan tarjima varianti. 2. Muqobil variantdan foydalanish.

*Olm.: kontextueller Ersatz. Ing.: contextual replacement. Rus.: контекстуальная замена.*

**KONTEKSTUAL MA'NO** – lisoniy birlikning tor, keng yoki ekstralinivistik sharoit taqazosi bilan qo'llanilishi. So'z yoki lug'aviy birliklarni muayyan uslubiy maqsadlarda ishlatilganligi bois ularning barcha kontekstual ma'nolarini lug'atlarda ifodalab berilmaydi.

*Olm.: kontextuelle Bedeutung. Ing.: contextual content Rus.: контекстуальное содержание.*

**KONTEKSTUAL SINONIMLAR** – faqat muayyan kontekstdagina bir-biriga ma'nodosh bo'lgan til birliklari.

*Olm.: kontextuelle Synonyme. Ing.: contextual synonyms. Rus.: контекстуальные синонимы.*

**KONSTITUTIV SILJISH** - asliyat va tarjima o`rtasidagi lisoniy, poetik, uslubiy jihatdan hal qilib bo`lmaydigan farqlar natijasida sodir bo`ladigan siljish.

*Olm.: die konstitutive Verschiebung. Ing.: constitutive shift. Rus.: конститутивный сдвиг.*

**KONTSEPT** – tushuncha ma`nosi, fikr, tasavvur.

*Olm.: das Konzept. Ing.: the concept. Rus.: концепт.*

**KONZENTRATSIYA.** Asliyatdagi yoyiq yoki kengaygan holda kelgan so`z yoki birlikmalarni tarjimada ekvivalentlikka erishish maqsadida yaxlit yoki muxtasar ifodalash. Masalan, ingliz tilida *wall-to-wall carpet* (devorma devor gilami)ni olmonchada bir so`z bilan – *Teppichboden* deb beriladi. Yoki *long-distance-call* (uzoq bilan gaplashish)ni olmonlar – *Ferngespräch* deb qo`yaqoladilar.

Ant.: Dilutsiya.

Mufasssalroq ma`lumot olish uchun qaralsin: *olib lashlash, lo`ndalashtirish.*

*Olm.: Konzentration. Ing.: concentration. Rus.: концентрация.*

**KOORDINATIV BILINGVIZM** – 1. Dominantlik bo`lmagan ikki tillilik. Bunda ulardan qaysi birida gapirilsa, o`sha tilda tafakkur qilinadi. 2. So`zlovchining faqat o`z lisoniy xotira xazinasiga ko`ra u egallagan ikki til o`rtasida aloqaning amalga oshishi.

*Olm.: Koordinative Bilingvismus. Ing.: coordinative bilingualism. Rus.: координативный билингвизм.*

**KO`PTILLI LUG`AT** – uch va undan ortiq tillararo tarjima lug`ati.

*Olm.: die vielsprachige Woerterbuch. Ing.: the multilingual dictionary. Rus.: многоязычный словарь.*

**"KO`P BOSQICHLI" TARJIMA** - badiiy asarlarni asl manбайдan - ya`ni ular yaratilgan tildan emas, balki ikkinchi, uchinchi, to`rtinchi tillardan tarjima qilish hodisasi turli davrlarda, turli xalqlarda, turli adabiyotlarda uchraydi. Hatto ayni bir asarning o`zini bir yo`la bir necha tildan tarjima qilish tajribasi ham ko`zga tashlanadi. Bunday "ko`p

bosqichli" tarjimalar ko'pgina adabiyotlar tajribasida hozirgacha davom etib keladi. Sababi badiiy tarjima (lingvistik) hodisagina bo'lmay, estetik, badiiy kategoriya deb qaralganligidadir.

*Olm.: die mehrstufige Uebersetzung. Ing.: the multistage translation. Rus.: многоступенчатый перевод.*

## ~ L ~

**LAKUNA** - tarjima matnida asliyatgadi so'z, ibora yoki sintaktik konstruksiyaga mos variantning bo'lmasligi. Masalan, ingliz tiligagi *Halloween* so'zining o'zbek tilida muqobili yo'q. Shuning uchun uni *hallowin* deb transliteratsiya vositasida o'giriladi. Xuddi shunday holar o'zbeklarning *Navro'*zini ham ana shunday yo'lbilan o'giriladi. Yoki ingliz tilidagi *can you give me a lift to the university?* ni o'zbekchaga so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsa, *siz menga universitetga olib ketishni bera olasizmi?* deyiladi. Ammo bu juda kulguli. Shuning uchun uni *siz meni universitetga birga olib keta olasizmi?* deb tarjima qilinadi. Lakunalarning ko'pchiligini realiyalar deb ham yuritiladi.

*Sin.: ochiq joy, realiya, terminologik bo'sh qolgan joy.*

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *axborot yo'qotish, tarjima bo'lmaslik.*

*Olm.: die Lücke. Ing.: lacuna. Rus.: лакуна.*

**LEKSIK BIRLIK** – 1. Muayyan til qoidalari bo'yicha ifodalanadigan so'zning moddiy (ashyoviy, nogrammatik) tarkibidan iborat birlik asosiy mazmuni. 2. Predmet, voqea-hodisalarning belgisini ifodalay oladigan lisoniy (so'z yoki birikma) birlik.

*Olm.: lexische Einheit. Ing.: lexical unit. Rus.: лексическая единица.*

**LEKSIK BIRIKUV.** Muayyan matnda mavzuiy jihatdan yaxlitlikni ifodalaydigan so'zlar guruhi. Tarjimon asliyatdagi so'zlarning bir-biri bilan semantik birikuv yo'llarini bilishi kerak. Ayni paytda ularning tarjima tilida ham o'zaro koharens holatda (bir birini taqazo qiladigan aloqalar) birikishini ta'minlashi lozim. Bir matnning o'zida turli xil leksik birikuvlar bo'lishi mumkin. Masalan, boror bir

meditsina dorisi haqidagi matn (retsept)da muayyan dorining kishining sog'lig'iga qanchalik ta'sir ko'rsatishi haqidagi gaplar *bir leksik birlik*, dorining iste'mol qilinishi qoidalari *ikkinchi leksik birlik*, uning tarkibi esa, *uchinchi xil leksik birlik*ni tashkil qilishi mumkin. Shuning uchun tarjimon ana shu leksik birliklarning har biriga xos leksik aloqalarni bilishi kerak bo'ladi.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *tarjima birligi, so'zning to'g'ri ma'nosi*. Sin.: *leksik zanjir, semantik zanjir*.

*Olm.: leksikalische Vernetzung; Ing.: lexical combination; Rus.: лексическое сочетание.*

**LEKSIK MORFEMA.** Muayyan leksik birlikning mustaqil anglatadigan ma'nosi. Leksik birlik ot, fe'l, sifat, ravish kabi so'z turkumlariga mansub bo'ladi.

*Olm.: leksikalische Morphem. Ing.: lexical morpheme. Rus.: лексическая морфема.*

**LEKSIK MUQOBILLIK** – ikki tilda ma'nosi bir-biriga mos keladigan lug'aviy birliklar.

*Olm.: leksikalische Uebereinstimmung. Ing.: lexical conformity. Rus.: лексическое соответствие.*

**LEKSIK TRANSFOTMATSIIYA** – 1. Asliyatdagi so'z yoki birikmani tarjima tilidagi o'zgacha ichki tarkibga ega bo'lgan muqobili bilan almashtirish. 2. O'zining asliyatdagi lug'aviy ma'nosiga aynan mos kelmaydigan boshqa muqobil bilan (jumladan, differentsatsiya, konkretlashtirish, kompensatsiya, antonomik tarjima) tarjima qilish. 3. O'zgacha so'zlar bilan qayta kodlashtirish (qayta yaratish). 4. Leksik transformatsiya quyidagi holatlarda amalga oshiriladi: a) asliyat tilidagi uslubiy so'z o'yini tarjima tilidagiga aynan mos kelmay qolganda; b) AT va TT tilidagi so'zlar lug'aviy mos kelmay qolganda; c) AT va TT dagi so'z birikmalari tarkibidagi so'zlarning o'zaro birikish qoidalari turlicha bo'lgan taqdirda; d) har bir tildagi so'zlarning qo'llanish qoidalari turlicha bo'lishi munosabati bilan.

*Olm.: leksikalische Transformation. Ing.: lexical transformation. Rus.: лексическая трансформация.*

**LENPREGIYA** olmon tarjimashunosligida qo'llanilib, asliyatdagi so'z yoki biriknaning bir qismi yoki yaxlit o'zini tarjimada so'zma-so'z berish deb tushuniladi. Masalan, o'zbek tilidagi *tarjima matni* tushunchasi olmon tiliga *Zieltext (maqsad-matni)* deb tarjima qilinadi. Bu yerda asliyatdagi *tarjima – Ziel* (maqsad) deb, muqobil variant bilan, *matn* esa, *Text* deb so'zma-so'z berilgan.

Sin.: kalkalash. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *anglizizm, germanizm, soxta do'stlar, interferensiya.*

*Olm.: die Lehnprägung. Ing.: loan translation Rus.: лeнпpегия.*

**LINGVISTIK.** Lingvistikaga daxldor, linvistikaga oid. Masalan, lingvistik tarjima nazariyasi. Sin.: tilshunoslikka oid.

*Olm.: Linguistisch. Ing.: linguistic Rus.: лингвистический.*

**LINGVISTIKA // TILSHUNOSLIK.** Insonlar tilini o'rganadigan fan. Uning quyidagi bo'lim va sohalari bor: umumiy tilshunoslik, kontrastiv (ko'zga tashlanadigan qarama qarshilik, keskin farq qiluvchi) tilshunoslik, tarixiy tilshunoslik, structural tilshunoslik, funktsional tilshunoslik, generativ (kelib chiqish, qarindoshlik) grammatika, sotsiolingvistika, psixolingvistika.

*Olm.: Linguistik. Ing.: linguistics. Rus.: лингвистика.*

**LINGVISTIK TARJIMA NAZARIYASI** – 1. Tarjimoni tillararo transformatsiya sifatida tadqiq qiladigan nazariy fan. 2. Matnning chog'ishtirma tilshunosligi. 3. Turli tildagi matnlar semantik xususiyatlarini qiyosiy-chog'ishtirish asnosida o'rganish. 4. Tarjimoni tilshunoslik qoidalari nuqtai nazaridan o'rganadigan fan.

*Olm.: Linguistische Uebersetzungstheorie. Ing.: Linguistic translation theory Rus.: лингвистическая теория перевода.*

**LITOTA.** Qarama qarschi bo'laklarning bir-birini inkor qilishi.

*Olm.: Litote. Ing.: litotes. Rus.: литота.*

## ~ M ~

**MAHALLIY LEKSIKA.** Faqat muayyan hududdagilargina tushuna oladigan so'z va so'z birikmalari. Masalan, Olmoniyada *Mülltonne (axlat konteyneri)*ni Shweytsariyada - *Koloniakübel* deyiladi.



Har qanday mahalliy leksikaning fonetik, leksik, semantik va sintaktik tabiati bo'lishi lozim.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *me'yor, dialect.*

*Olm.: Regionalismus. Ing.: regionalism. Rus.: региональная лексика.*

**MAHORAT BILAN AMALGA OSHIRILGAN TARJIMA (PROFESSIONAL TARJIMA).** Tillararo aloqada asliyat bilan tarjima matni o'rtasida muqobil kommunikativ aloqa o'rnatilib, amalga oshirilgan interpretatsiya (talqin) kontekstga mos tushgan hamda yetarli darajada tarjima texnikasini egallagan va shu sohaga ixtisoslashgan tarjimon tomonidan amalga oshirilgan tarjima. 1. Bo'lajak tarjimonlarning tarjima metodlari va texnikalarini egallashlari, turli hujjatlar va terminologiya ustida ishlashlarida mahoratli tarjimonlar amalga oshirgan ishlardan namunalar olib, ular asosida turli tarjima mashqlari tayyorlashlarining ahamiyati katta. 2. Mahorat bilan amalga oshirilgan tarjimalar bo'lajak tarjimonlarning asosiy tilini rivojlantirishda ham alohida o'rni bor. 3. Mahorat bilan amalga oshirilgan tarjimalar tarjima tahrir, tahlili, qolaversa, tanqidi uchun ham zaruriy manba hisoblanadi; Mahorat bilan amalga oshirilgan tarjimalar tarjima tili o'quvchilariga o'zga til va shu tilda so'zlashuvchi xalqlar hayoti haqida ma'lumot beruvchi muhim manba ekanligi bilan ham qadrlidir.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *didaktik tarjima, chet tilga qingan tarjima, ona tiliga qilingan tarjima, interpretatsiya.*

*Olm.: Professionelle Übersetzung. Ing.: professional translation. Rus.: профессиональный перевод.*

**MAKROKONTEKST.** Tahlil qilinayotgan matnning hammasi yoki uning muhim qismi. Masalan, biror romanning bir bobi makrokontekst bo'lishi mumkin.

*Ant.: Mikrokontext. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: parallelmatn, situativ context.*

*Olm.: Makrokontext. Ing.: macrocontext. Rus.: макроконтекст.*

**MA'LUMOTNOMA** – fan-texnika va ishlab chiqarishning turli sohalari mutaxassislari uchun mo'ljallangan ma'lumotlarni

mujassamlashtirgan qo'llanma. Tarjimon uchun bunday ma'lumotnomalar maxsus matnlarni o'g'irishda qo'l keladi.

*Olm.: Referenz. Ing.: reference. Rus.: справочник.*

**MANBA** – 1. Axborot olinadigan kishi yoki matn. 2. Ma'lumotni uzatuvchi kommunikant.

*Olm.: Quelle. Ing.: source. Rus.: источник.*

**MA'NO** - o'zida dunyo haqidagi muayyan bilimlarni mujassamlashtirgan, berilgan kontextdagi so'zlarning mohiyatini fikriy konkret ifodalaydigan mazmun.

1. Tarjimon asliyat matnini tahlil qilish jarayonida matn ichidagi va matn mazmun osti jihatlarni qidirib topadi.

2. Leksik va leksikografik nuqtai nazardan so'zlar a) konkret ma'noga; b) abstrakt ma'noga; 3) ko'chma ma'noga ega bo'lishlari mumkin. Masalan, olmon tilida Mutter so'zi – farzandlarining onasi, gayka, uksus ma'nolarida ishlatilishi mumkin.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *faol ma'no, mazmun, interpretatsiya, tilbelgisi, tarjima jarayoni.*

*Olm.: die Bedeutung. Ing.: meaning. Rus.: значение.*

**MA'NONING BUZULISHI.** Asliyatdagi so'z yoki tuchunchani noto'g'ri tushunish, uni boshqa qarama-qarshi ma'no anglatuvchi so'z bilan aralashtirib yuborish natijasida kelib chiqadigan tarjimaviy xato. Ma'noning buzulishi tarjimadagi juz'iy kamchiliklar (imloviy xatolar va so'z tanlashdagi tajribasizlik)dan og'irroq xato hisoblanadi.

*Olm.: Sinnverkehrung. Ing.: misinterpretation. Rus.: искажения смысла.*

**MA'NOSI BUZILGAN TARJIMA.** Asliyatdagi so'z yoki gapni noto'g'ri talqin qilish, yoki tarjima metodlarini qo'llashdagi o'zilik natijasida kelib chiqadigan mazmuniy g'alizlik. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *noto'g'ri ma'no, mazmunning yo'qolishi.*

*Olm.: sinnentstellende Übersetzung. Ing.: nonsense translation. Rus.: искажения смысла перевода.*

**MASLAHATCHI TARJIMON** – chet tilini talab darajasida bilmaydigan soha mutaxassislariga asliyatdagi manba bilan ishlash

yo'llarini ko'rsatish, u haqda tegishli qarorga kelish, qayta ishlash va qo'shimcha ma'lumot berishda yordam bera oladigan til mutaxassisi.

*Olm.: der Übersetzer Konsultant. Ing.: the advisory translator*

*Rus.: переводчик-консультант.*

**MATAL** – semantik tugallanmaganligi bilan maqoldan farqlanadigan obrazli idiomatik birikma.

*Olm.: Redensart. Ing.: Idiom. Rus.: поговорка.*

**MAQOL** – turmush tajribalari zaminida tug'ilgan, xalq donoligini ifodalovchi, qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatlar, chuqur ma'noli iboralardan iborat folklor janri. Masalan: o'zb. *Qo'l yugurigi oshga, til yugurigi boshga.* Maqollar tarjimasida tarjimashunoslikning qiziqarli muammolaridan hisoblanadi. Muataxassislarining e'tirof etishlaricha, maqollarni o'rni bilan so'zma-so'z o'girish tarjima tilini boyitishga xizmat qiladi. Jumladan, G'Salomov kuzatishlaricha, rus tilidagi *большому кораблю большое плавание* maqolini *katta kemaga katta safarlar yarashadi* tarzida o'qirilishi bilan o'zbek tili yana bir maqolga boyigan. Maqollar tarjimasida ularning ob'yektiga e'tibor qaratish, tarjimada imkon darajasida saqlashga intilish ijobiy natijaga olib keladi.

*Olm.: das Sprichwort. Ing.: proverb. Rus.: половица.*

**MATN** – mavzuiy, uslubiy yaxlitlikka ega bolib mantiqiy yakunlangan nutq birligi. 2. Nutq faoliyati natijasi. 3. Mazmun va shakliy yaxlitlikka ega bolgan, tarkibi bir-biriga mantiqiy bog'langan hamda muayyan tugallangan mazmundagi sintaktik birliklardan iborat og'zaki yoki yozma nutq faoliyati natijasi.

*Olm.: der Text. Ing.: text. Rus.: текст.*

**MATN MIKROSTILISTIKASI** - matnning quyi bosqichini mujassamlashtiradigan, fonemadan gapgacha bo'lgan lisoniy xususiyatlarni o'z ichiga olgan matn stilistikasi.

*Olm.: Mikrostilistik des Textes. Ing.: microstylistics of text. Rus.: микростилистика текста.*

**MATN ONTOLOGIYASI** - tarjima matniga asliyatni to'laqonli ifodalash maqsadida unda original asar yaratilgan davr ijtimoiy, falsafiy, psixologik va boshqa o'ziga xosliklarini ham kiritish (Tarjima

o'quvchisiga asliyat matnini yanada tushunarli qilish uchun turli xil izoh, sharh, lug'atlar ko'rinishida bo'lishi mumkin).

*Olm.: Textontologie. Ing.: text ontology. Rus.: онтология текста.*

**MATN TAHLILI** – asliyatdagi matnni tarjima qilish maqsadida uslubiy yaxlit tarzda qismlarga bo'lgan holda o'rganish.

*Olm.: Textanalyse. Ing.: text analysis. Rus.: анализ текста.*

**MAXSUS MATN.** Muayyan soha mutaxassislari tomonidan o'z ixtisosliklari maqsad va vazifalaridan kelib yaratiladigan matn. 1. Maxsus matnlarda shu sohaga oid umumiy va xususiy axborotlar mujassamlashgan bo'ladi. Ularning estetik funktyasi ikknichi o'rinda turadi. 2. Adabiy matnlardan xronika, memuar va biografik matnlar ham maxsus matnlarga kiradi. 3. Maxsus matnlar muayyan o'quvchiga mo'ljallangan bo'lganligi uchun ular tahririyat xulosalarini talab qiladi.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *soha tili, matn tipologiyasi.*

*Olm.: Gebrauchttext. Ing.: specific text Rus.: специальный текст.*

**MEXANIK TARJIMA** – so'zma-so'z tarjima.

*Olm.: mechanische Uebersetzung. Ing.: mechanical translation. Rus.: механический перевод.*

**ME'YOR.** 1. Muayyan tildagi umumtil yoki soha tiliga oid lisoniy qoidalar majmuasi. 2. Lisoniy me'yorlar tilde, nutqda, turli situativ jarayonlarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida – *Soat necha bo'ldi?* – deb so'rasangiz, - agar 8.45 bo'lsa, - *soat 15 ta kam sakkiz*, yoki *sakkizdan qirq besh daqiqa o'tdi*, - deb javob berishi mimkin. Tarjimada ham ana shu me'yorlarga asliyatdagi lisoniy-uslubiy kontekstga qarab rioya qilinadi. 3. Ilmiy va o'quv qo'llanmalari, lug'atlardagi lisoniy-uslubiy qoidalar majmui. 4. jihozlar yoki uskunalarning texnik ko'rsatmalari yoki dorilarni qo'llashning ko'rsatmalari. Sin.: tilni to'g'ri qo'llash, ko'rsatmalar.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *tahririy ko'rsatmalar, regionallashtirish, tilni his qilish.*

*Olm.: Norm. Ing.: norm. Rus.: норма.*

**MASHINAVIY TARJIMA** – 1. Elektron qisoblash mashinalari, kompyuterlar yordamida amalga oshirilgan tarjima. Bunday tarjima elektron mashinalar xotirasiga asliyat va tarjima tilidagi soʻzlarni kiritish orqali maxsus dasturlar vositasida amalga oshiriladi. 2. Bir tabiiy tildagi matnni ikkinchi bir tabiiy tilga avtomatlashtirilgan usulda oʻgirish. 3. Kompyuter vositasida amalga oshirilgan tarjima. 4. Asliyat tilidagi matnni tarjima tiliga mustaqil shaklda oʻtkazib beruvchi tajimaviy dastur, shuningdek, ana shu faoliyat ni amalga oshiruvchi dasturlar tayyorlash bilan shugʻullanish.

Mashinaviy tarjimani amalga oshirish uchun maxsus dasturlar mutaxassislar tomonidan tayyorlaniladi va maxsus mashinalar yoki kompyuterlarga oʻrnatiladi.

Qisq.shakli: MT. Mufassalroq maʼlumot olish uchun qaralsin: *tarjimaga yordam berish*.

Olm.: *maschinelle Übersetzung*. Ing.: *machine translation*. Rus.: *машинный перевод*.

**METAFORA**. Qisqartirilgan oʻxshatish. Bir obʼektning abstrakt xususiyati ikkinchisida konkret shaklda ifodalanadi. Metaforaning uch xususiyati bor: originalligi, matnlarda keng tarqalganligi, koharensiligi. Uning originalligini ifodalaydigan leksik metaforalarni lisoniy klishealar qatoriga kiritiladi. Matnlarda koʻp uchraydigan metafora va metaforik qatorlar hamda iboralarni bir-biridan farqlash kerak. Masalan: 1. Leksik metafora - *toshyurak*. 2. Okkozitsional metafora - *dastlabki qora sut*. 3. Mmetaforik qator - *demokratik mamlakatda hamma bir kemada boʻladi, yoʻlovchilar hukumatni saylaydilar, ana shu davlatning asosiy kursini belgilaydi*. Mufassalroq maʼlumot olish uchun qaralsin: *animatik ifodalash, soʻz*

*birikmasi, tilni his qilish*.

Olm.: *Metapher*. Ing.: *metaphor*. Rus.: *метафора*.

**METODIK OJIZLIK**. Tarjima tamoyillari, tarjima qoidalari, yoki tarjima jarayonida kelib chiqadigan muammolarini eʼribordan qochirish yoki asliyat tilidan tarjima tiliga oʻgirishda paydo boʻladigan odatdagi xato. 1. Koʻpincha soʻzma-soʻz tarjimani toʻgʻri qoʻllamaslik, perifrazani oʻrnida ishlatmaslik, asliyat va tarjima tilidagi soʻzlarning

bir-biri bilan semantic birikish qoidalarini yaxshi anglamaslik natijasida tarjimaviy xatolarga yo'l qo'yiladi. 2. Lug'atlarda so'zlar tarjimasi va izohlarini to'g'ri bermaslik, tarjima muammolariga oid darslik vaqo'llanmalardagi xatolar, tarjima matnini tahrir qilishdagi e'tiborsizlik, shuningdek, tarjimonning professional darajaga chiqa olmaganligi kabilar ham tarjimada metodik o'zlikka sabab bo'lishi mumkin.

*Olm.: Methodenschwäche. Ing.: methodical weakness. Rus.: методическая слабость.*

**MIKROKONTEXT** - faqat tahlil qilinayotgan tarjima birligiga daxldor bo'lgan kontekst. Bunda matn atomatik tahlil qilinadi. Atomatik tahlilda matnning ajratib olingan ayrim qismlari (so's, so'z birikmalari, sintagmalar, gaplar)gina tahlil etiladi.

Ant.: Makrokontext; Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *parallel matn, situativ context*;

*Olm.: Mikrokontext. Ing.: mikrokontext. Rus.: микроконтекст.*

**MODULLASHTIRISH.** Tarjima jarayonida asliyatda ifodalangan matnga muqobillikni ta'minlash maqsadida tarjimon nuqtai nazaridan turib o'zgartirishlar kiritish. Bunda asliyatdagi xususiy holda kelgan birlik umumlashtirilishi, abstrakt narsa konkretlashtirilishi mumkin, shuningdek, passiv konstruksiyalar aktivlashtirilishi ham uchraydi. Bu jihatni terminologiyaga nisbatan qo'llanmaydi.

Modullashtirish faqat jarayon emas, balki, natija hamdir.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *shaklni o'zgartirish, konstruksiyani o'zgartirish.*

*Olm.: Modulation. Ing.: modulation. Rus.: модулирование.*

**MOS KELISH.** Asliyat tilidagi so'z yoki tushunchani tarjima tiliga o'girishda uning ma'no va shakl jihatdan adekvat bo'lishi uchun tarjima tilidan mos variant tanlanadi. Tarjima tilidagi adekvat variantni mos kelish deyiladi. Masalan, olmon tilidagi Literatur – o'zbek tiliga adabiyot, adabiy nashr, asar variantlarida tarjima qilinishi mumkin. Ammo muayyan context talablaridan kelib chiqib ana shu variantlardan birini moslanadi.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *ekivalentlik.*

*Olm.: Entsprechung. Ing.: correspondence. Rus.: соответствие.*

**MOS KELMASLIK** – asliyat va tarjima matnidagi axborotning bir-biriga muqobil bo'lmisligi.

*Olm.: Unentsprechung. Ing.: uncorrespondence. Rus.: несоответствие.*

**MOTIVATSIYA** – u yoki bu faoliyatni muayyan ko'rinishda amalga oshirish sababi.

*Olm.: die Motivation. Ing.: motivation. Rus.: мотивация.*

**MUALLIF TARJIMASI** - original asar muallifining o'zi tomonidan amalga oshirilgan tarjima.

*Olm.: die Autouebersetzung. Ing.: authorial translation. Rus.: авторский перевод.*

**MUNOZARALI TARJIMA** - tarjimonning boshqa bir tarjimon qarashlariga ko'r-korona qarshi chiqish maqsadida amalga oshirilgan tarjima. Buni rus tilida polemicheskiy perevod deb ham yuritiladi. Bunday tarjima ko'pincha turli munoazaralarga sabab bo'lsa-da, tarjima amaliyotini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatolmaydi.

*Olm.: die Diskussionsuebersetzung. Ing.: polemical translation. Rus.: дискуссионный перевод.*

**MUQOBIL** – rus.: встречный . o'zb. *dush kelgan, uchragan*. Ma'nolari faqat muayyan kontekst ichidagina bir birining o'rnini qoplay oladigan birikmalarni "*muqobil birikma*" deyiladi. Ularning ma'nolari to'nari kelsa pam, shakli, ayniqsa, ob'ektlari o'zaro mos kelmasligi mumkin.

*Olm.: entgegenkommende. Ing.: counter. Rus.: встречный*

~ N ~

**NASRIY TARJIMA** – 1. Badiiy tarjima janrlaridan biri. 2. Badiiy matnni nasriy yo'l bilan tarjima qilish.

*Olm.: die Prosauebersetzung. Ing.: Prose translation. Rus.: прозаический перевод.*

**NEOLOGIZM.** (lot. *neos* – yangi, *logos* – so'z). Tilda yangi paydo bo'lgan yoki boshqa tildan kirib kelgan so'z yoki termin. 1. Shakliy va ma'noviy neologizmlar bir-biridan farqlanadi. 2. Shakliy (formal) neologizmlar muayyan tiulda yangi paydo bo'lgan yoki chet tilidan kirib kelgan neologizmlardir. Ularga , masalan, *mobil aloqa*, *skanner* kabilarni kiritish mumkin. 3. Ma'noviy neologizmlar tilda avval bo'lgan so'zlarni boshqa ma'nolarda ham ishlatilishi natijasida paydo bo'ladi: ingliz tilidagi *maus* (*sichqon*) – kompyuter kirib kelgandan keyin uni ishlatishdagi muhim qism sifatida qo'llanila boshlandi. O'zbek tilidagi *sichqoncha* ham neologizmdir.

*Olm.: Neologismus. Ing: neologism. Rus.: неологизм.*

**NIVELIRLI TARJIMA** - xuddi nivelir asbobida narsaning past-balandligini o'lchagandek amalga oshiriladigan tarjima. Bunday tarjima tamoyiliga XIX asrdan keyin Pandel XVII va XVIII asrdagi lisoniy-uslubiy jihatdan madaniy fuqoralashtirish (tarjima metodlaridan biri)ga qaytishni taklif qildi. Gryunnbek o'zining "Olmon-fransuz stilistikasi" (1976/1983)da ko'rsatganidek, fransuz tarjimonlari nevellirli (xuddi nivelir asbobida narsaning past-balandligini o'lchagandek) tarjimaga harakat qila boshlaganlar. (M.Shrayber, 2006).

*Olm.: Nevilliruebersetzung. Ing: levelling translation. Rus.: нивелирный перевод*

**NISBIY ANIQLOVCHI.** Otni aniqlab, unga muayyan sifat berib kelsa ham bu aniqlovchilik alomatining nisbiylik kasb etish holati. Olmon tilida bunday aniqlovchilar juda kam. Masalan, *der biblische Übersetzer* (Injil tarjimoni) deyilsada, uni aslida *der Bibelübersetzer* shaklida yoziladi. Ingliz tilida esa bu termin ko'p qo'llaniladi: *a Bible translator*.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *determinant*.

*Olm.: Relationsadjektiv. Ing.: relative determiner Rus.: относительное определение.*

**NOMINALLASHTIRISH.** Asliyatdagi fe'lni tarjimada ot yoki otlashgan sintagma bilan tarjima qilish. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *shaklni o'zgartirish*.



*Olm.: die Nominalisierung. Ing.: nominalisation. Rus.: номинализация.*

**NOTIQ NUTQI TARJIMASI** – muayyan auditoriya tinglovchilariga mo'ljallangan bo'lib, turli anjumanlar paytida chet tilida nutq so'zlangan notiqning nutqini qayta yaratishdan iborat. Bunday tarjimada notiq nutqini bo'lmasdan, uning nutq intonatsiyasi, ketma-ketligini inobatga olinib, tarjima jarayonida asliyatdagi jummalarni soddalashtirish, lo'ndalashtirish va ixcham holatda auditoriyaga yetkazish lozim bo'ladi. Imkon qadar tarjima paytida qo'shma gaplar tuzishdan qochish kerak. Bunday nutq tarjimasida parallelizm va takrorlar faol bo'lishi mumkin. Shuningdek, notiq nutqining individual xususiyatlari, obrazli so'z va ramzlardan foydalanishiga ham e'tibor qaratish tarjimaning ta'sirchanligini oshiradi.

*Olm.: die Uebersetzung des Oratorsrede. Ing.: translation of orator's speech. Rus.: перевод ораторской речи.*

**NOVERBALLASHTIRISH.** Asliyatdagi verbal (tilga oid) jihatlarni turli uslubiy maqsadlarni amalga oshirish uchun tarjimada noverbal (tildan tashqari) vositalar bilan berish. Matn uslubi matn ma'nosining muhim qismidir.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *interpretatsiya.*

*Olm.: Entsprachlichung. Ing.: deverbalization. Rus.: невербализация.*

**NUTQ IFODASI.** Bir karra yozilgan yoki so'zlangan nutqni uchinchi shaxs tomonidan ifodalab berish. 1. Bunday nurq aynan holida (iqtibos shaklida) yozma ifodalanishi mumkin: "Men holatni yaxshilash uchun ommaga qarshi keskin choralarni ko'raman", - dedi ministr. 2. Nutq o'zlashma shaklda ham ifodalanishi mumkin: Ministr o'z nutqida mavjud holatni yaxshilash uchun ommaga nisbatan keskin choralar ko'rishini aytdi. 3. Har qanday tarjima bir karra aytilgan nutqni qayta ifodalashdir. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *tarjima*

*Olm.: Redewiedergabe. Ing.: speech expression Rus.: выражение речи.*

**NUTQ IZCHILLIGI** – matn va ogʻzaki nutqdagi bir yoki bir necha lisoniy birliklarning bir-birini mantiqiy talab qilishi hamda nutq davomida ketma-ket qoʻllanilishi.

*Olm.: die Reihenfolge der Rede. Ing.: Sequence of speech. Rus.: последовательность речи.*

## ~ O ~

**OBRAZLI BIRIKMA** – koʻchma, ramzli maʼnoda qoʻllanilgan birikma.

Sin.: troplar.

*Olm.: der bildliche Ausdruck. Ing.: Trope. Rus.: образное выражение.*

**ODATDAGI TARJIMA** – nomashinaviy tarjima.

*Olm.: die gewoehnliche Uebersetzung. Ing.: usual traslation. Rus.: обычный перевод.*

**OHANG (RITM) SILJISHI** - asliyat va tarjima adabiyotidagi sheʼriy yoki nasriy ohang tuzulishining turlicha boʻlishidan kelib chiqadigan siljish. Tarjimashunos J.Xolms quyidagi ritmik siljishlar mavjudligini taʼkidlaydi: 1. Faqat shaklda sodir boʻladigan imitatsiyaga asoslangan siljish (mimetic form). 2. Analogik (analogical) siljish. Asliyat va tarjima tilidagi poetik anʼanalar asosida oʻzgarishlarning amalga oshirilishi. 3. Yangi shaklni yaratadigan siljish (form-derivate form). Asliyat mazmunini transligvistik oʻgirish natijasida yaratiladi. 4.

Yangi mazmun yaratadigan siljish (content-derivate form). 5. Devitsion siljish (extraneous form). Favqulodda yuzaga keladigan siljish.

*Olm.: die rhythmische Verschiebung. Ing.: Rhythmic shift. Rus.: ритмический сдвиг.*

**ONA TILI** – insonning bolaligidan boshlab uni oʻrab turgan muhitda katta yoshdagilar tomonidan oʻrgatilgan, egallangan til.

*Olm.: die Muttersprache. Ing.: Native language. Rus.: родной язык.*

**ORIGINAL** – 1. Muayyan muallif tomonidan bit tilda yaratilgan matn. 2. Asliyat tilidagi matn. 3. Bevosita tarjima amalga oshirilgan asliy matn.

*Olm.: der Original. Ing.: the original. Rus.: оригинал.*

**ORIGINAL VA TARJIMANI TALQIN QILISHDAGI FARQLAR** - asliyat va tarjima talqini bir vaqtning o'zida sodir bo'lmaydi. Ularni o'qish, tushunish va talqin qilish sifat jihatdan turlicha bo'lgan kommunikativ jarayonlarda amalga oshadi.

*Olm.: Interpretativsunterschied zwischen dem Original und der Uebersetzung. Ing.: Interpretative distinction between the original and translation. Rus.: интерпретационное различие между оригиналом и перевода.*

## ~ P ~

**PARALLEL MATN.** Tarjima tilidagi asliyatdagi matnga o'xshash yoki uning mavzusiga yaqin bo'lgan matn. Tarjimon ana shunday parallel matnlardagi so'z, termin yoki boshqa lisoniy vositalardan tarjima jarayonida foydalanishi mumkin bo'ladi. Parallel matnlar faqat shunga yaqin mavzudagi matnlar tarjimasidagina qo'l kelmay, balki asliyat matnini yanada yaxshiroq tushunishda ham yordam beradi.

Terminologlar bunday matnlarni juda qadrlaydilar.

*Ant. Qarama-qarshi mavzudagi matn.*

*Olm.: Paralleltext. Ing.: parallel text. Rus.: параллельный текст.*

**PERIFRAZA** – 1. Keng ma'noda ishlatganda shaklni o'zgartirib, mazmunning bir qismini saqlab qolish tushuniladi. Perifrazni faqat uslubiy vosita sifatidagina qaramasdan, uni tarjima jarayonida asliyatni interpretatsiya qilishdagi sinonimiya qodisasi deb bilish qam maqsadga muvofiqdir. 2. Aliyatdagi bir so'zning tarjimada so'z birikmasi voki boshga obrazli tasvir vositalari bilan kengaytirib berish bilan uning ma'nosini to'g'ri aks ettirish yo'li. Masalan, o'zbek tilidagi *neft* so'zini

*qora oltin* yoki *asosiy yonilg' vositasi* kabi kengatirilgan birikmalar bilan ifodalanishi mumkin.

Bunday kengaytirishlar tarjima jarayonida har doim ham ishlatilmay, balki ulardan muayyan uslubiy maqsadlarda foydalaniladi. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *dulitisiya, tarjima matnini kengaytirish, qo'shimcha qilish*.

*Olm.: Periphrase. Ing.: paraphrase. Rus.: перифраза.*

**PERTSEPTSIYA** (lot. *Perceptia* – sezgilar bilan qabul qilaman) – borliqni hissiy organlar orqali bevosita tuyish, his qilish, qabul qilish.

*Olm.: Perzeption. Ing.: perception. Rus.: перцепция.*

**POLIGLOT** – ko'p (uch, to'rt, besh va undan ko'p) tillarni biluvchi kishi.

*Olm.: Polyglott. Ing.: polyglot. Rus.: полиглот.*

**POLISEMANTIZM** (lot. *poly* – ko'p, *sema* – belgi) 1. Til birliklarining ko'p ma'nolarni anglatishi. 2. Ko'pma'nolilik.

*Olm.: Polysemantismus. Ing.: polysemantism. Rus.: полисемантизм.*

**PROFESSIONAL TARJIMA** – bir tildagi matnni maxsus tayyorgarlik va bilimga ega bo'gan holda to'laqonli tarjima qilish natijasi.

*Olm.: die professionelle Uebersetzung. Ing.: professional translation. Rus.: профессиональный перевод.*

**PUBLITSISTIK TARJIMA** – 1. Publitsistik asarlar, ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tanqidiy va notiqlik adabiyoti tarjimasini. 2. Publitsistik muayyan matn tuzishda fikmi ixcham ifodalash, ortiqcha so'zamollikdan qochishga intilgani kabi publitsistika tarjimonidan ana shu xususiyatlar talab qilinadi. Ayniqsa, asliyatdagi terminlar anglatadigan ma'nolarga muqobil variantlar topib qo'llash muhimdir. Bundan tashqari asliyat matni ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida ishlatilgan emotsional-ekspressiv so'z va so'z birikmalarini qayta yaratishga ham katta e'tibor berish kerak bo'ladi. Zero tarjima asliyat kabi jaranglashi lozim. Publitsistik tarjimada tuzilgan gaplarning sintaktik yaxlitligi va ona tili adabiy me'yorlariga muvofiq kelishi

muhimdir. Ortiqcha uzun jumalarni tarjimada soddalashtirish tavsiya etiladi.

*Olm.: publizistische Uebersetzung. Ing.: publicistic translation. Rus.: публицистический перевод.*

## ~ Q ~

**QABUL QILUVCHI** – bir tildagi matn yoki og'zaki axborotni ikkinchi tilda qabul qiluvchi, adressat.

*Olm.: Adressat. Ing.: addressee. Rus.: адресат.*

**QANOTLI SO'Z** – 1. Tilga muayyan adabiy yoki tarixiy manbadan kirib kelgan o'tkir so'z yoki birikma. Bundayin o'tkir birikmalar ta'sirchanligi yuqori bo'lib, ular odatda jamoat arboblari nutqlari, yuksak san'at darajasidagi badiiy asarlardan olingan iqtiboslardan olinadi. *Qanotli so'zlar* so'zlovchining og'zidan tinglovchining qulog'iga go'yo qanot qoqib boradi.

*Olm.: gefluegeltes Wort. Ing.: Catchword. Rus.: крылатое слово.*

**QARDOSH TIL** – kelib chiqishi bir bo'lgan, umumiy o'xshashliklarga ega bo'lgan til.

*Olm.: die nahe Sprache. Ing.: related language. Rus.: родственный язык.*

**QISMAN MUQOBIL** – 1. Ma'no va uslubiy jihatdan to'la mos kelmaydigan muqobil. 2. Mazmuni qisman mos keldigan variant.

*Olm.: der teilweise Uebereinstimmende. Ing.: Partially coincidence Rus.: частично совпадающий.*

**QISQARTMALAR TARJIMASI** – asliyat matnida qo'llanilgan qisqartmalar xususiyati, u anglatgan ma'nosini to'g'ri tushunishdan boshlanadi. Barcha qisqartmalarni lug'atlarda to'la aks ettirishning imkoni yo'q. Ular tarjimasida quyidagilarni bilish lozim: 1) qisqartma anglatadigan ma'noni mavjud matn kontekstida va umumiy ma'nosini tushunish; 2) uning tarkibidagi so'zlarni alohida olb tahlil qilish va qisqartma tuzulishiga ahamiyat berish kerak. Qisqartmalar tarjimasida quyidagi usullar qo'llaniladi: a) qisqartmani tarjima tilidagi shunday

ma'no anglatuvchi qisqartma bilan o'g'irish; b) transliteratsiya; c) chet tilidagi qisqartmani shundayligicha transkripsiya holatida o'g'irish; d) tarjima-transkripsiya usuli e) tarjima tilida tushuntirib berish (bu usul asosan ta'lim maqsadlarida qo'l keladi).

Qisqartmalar tarjimasida qisqartmaning baynalmilalligi, boshqa xalqlar tomonidan ham tushunarligiga e'tibor berish kerak. Jumladan, UNESCO, NATO kabi qisqartmalarni aynan transkripsiya qilish tavsiya etiladi.

*Olm.: die Uebersetzung der Abkuerzungen. Ing.: Translation of abbreviations. Rus.: перевод аббревиатур.*

**QISQARTIRILGAN TARJIMA** – 1. Asliyat matnining muayyan qismi tarjimasida. 2. Asliyatni to'liq aks ettirmagan tarjima.

*Olm.: die verringerte Uebersetzung. Ing.: reduced translation. Rus.: сокращенный перевод.*

**QIYOSLASH** - tarjima muqobilligini aniqlash mezon. Tarjimatni asliyat matni bilan qiyoslash. Tarjima ustida ishlash jarayonida u bir necha marta asliyat bilan chuqur solishtiriladi. Avval turli vaqtlarda bo'lakma-bo'lak, keyin, tarjima tugagach, ikkala matn to'liqligicha qiyoslanadi. Bundan asosiy maqsad - ulardagi axborotning o'zaro muqobilligini aniqlash, biror narsaning qo'shilgan yoki qo'shilmaganligi, saqlangan yoki saqlanmaganligi, o'zgargan yoki o'zgarmaganligiga ishonch qosil qilishdan iborat. qiyoslash - bu tarjimonning o'zini o'zi tekshirish yo'sini. Ayrim qollarda bu ishni boshqa ikkala tilni yaxshi biladigan bilingv (zullisonayn) shaxs qamda tarjima tamoyillari bilan tanish kishi qam bajarishi mumkin.

*Olm.: das Vergleich. Ing.: comparison. Rus.: сравнение.*

**QO'SHIMCHA VARIANT.** Asliyatdagi so'z yoki birikmani o'g'irishda tarjimon ixtiyorida bo'lgan va tanlash imkoniyatini beradigan variantlardan biri. Masalan, o'zbek tilidagi *u etib keldanda* jumlasini olmon tiliga o'giriladigan bo'lsa – *als er ankahm* yoki *bei seiner Ankuunft* lardan birini tanlash imkoniyati bo'ladi.

*Olm.: Option. Ing.: option. Rus.: дополнительный вариант.*

**REALIYA** – (lot. *realis* – haqiqiy, mavjud, ashyoviy degan ma'nolarni ifodalaydi). RealIya asliyat matnidagi muayyan xalq borlig'i, madaniyatiga oid bo'lgan birliklar. RealIyalar – 1. O'zga tilda gaplashuvchi xalqlar turmushida bo'lmagan predmet, tushuncha va voqea-hodisalar. 2. Muayyan xalqqagina xos bo'lgan tarixi va madaniyati, urf-odatIari, mamlakatning davlat tuzulishini ifodalovchi so'z va so'z birikmalari.

*Olm.: der Realien. Ing.: realia Rus.: реалия*

**REFERAT** – muayyan matnning muxtasar mazmunini aks ettirgan iukkilamchi matn. Unig yordamida katta hajmdagi matn haqiga tezrog ma'lumot olish mumkin.

*Olm.: das Referat. Ing.: abstract. Rus.: реферат.*

**REFERATIV TARJIMA** – asliyatdagi matnning oldindan belgilab, alratib qo'yilgan qismi tarjimasI.

*Olm.: referative Uebersetzung. Ing.: abstract translation. Rus.: реферативный перевод.*

**REGISTR.** Kommunikativ muloqotda ishtirok etuvchilarning bilimlilik darajasi, muayyan ijtimoiy-madaniy holatda tutgan o'rni, suhbat ishtirokchilarining o'zaro uzoq-yaqinligi hamda olib borilayotdan suhbat mavzusiga qarab qo'llaniladigan leksika. Bu tushuncha ko'proq so'zning uslubiy tanlanishiga yaqin keldi. Masalan, olmon tilida: 1. *Haupt* – bosh (yoqori registr). 2. *Kopf* – bosh (odatgagi standart nutqda). 3. *Schädel* – bosh (bosh chanog'i). 4. *Birne* – bosh (nok) vulgar ma'noda. O'zbek tilida bunday holatlarda oshqovoq ishlatiladi. *Til registri, til me'yori* tishunchalari olmon tilida sinonim sifatida qo'llaniladi.

Mufassalrog ma'lumot olish uchun qaralsin: *Soha tili, idiolect, soziolect, uslubiy bo'yoq.*

*Olm.: Register. Ing.: register. Rus.: резумп.*

**REZYUMELASHTIRUVCHI ALOQA** - asliyat matnini tarjimada eng qisqa ko'rinishida berishga qaratilgan faoliyat. Bunda muayyanlashtirish, adapdatsiya qilish asarni tarjima tilida faqatgina

bibliografik nomini berishgacha bo'lgan jihatlarni o'z ichiga oladi. Bunday jarayon "bilvosita nutq" (uchinchi shaxs tomonidan aytib beriladigan) orqali amalga oshiriladi.

*Olm.: die zusammenfassende Uebersetzung. Ing.: summary translation Rus.: резюмемированный перевод.*

**REPRODUKTIV KOMMUNIKATSIYA** - asliyat matnini tarjima tiliga "bevosita nutq" (asardagi personajlar tilining o'zi bilan) orqali ifodalash. Bu jarayon an'anaviy tranlyatsiya vorsitasida amalga oshiriladi. Mazkur tarjimaviy usulda kalkalashtirish, izohlash va sharhlash kabilardan foydalanilsa-da, asliyatning uslubiy o'ziga xosliklari saqlab qolinadi.

*Olm.: die fertile Kommunikation. Ing.: Reproductive communication. Rus.: репродуктивная коммуникация.*

## ~ S ~

**SALBIY SILJISH** - asliyat mohiyatini mavhumlashtiradigan, uni tushunishni qiyinlashtirishga olib keladigan o'zgarishlar. Bunday siljish odatda tarjimonning asliyat va uning ortida yotgan voqe'likdan yaxshi xabardor bo'lmasligi natijasida kelib chiqadi.

*Olm.: die negative Verschiebung. Ing.: Negative shift. Rus.: негативный сдвиг.*

**SATRMA-SATR TARJIMA** (taglama) – 1. Badiiy tarjima nazarayasida asliyatning umumiy mazmuni bilan tanishtirish uchun leksik-grammatik me'yorlarni saqlagan holda she'riy matnni so'zma-so'z tarjima qilish tushunchasi. Satrma-satr tarjimada asliyatni tushuntirish, izohlashlarga ham ko'p o'rin ajratiladi. 2. So'zma-so'z tarjima qilish natijasida amalgam oshirilgan matn.

*Olm.: die Unterlaengeuebersetzung. Ing.: Interlinear translation. Rus.: подстрочный перевод.*

**SELEKTIV ALOQA** - asliyat matnidagi eng tipik jihatlarga tarjima matniga o'tkaziladi. Bunday tarjimada batafsillashtirish alomatlari ko'rinmaydi.



*Olm.: selektiv Verbindung. Ing.: selective communication. Rus.: селективная связь.*

**SEMANTIKA** (fran. *semantique*, yunon – *semantikos* – *ifodalovchi*). Til yoki boshqa aloqa vositalarining ma'no, mazmun tomoni.

*Olm.: Semantik. Ing.: semantics. Rus.: семантика.*

**SEMANTIK KOMPENSTSIYA** – asliyatdagi so'z yoki birikmani tarjima tilida muqobilsiz leksika bilan almashtir.

*Olm.: semantische Kompetenz. Ing.: semantic competence Rus.: семантическая компетенция.*

**SINONIM** (yunon. *Synonymos* – bir nomli) – 1. Bir-biriga ma'nodosh so'z. 2. Bir biriga to'la yoki qisman ma'nodosh bo'lgan nutq birliklari.

*Olm.: Synonym. Ing.: synonym. Rus.: синоним.*

**SINXRON TARJIMA** – 1. Professional og'zaki tarjimaning bir shakli. 2. Asliyatdagi og'zaki yoki yozma nutqni tarjimon tomonidan bir vaqtning o'zida og'zaki tarjima qilish. 3. Asliyatdagi matnni tinglab tushunish asosida o'giriladigan og'zaki tarjima turi. 4. Sinxron tarjimaning: a) bir vaqtning o'zida so'zlanayotgan nutqning og'zaki tarjimasini; b) Yozilgan nutqning og'zaki tarjimasini; c) avval tayyorlab qo'yilgan nutqning og'zaki tarjimasini kabi xillari bor. 5. Katta rasmiy anjumanlarda sinxron tarjima tarjimonlar uchun maxsus kabinalar va texnika vositalari yordamida amalga oshiriladi. Sinxron tarjimaning o'ziga xos xususiyati uni amalga oshirish uchun belgilangan vaqt chegaralangan bo'ladi hamda unga doimo yuksak talablar bilan yondoshiladi. 6. Sinxron tarjimada vaqt chegaralanganligi sababli tarjimon tomonidan turli lisoniy belgilar qo'llaniladi va ular yordamida asliyat mohiyatini qisqa vaqtda adekvat aks ettirish mumkin bo'ladi. 7. Sinxron tarjimada tarjimaning boshqa tur va xillaridan farqli ravishda asliyat matni o'qilgan paytning o'zida tegishli imkoniyatlardan kelib chiqib uning tarjimasini amalga oshirish talab qilinadi. Shuning uchun sinxron-tarjimondan chet tilidagi nutqni tinglab tushunish qobiliyati yoqori saviyada bo'lishi lozimdir. Sinxron tarjimaning ikki ko'rinishi bor: 1) sinxron tarjima (eshitish asosidagi) – chet tilidagi nutqni tinglab

tushunib amalga oshirilgan tarjima. 2) sinxron tarjima (yozuv varag'idan)- anjumanlardagi notiqlarning so'zlayotgan nutqlarining varaqdagi yozma matnidan amalga oshirilgan sinxron tarjima.

*Olm.: die Simultanuebersetzung. Ing.: simultaneous translation.*

*Rus.: синхронный перевод.*

**SITUATSIYA (HOLAT).** Tildan tashqari voqe'likning inson nutqida zohir bo'lishi.

Tarjimon so'zning asliyatda aks etgan holatiga qarab o'girishi kerak.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *dunyo bilimlari asosida kengaytirish, kontekst, situativ kontekst.*

*Olm.: Situation. Ing.: situation. Rus.: ситуация.*

**SITUATIV KONTEKST.** Tarjimonning asliyatni o'qish va tahlil qilish jarayonida undagi kummulyativ (ta'sir etuvchi birliklar uyg'unligi) axborotlar majmuini o'zining tushunish bazasiga olishi va shundan matn to'g'risida muayyan ma'lumotga ega bo'lishi. Masalan, olmon tilidagi *Unterlagen* (biror narsaning tagiga qo'yiladigan narsa) so'zini ikki xil tusunush mumkin: 1) rasmiy ish qog'ozlari yuritilayotgandagi *Bewerbung* (ariza)ga qo'shimcha ravishda birlashtiriladigan *ilova* nazarda tutiladi; 2) Biror bir idishning issiqligi uchun tagiga qo'yiladigan *tagacchcha* ma'nosida ham tushuniladi.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *dunyoni bilishga qarab kengaytirish, makrokontekst, mikrokontekst, dunyoni bilish.*

*Olm.: situativer Kontext. Ing.: situative context. Rus.: ситуативный контекст.*

**SKOPOS NAZARIYASI.** (*Skopos* so'zi yunoncha – *maqsad, niyat, ko'zda tutish* kabi ma'nolarni anglatadi). Bu so'z asosan olmon tarjimashunosligida qo'llanilib kelinadi. *Skopos nazariyasiga* asosan, tarjima matni asliyatga nisbatan o'zgartirilgan ko'rinish olganligi uvhun ham boshqacha vazifani bajaradi.

Tarjimashunoslikda matnning amaliyotda qo'llanilishiga katta ahamiyat beradigan nazariy qarashlardan biri bo'lib, tarjima matnini asosan tarjima o'quvchilariga mo'ljallanishini oldingi o'ringa qo'yadi.

Ushbu nazariy qarashga ko'ra, tarjima o'quvchilari asliyatdagiga qaraganda tarjima matniga ko'proq ta'sir qila oladilar.

*Olm.: Skopostheorie. Ing.: the Skopos theory. Rus.: скопосская теория.*

**SELEKTIV KOMMUNIKATSIYA** - asliyat matnidagi eng tipik jihatlargina tarjima matniga o'tkaziladi. Bunday tarjimada batafsillashtirish alomatlarini ko'rinmaydi.

*Olm.: die selektive Kommunikation. Ing.: selective communication. Rus.: селективная коммуникация.*

**SOHAVIY LUG'AT** – fan yoki texnikaning muayyan sohasi so'zligi

*Olm.: das Fachwoerterbuch. Ing.: special dictionary. Rus.: отраслевой словарь.*

**SOHAVIY TARJIMA** – 1. Terminologik jihatdan muayyan sohaga oid matnlar tarjimasi. 2 Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, texnik, harbiy, ma'muriy xo'jalik, yuridik, diplomatik, moliyaviy, publitsistik matnlar tarjimasi soha tarjimachiligiga kiritiladi. Bu sohadagi muammolar asosan lingvistik tarjima nazariyasida o'rganiladi.

*Olm.: die Fachuebersetzung. Ing.: special translation. Rus.: отраслевой перевод.*

**SOHAVIY TIL (IXTISOSLIK, YO'NALISH VA KASB-HUNAR SOHASI TILI).** Muayyan sohaga oid tushunchalarni ifodalaydigan til, terminologiya. Soha tili faqatgina muayyan sohaning terminologik birliklarinigina emas, balki, o'sha tilning morfologik, frazeologik va sintaktik o'ziga xosligini ham o'z ichiga oladi. Bunda shaxssiz konstruksiyalarga ko'proq duch kelinadi. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: termin, matn, matn tipologiyasi.

*Olm.: die Fachsprache. Ing.: special language. Rus.: отраслевой язык.*

**SOXTA DO'STLAR.** 1. Asliyat va tarjima tillarida shakli, yozilishi o'xshashligiga ishonib, tarjimada ma'nosi bir-biriga to'g'ri kelmaydigan so'zlarni qo'llash natijasida kelib chiqadigan g'alizliklar. Masalan, ingliz tilidagi *actual* so'zi olmon tilida *gegenwärtig* (hozirgi payda, zamonaviy) degan ma'nolarni anglatadi. O'zbek tilidagi *actual*

(*dolzarb*) soʻziga ishonilganda soxta doʻstga uchraladi. 2. Soxta ekvivalent. Ayrim soʻzlar boshqa tillardagi soʻzlarga fonetik tomondan mos kelishi yoki ularga juda oʻxshashi mumkin, ammo ularning mazmuni va anglatgan maʼnolari bir-biridan jiddiy farq qiladi. Msalan, olmon tilidagi der Akademiker soʻzi - oliy maʼlumotli kishi, student, oliy maktab oʻqituvchisi, goqo akademik maʼnolarini anglatasa, rus va oʻzbek tillarida fanlar akademiyasining qaqiqiy aʼzosi, akademik maʼnolarida qoʻllaniladi. Shaklan oʻxshagani bilan maʼnolari bir-biridan jiddiy farq qiladigan soʻzlar soxta ekvivalentlar deyiladi.

Mufassalroq maʼlumot olish uchun qaralsin: anglizizmlar, yanglish maʼno, interferentsiya.

*Olm.: die falsche Freunde. Ing.: faux amis. Rus.: ложные друзья.*

**SOTSIOLEKT.** Muayyan davr yoki vaqt birligida maxsus guruh yohud jamoada faol qoʻllaniladigan lisoniy muloqot birligi. Tarjima jarayonida maxsus fan yoki sohaga oid tusunchlarni bir-biridan farqlash kerak boʻladi. Mufassalroq maʼlumot olish uchun qaralsin: *ideolekt, termin, terminologiya.*

*Olm.: Soziolekt. Ing.: sociolect. Rus.: социолект.*

**SUNʼIY TIL** – tabiiy til amal qilishi qiyin yoki mumkin boʻlmagan holat va sharoitlarda qoʻllaniladigan belgilar sistemasi.

*Olm.: die kuenstliche Sprache. Ing.: artificial language. Rus.: искусственный язык.*

**SUNʼIY BILINGVIZM** – balogʻat yoshiga yetganda bir yoki ikki tilli muhitda til oʻrganish yoʻli bilan ikki tilni bir xil darajada egallash.

*Olm.: die kuenstliche bilinguismus. Ing.: artificial bilinguism. Rus.: искусственный билингвизм.*

**SOʻZ** – borliqdagi predmet, voqea-hodisa, ularning xususiyati va oʻzaro aloqalari haqida oʻz tarkibidagi tovushlar yordamida tushuncha beradigan tilning eng qisqa birligi.

*Olm.: das Wort. Ing.: word. Rus.: слово*

**SOʻZGA ASOSLANGAN TARJIMA** - asliyat matnidagi faqat leksik birliklarinigina oʻgirishni koʻzlangan tarjima. Buni rus tilida slovesniy perevod termini bilan qam ishlatiladi.

*Olm.: lexikalische Uebersetzung. Ing.: lexical translation. Rus.: лексический перевод.*

**SO'ZNING ASHYOVIY-MANTIQIY TARKIBI** – soʻzning muayyan kommunikativ jarayon hamda tarixiy davrda anglatadigan lisoniy-semantik maʼnosi.

*Olm.: der gegenständliche-logische Wortstamm. Ing.: material-logical basis of a word. Rus.: предметно-логическая основа слова.*

**SO'Z BIRIKMASI** – ikki yoki undan ortiq soʻzlarning oʻzaro birikishidan hosil boʻlgan va muayyan bir maʼno anglatadigan birikma.

*Olm.: die Wordverbindung. Ing.: word combination. Rus.: словосочетание.*

**SO'ZNING DASTLABKI KO'RINISHI** – lingvostistikada soʻzning asosiy shakli sifatida eʼtirof etiladigan termin.

*Olm.: die Ausgangsform des Wortes. Ing.: the initial form of the word. Rus.: исходная форма слова.*

**SO'Z MA'NOSI** - muayyan soʻzning kontekstga bogʻliq boʻlmagan maʼnosi. Ingliz tilidagi *figure* soʻzi – shakl, tana, obraz, shaxs, haykal, raqam kabi maʼnolarni ifodalaydi. Tishunoslikda ushbu atamaga umumiy taʼrif hali berilmagan. Ferdinand de Sasyur fikricha, ushbu soʻzning tildagi ifodasi bilan uning amalda qoʻllanilishi oʻrtasida farq bor.. Masalan, olmon tilidagi Schaf bir tomondan hayvon (qoʻy)ni ifodalasa, ikkinchi tomondan Fleisch (goʻsht)ni bildiradi. Tarjimashunoslikda söʻzning oʻz va muayyan kontekstdagi maʼnolari bir-biridan farqlanadi. Tarjimashunoslik darslarida – ushbu soʻz bilan birga: asosiy maʼno, qoʻshimcha maʼno, maʼno-mohiyat, maʼno ustivorligi kabi birikmalar faol qoʻllanilishi bilan ajralib turdilar. Professor G.Salomovning manabu aforizmini keltirish oʻrinli: „Shakl jilvakor – maʼno ustivor“.

*Olm.: die Wordbedeutung. Ing.: sense of the word. Rus.: смысл слова.*

**SO'ZMA-SO'Z TARJIMA** –1.Xorijiy tildagi soʻz tuzulishini saqlagan holda boshqa tildagi muqobili bilan mexanik almashtirish. Soʻzma-soʻz tarjima - satrma-satr, bandma-band tarjima atamaları bilan qam ishlatiladi. Soʻzma-soʻz tarjimada asliyatning til xususiyatlari

tarjima tilidagi mos kelgan uslubiy variantlari bilan almashtiriladi. Soʻzma-soʻz tarjima aslyiat matni anglatgan maʼnoni filologik asnoda, yaʼni til xususiyatlarinigina eʼtibolrga olgan qolda oʻgʻirishni koʻzda tutadi. Shuning uchun filologik tarjimani haqida soʻzma-soʻz tarjima atamasi bilan qam ishlatiladi.

2. Tarjima tilidagi soʻzni aslyiatdagi soʻz oʻrniga mexanik tarzda qoʻyish. 3. Tarjimada aslyiatdagi soʻz shakl va mazmuniga qarab ish koʻrish obʼyektiv ahamiyat kasb etadi. 4. Har bir soʻzni alohida olib tarjima qilish. 5. Aslyiat matnidagi soʻzlarni ularning oʻzaro birikish xususiyatlarini eʼtiborga olmagan holda amalga oshirilgan tarjima. 6. Matnning soʻz darajasida ogirilgan tarjimasi. 7. Alohida soʻzning mexanik tarjimasi.

*Olm.: wort-wortliche Uebersetzung. Ing.: word by word translation. Rus.: дословный перевод.*

**SOʻZNING SEMANTIK TUZULISHI** – soʻzning morfologik tarkibi.

*Olm.: Semantische Struktur des Wortes. Ing.: semantical structure of the word. Rus.: семантическая структура слова.*

## ~ T ~

**TABDIL** – (arab tilidan kirib kelgan soʻz boʻlib, oʻzgartirish, almashtirish maʼnolarini anglatadi) bir tilning oʻzi oʻtmishida yaratilgan matnni uning qozirgi holatiga moslashtirishdir. Tabdilni jahon olimlari turlicha atamalar bilan aytib keladilar. Jumladan, taniqli slovak olimi Anton Popovich bunga nisbatan *внутрилитературный перевод* (bir adabiyot ichidagi tarjima) yoki ramziy maʼnoda "*перекличка столетий*" (asrlarni bir-biriga moslab olish) terminlarini qoʻllaydi. Rossiyalik tarjimashunos A.V.Fyodorov esa, *внутриязыковой перевод* (bir til ichidagi tarjima) deydi. Bizda *tabdil* - tarjima jumlasiga kiradigan, unga xos xususiyatlarning koʻpchiligini oʻzida mujassamlashtirgan, ayni paytda tabdilda tarjimaga xos jarayon faqat bir tilning ichida, uning turli davrlarida sodir boʻlishi bilan ajralib turadigan hodisadir.

*Olm.: die innensprachliche Uebersetzung; Ing.: intralinguistic translation. Rus.: внутриязыковой перевод.*

**TABU** – 1. Tildan tashqari ta'sirlar sababli qo'llanilishi ta'qiqlangan so'z yoki tushuncha. 2. Diniy e'tiqod va axloqqa nomuvofiqligi sababli qo'llanilishi ta'qiqlangan so'z yoki tushuncha.

*Olm.: das Tabu. Ing.: taboo. Rus.: табу.*

**TAGLAMA** – (rus. *Подстрочник*). Shoir-tarjimonlar asliyatdagi she'r so'zlari tagiga u anglatgan ma'noni so'zma-so'z tarjima qilib yozib qo'yilishi asosida ham tarjima qiladilar. Buni o'zbek tarjimashunos olimi, professor G'.Salomov ilk bor *taglama* atamasi bilan ishlatgan.

*Olm.: die Rohuebersetzung. Ing.: interlinear translation. Rus.: подстрочник.*

**Tahririyat ko'rsatmalari.** Orfografik va tipografik muaamolarni hal qilish va matn nashr qilishdan oldin tahririyatga havola qiligan tarjima nusxasining tahririyat tomonidan ko'rib chiqilishi. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *me'yor, tilni amaliyotda qo'llash qoidalari, ko'rsatmalar.*

*Sin.: Matn tuzish qoidalari.*

*Olm.: redaktionelle Hinweise. Ing.: editorial instructions. Rus.: указания редакции.*

**TAKROR** – bir tildagi matn tarkibida takroran qo'llanildan lisoniy-uslubiy birliklar.

*Olm.: die Wiederholung. Ing.: repeat Rus.: повтор.*

**TAKRORLASH** - bir gap yoki matn bo'lagida bir so'z bir yoki sintaktik qurilmaning takrorlanib kelishi. Takrorlashni G'arb tilshunosligida – *Rekurensiya, Wiederholung* deb ham yuritiladi. U *metodik xato* yoxud *lisoniy g'alizlik alomati* sifatida ham kelishi ham mumkin. Ammo, badiiy matnda u stilistik bo'yoq vazifasida ham ishlatiladi.

*Sin.: qaytariq.*

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *anfera, so'z qaytarilishi.*

*Olm.: Rekeurrenz. Ing.: repetition. Rus.: повтoreние.*

**TOMOSHABINGA MO'LJALLANGAN O'G'ZAKI TARJIMA** – tamoshabinlar tomonidan qabul qilinadigan yozma-og'zaki og'zaki tarjima usullaridan biri.

*Olm.: die Uebersetzung ernannt fuer die Zuschauer. Ing.: spectator-oriented translation Rus.: перевод предназначенного для зрителя.*

**TANISHUVCHI O'QISH** – asliyat matni bilan uning umumiy mazmunini bilish maqsadida tanishish.

*Olm.: die einfuehrende Lektuere. Ing.: Fact-finding reading. Rus.: ознакомительное чтение.*

**TARJIMA** – (fors. arab. *tarzabon, chroyli so'zlovchi, notiq, tili burro kishi*) arab tiliga tarjumon shaklida qabul qilingach, undan *tarjima, tarjuma* hosil bo'lgan. Bizdagi adabiyotda bu *tushunchani chekurish, o'tkazish, qaytarish, ag'darish, o'g'irish* atamaları bilan ifodalangan. Tarjima *sharh, tafsir, bayon qilish, tushuntirish* ma'nolarida ham qo'llanilgan. Tarjima hozirda ilmiy-filologik atamaga aylandi. *Tarjima* – bir tilda yozilgan matn yoki aytilgan nutqni boshqa til vositalari bilan qayta yaratishni bildiradi. G'arb tarjimashunosligida, xususan Germaniyada yozma tarjimani *Uebersetzung*, og'zaki tarjimani esa *Dolmetschen* terminlari bilan ishlatiladi. Endilikda har ikki atamani xususiy hollarda qo'llanilib, umumiy nom bilan *Translation* (ilk bor 2000 yilda avstriyalik tarjimashunos Erich Prunch qo'llagan) termini bilan atalmoqda.

*Olm.: die Translation. Ing.: translation. Rus.: перевод.*

**TARJIMADA ADABIY KOMMUNIKATSIYA** - asliyat va tarjima adabiyotlari o'rtasidagi kommunikativ aloqa. Bunda asliyat "ekspedient", tarjima esa "pertsipient" vazifasida keladi.

*Olm.: die literarische Kommunikation in der Uebersetzung. Ing.: literary communication in translation. Rus.: литературная коммуникация в переводе.*

**TARJIMAVIY ADAPTATSIYA** – mazmunan qiyin matnlarni soddalashtirish. Tarjimada asliyatdagi murakkab matnlarni soddashaklda ifodalash, shuningdek, she'riy matnlarni kitobxon talab-



ehtiyojlariga qarab nasriy usulda bayon qilish ma'nosida ham qo'llaniladi.

*Olm.: die Uebersetzunsadaptation. Ing.: translational adaptation.*

*Rus.: переводческая адаптация.*

**TARJIMANING ADEKVATLIGI** - tarjimaning asliyatga uslubiy va mazmuniy monand bo'lishi.

*Olm.: die Angemessenheit der Uebersetzung. Ing.: Adequacy of translation. Rus.: адекватность перевода.*

**TARJIMA AMALIYOTI** – 1. Tarjimonning og'zaki yoki yozma tarjima qilishi jarayonidagi kognitiv faoliyati. 2. Ta'lim jarayonida tarjima nazariyasidan olingan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish uchun olib boriladigan mashg'ulot.

*Olm.: die Praxis der Uebersetzung. Ing.: translation practice.*

*Rus.: практика перевода.*

**TARJIMA ANIQLIGI** – 1. Asliyatdagi axborotning tarjimaga qanchalik aniq darajada yetkazilganligi. Aniqlik darajasi tarjimadan ko'zlangan maqsad, tarjima qilinayotgan matnning xarakteri va tarjima o'quvchisi ehtiyoj hamda qiziqishlariga bog'liq bo'ladi. 2. Tarjimaning asliyatga muqobilligini darajasi, sifatini ko'rsatuvchi jihat.

*Olm.: die Genauigkeit der Uebersetzung. Ing.: accuracy of translation. Rus.: точность перевода.*

**TARJIMA ANTINOMIYALARI** – (*antinomiya* so'zi yunoncha bo'lib, *anti* zid, *nomos* qonun demakdir). Falsafiy ma'noda bab-baravar to'g'ri deb e'tirof etilgan ikki aqidaning bir-biriga zid kelishi *antinomiya* deb tushuniladi. Tarjimada ham bir-biriga zid antinomiya mavjud:

1. Tarjima nazariyasi qanday bo'lishi kerak: adabiyotshunoslik asosiga qurulishi kerakmi yoki tilshunoslik zamirida rivojlanishi lozimmi.

2. Tarjimaning xususiyati qanday bo'lmoqi lozim: asar hijjalab, so'zma-so'z tarjima qilinishi kerakmi yoki bu - asarni qayta yaratuvchi, erkin, ijodiy tarjima bo'lmoqi kerakmi.

3. Asl nusxada aks etgan milliy o'ziga xoslikni qanday berish lozim: tarjimada uni asliyat tiliga xos milliy xususiyatlarini berish kerakmi yoki uni o'z milliy andozamizga qo'yib qayta bichiladimi:

qahramonni va unga qo`shib muallifni tarjimon yashayotgan mamlakatga boshlab kelish lozimmi. Boshqacha aytganda: "Men ham u erda bo`ldim, asal-pivo ichdim" deb berish ma`qulmi yohud "men ham qatnashdim, bol-halvo yedim" deb bergan durustmi.

4. Tarjima bo`lish va yoki bo`lmaslik aqidasi xususida ikki bir-biriga zid qarash mavjud. Chunonchi, optimistlarning fikricha, hamma narsani bilib bo`ladi, binobarin, hamma narsani tarjima qilish mumkin, yohud, aksincha agnostiklarning da`vosiga qarganda, til - fikrning qolipi emas, balki dunyoni takrorlanmas bir tarzda o`ziga xos idrok qilishdan iboratdirki, shuning uchun bir tildan boshqa tilga umuman tarjima qilish mumkin emas.

*Olm.: translatorische Widerspruchlichkeiten. Ing.: translational discrepancy. Rus.: переводческие антиномы (противоречивости).*

**TARJIMADA ASLIYATDAGI AYRIM USLUBIY VOSITALARNI OLIB TASHLASH** - asliyatning uslubiga mos uslub topish maqsadida asliyatdagi ayrim uslubiy vositalarni tarjima matnida tushurib qoldirish. Asliyat va tarjimada so`zga uslubiy baho berish - asliyat muallifi va tarjimonning matn yaratish jarayonidagi so`z qo`llash mahorati, so`zga bo`lgan munosabiti va bahosi.

*Olm.: translatorisch Nivellieren. Ing.: translational levelling. Rus.: переводческое нивелирование.*

**TARJIMADA ASLIYATGA SODIQ QOLISH** - tarjimada asliyatga uslubiy va ma`naviy ekvivalentlikni ta`minlash;

*Olm.: die Uebersetzungsergebenheit zum Ausgangstext. Ing.: translational fidelity to the initial text. Rus.: переводческая преданность к оригиналу.*

**TARJIMANING ASLIYATDAN UZOQLASHUVI YOKI OG`ISHI** - bu hodisani ikki xil ma`noda tushunish mumkin: 1) tarjimaning asliyat mohiyati, ruhiyatini to`laqonli aks ettira olmasligi natijasida undan uzoqlashuvi, og`ishi va salbiy hodisalarga olib kelishi; 2) asliyat uslubini tarjimada muqobil aks ettirish uchun unga mos deb topilgan tarjima matnidagi uslubning original asar muallifi uslubidan anchagina farq qilib turishi. Bu tarjimani qabul qiluvchi adabiyot xususiyatlaridan kelib chiqishi bilan izohlanadi. Bunday uzoqlashuv,

aslida asliyat ruhiga yaqinlashuv bo'lishi ham mumkin. G'.Salomov ta'biri bilan aytganda, - she'riy tarjimada asliyat shaklidan qancha uzoqlashilsa, uning mazmuniga shuncha yaqin kelish ham mumkin.

*Olm.: die translatorische Entfernung oder die Abweichung vom Ausgangstext. Ing.: translational removal or deviation from the initial text.*

*Rus.: переводческие удаления или отклонения от оригинала.*

**TARJIMA TERMINLARINI IDENTIFIKATSIYALASH** - tarjima atamalari to'g'risidagi turli ta'riflarni bir maxrajga keltirish, yaxlit bir tushuncha sifatida ta'riflash.

*Olm.: die Identifizierung der Uebersetzungstermini. Ing.: Identification of translational terms. Rus.: идентификация переводческих терминов.*

**TARJIMADA BADIY INDIVIDUALLIKNING AKS ETISHI** - original asar muallifi uslubining eng muqim jiqatlari bilan birgalikda tarjimon individual maqoratining tarjima matnidagi talqini.

*Olm.: Die Reflexion in der Übersetzung der künstlerischen Individualität. Ing.: Reflection of artistic individuality in translation*

*Rus.: отражение в переводе художественной индивидуальности.*

**TARJIMA BIRLIKLARI** – 1. Asliyat tilidagi til birliklarining tarjima tilidagiga nisbati. 2. Asliyat tilidagi eng kichik til birligining tarjima tilidagiga muvofiqligi. 3. Doimiy tarjima birliklari sifatida: nutqiy qoliplar, terminlar, maqol va obrazli iboralar ishlatiladi. 4. Yozma amaly tarjima jarayonida o'giriladigan tarjima birliklari so'z, so'z birligi, sintagma, gap, abzats yoki butun matnning o'zi bo'lishi mumkin.

*Olm.: die Uebersetzungseinheiten. Ing.: Translational units. Rus.: переводческие единицы.*

**TARJIMA BIRLIGINI ANIQLASH.** Tarjimada asliyat matniga mos keladigan lisoniy yoki terminologik birlikni aniqlah. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *termin*

*Olm.: die Ermittlung einer Übersetzungseinheit. Ing.: segmentation. Rus.: onpedeleniye perevodcheskoy ediniцы.*

**TARJIMA BO'LISHLILIK** – 1. Har qanday matn yoki og'zaki nutqni bir trildan ikkinchi tilga tarjima qilsa bo'ladi, degan qarash. 2. Har ikki tilaro bir-biriga tarjima qilish uchun ob'yektiv adabiy-lisoniy qoidalar asosida o'girish imkoniyatining mavjudligi. 3. Asliyat va tarjima tillaridagi obrazlar sistemasida adabiy-lisoniy va uslubiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Asliyatga muqobillik ta'minlangan tarjimalarda uslubiy siljishning amalga oshishi tabiiy holdir.

*Olm.: die Uebersetzbarkeit. Ing.: translability. Rus.: переводимость.*

**TARJIMA BO'LMASLIK** – 1. Ona tilida asliyatdagi so'z yoki tushunshaga to'la mos keladigan muqobilning mavjud bo'lmaslik holati. Bunday holatda tarjimon turli tarjima usullaridan foydalanadi. 2. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy, ayniqsa she'riy matnlarni o'girib bo'lmaydi, deb qaraydigan dogmatic qarash.

*Olm.: die Unuebersetzbarkeit. Ing.: untranslability. Rus.: непереводимость.*

**TARJIMA BO'LISHLIK VA BO'LMASLIK MUAMMOSI** – 1. Tarjima bo'lishlik tarjimashunoslikning maxsus muammolaridan sanaladi. Bu muammo odatda *tarjimaga qo'yilladigan talablardan* kelib chiqadi. Tarjima bo'lishlik uchun asliyat va tarjima tili deyarli bir-biriga teng ijtimoiy-madaniy, ilmiy-texnik taraqqiyotda bo'lganlarida muammo kelib chiqmaydi. Bu bir muammoning ikki tomonidir. Tarjimada asliyatning mazmun va shaklini ideal darajada to'liq o'girib bo'lmaydi. Agar tarjimaga asliyatdagi nutq faoloyatini aks ettirish deb qaraladigan bo'lsa, masalani ijobiy hal qilsa bo'ladi. Badiiy tarjimada muallf uslubini qayta yaratish diqqat markazda turadi. Sinxron tarjimada esa asliyat mazmunini aks ettirish talabi birinchi o'rinda turadi. Ammo har ikki holda ham tarjimaning asliyatga adekvatligi ta'minlanadi. 2. Agar bir tildagi matnni ikkinchi bir tilda adekvat aks ettirish mumkin ekan, demak, tarjima qilib bo'lmaydigan matnning o'zi yo'q. Faqatgina tarjima qilish qiyin bo'lgan matnlar bor. Tarjimadagi bu qiyinchiliklar asosan asliyat tili yoki undagi voqe'likdan yaxshi xabardor bo'lmaslik,

shuningdek tarjima tilida ularga mos keladigan muqobil variantlarni topa bilmasliklardan kelib chiqadi. 3. Tarjima bo'lishlilik asliyat mazmuni, uslubi va til ichi xususiyatlarining tarjimada aks ettirish imkoniyatlari mavjudligidir.

*Olm.: das Problem der Uebersetz und Unuebersetzbarkeit. Ing.:*

*Problem of translability and untranslability. Rus.: проблема переводимости и непереводимости.*

**TARJIMAGA DENOTATIV YONDASHSISH** – tarjima jarayonini nazariy tadqiq qilishda keng qo'llaniladigan usul. Bunga ko'ra tarjima 3 bosqishda amalgam oshiriladi: a) asliyat tilidagi axborotni tushunish bosqichi; b) mazkur axborotning aqliy obrazini shakllantirish bosqichi; c) mazkur obrazni tarjima tilida interpretatsiya (talqin) qilish bosqichi. Tarjimaga denotativ yondashish – tarjima tilida asliyatni adekvat aks ettirish uchun muqobil variantlardan erkin foydalanishni tavsiya qiladi.

*Olm.: Denotativ Herangehen an die Uebersetzung. Ing.:*

*Denotative approach to translation. Rus.: денотативный подход к переводу.*

**TARJIMANING ESKIRISHI** - muayyan davr va an'analar o'zgarishi bilan qar qanday tarjimaning eskirish xususiyatlariga ega bo'lishi mumkinligi. Bunda original asarni qabul qiluvchi tarjima tili kontekstidagi kommunikativ munosabatlar va mavjud uslublarning o'zgarishi o'z ta'sirini o'tkazadi. qayta tarjimaning yaratilishiga tarjima o'quvchisining ta'bi va qiziqishlari, o'zgacha tarjimaga bo'lgan talablari sabab bo'ladi.

*Olm.: das Altern der Uebersetzung. Ing.: aging of translation.*

*Rus.: старение перевода.*

**TARJIMA FAOLIYATI MODELI** – 4 ta bosqichni o'z ichiga oladi. *Birichni bosqichda* matn tarkibidagi so'z bilan ilk marotaba tanishish va uni tushunish sodir bo'ladi. *Ikkinchi bosqichda* esa matn tarkibidagi so'zdan, so'z birikmasi, frazeologik birlik va ulardan tashkil topgan gap va yaxlit matnga o'tiladi. *Uchinchi bosqichda* tarjimon tarjima tilidan asliyatdagi ana shu jihatlarga mos keladigan lisoniy-uslubiy vositalarni qidirib topadi va qayta yaratadi. Nihoyat *to'rtinchi*

*bosqichda* tarjimon o'z ishini qaytadan nazoratdan, tahrirdan o'tkazadi. Buni o'z- o'zini nazorat qilish ham deyiladi. Tarjima didaktikasida ham bu bosqichning ahamiyati katta.

*Olm.: Model der Uebersetzungstaetigkeit. Ing.: model of translational activity. Rus.: модель переводческой деятельности.*

**TARJIMA FAOLIYATI TARIXI** – turli tarixiy davrlarda tarjima va tarjimon faoliyatiga qo'yiladigan talab, tarjimaga bo'lgan qarashlarning tarixiy o'zgaruvchanligi muammolari, turli mamlakatlardagi tarjima faoliyati tarixini o'rganuvchi tarjima haqidagi fan bo'limlaridan biri.

*Olm.: die Geschichte der Uebersetzungstaetigkeit. Ing.: history of translational activity. Rus.: история переводческой деятельности.*

**TARJIMA FUNKTSIYA (VAZIFALARD)SI** - tarjimaning jamiyatda amal qilishiga ko'ra uning kommunikativ jarayondagi vazifalari mavjudligi. Bular: ta'limiy, adabiy savodxonlikni oshiruvchi omil, original asarni tarjima tilidagi reklamasi, turli xalqlar o'rtasida madaniyatlar ayirboshlash va dabiy aloqalar vositasi kabilardan iborat.

*Olm.: die Funktion der Uebersetzung. Ing.: function of translation Rus.: функция перевода.*

**TARJIMANING IJTIMOIIY MOHIYAT KASB ETISHI** - tarjimaning ijtimoiy kommunikatsiyada faol ishtirok etishi va uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarning muhim bir qismi sifatida e'tirof qilinishi.

*Olm.: die oeffentliche Bedeutung der Uebersetzung. Ing.: social significance of translation. Rus.: общественное значение перевода.*

**TARJIMON HAVOLASI.** Tarjima matnida asliyatni yanada anaiqroq tushunish uchun unga mihim bo'lgan jihatlarni tarjimon tomonidan axborot tarzida kiritiladigan havola. Bunday havolalar ko'pincha sahifa ostida berib ketiladi. Havolalar ko'proq didaktik karakterda bo'ladi. Ular asliyatda aks etgan, ammo tarjima o'quvchisi tushunishi qiyin bo'lgan milliy o'ziga xosliklar xususiyatlarini ko'rsatishi mumkin.

*Olm.: die Anmerkung. Ing.: translator's note. Rus.: переводческое наложение.*

**TARJIMA HODISASIGA TARIHAN YONDOSHISH ZARURATI** - Xalqlarning iqtisodiy-siyosiy aqvoliga qarab, uning taqdirida turli xaqar va tillar turlicha rol o'ynashi mumkin. Masalan, o'tmishda Markaziy Osiyoda arablar uzoq davr mobaynida qukmronlik qilganliklari tufayli, bir tomondan, o'zbek milliy madaniyati, adabiyoti va tilida ularning sezilarli ta'siri saqlanib qoldi. Ular o'zlari bilan birga arabiy talqinda qadimgi yunon fani va madaniyati ta'sirini qam olib keldilar. Ayni vaqtda, bu yoqini qam unutmashlik kerakki, Vatanimizning mashqur olimlari Muqammad al Xorazmiy, Abunahr Forobiy, Abu Rayqon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Uluqbek va boshqalarning asarlari aksariyat arab tilida dunyoga mashqur bo'ldi. Bu jaqonshumul merosning saqlanib qolganidan bir qismi o'zbek tiliga tarjima qilindi va qilinmoqda.

*Olm.: die Notwendigkeit des historischen Herangehens an die Übersetzung.*

*Ing.: Necessity of historical approach to translation*

*Rus.: необходимость исторического подхода к переводу.*

**TARJIMADA ILLYUZIYA** - Tarjimon-illyuzionist asl nusxa ortidan borib, go'yo kitobxonga uni bevosita ko'rsatmoqchi, o'quvchi qarshisida tarjima emas, balki asl nusxaning o'zi turganiga uni xayoliy yo'l bilan ishontirmoqchi bo'ladi. Hamma holladra ham kitorbxon yoki tamoshabin bilan illyuziyaga asoslangan murosasozlik voqe bo'ladi; teatrd tamoshabin uning qarshisidagi sahnada voqe'likning o'zi ko'rsatilmayoiganligini bilsa-da, u tasvirlanayotgan barcha voqealarning xuddi hayotidagi singari rost bo'lishini talab qiladi; roman o'quvchisi biladiki, uning qarshisida to'qima qissa tasvirlanayapti, lekin u buning rost bo'lishini talab etadi; tarjima o'quvchisi biladiki, u mutolaa qilayotgan narsa asl nusxa emas, lekin u asl nusxa sifatlarini saqlashni va chindan ham "Shohnoma", "Iliada", "Faust"ni o'qiyotganiga o'zini ishontirgisi keladi.

*Olm.: die Illusion in der Uebersetzung. Ing.: Illusion in translation. Rus.: иллюзия в переводе.*

**TARJIMA INVARIANTI** - 1. Ma'no invarianti. 2. Asliyatdagi axborotning funktsional mazmuni (semantik va amaliy jihatlar). 3.

Kommunikativ muloqotda ishtirok etayotgan asliyatdan tarjima tiliga o'tkazilgan matnning abstract mazmuniy (semantik va pragmatik) jihati.

4. Tarjima uchun mo'ljallangan matndagi axborotning tarjima jarayonida o'zgarmasdan saqlanib qolishi.

*Olm.: die Invarianz in der Uebersetzung. Ing.: Invariancy in translation. Rus.: неизменяемость перевода.*

**TARJIMA VA INTERPRETATSIYA** - asl nusxa bilan tarjima tilining materiali bir-biridan jiddiy farq qilganligi tufayli ular o'rtasida fikrni ifodalash tarzida semantik o'xshashlik bo'lmaydi, binobarin, lisoniy aniq tarjimaning bo'lishi mumkin emas, asami faqat interpretatsiya qilish mumkin.

*Olm.: die Uebersetzung und die Interpretation. Ing.: translation and interpretation. Rus.: перевод и интерпретация.*

**TARJIMA JARAYONIDAGI KOMMUNIKATIV MIQ'YOS** - ikki kommunikativ qutbdagi imkoniyatlarning o'zaro muloqotga kirishuvi va unda sodir bo'ladigan konfrontatsiya (qiyoslash)ning bir vaqtning o'zida, bir xil sharoitda sodir bo'lmasligi. Zamon va makondagi o'zaro nomuvofiqliklar bevosita tarjimon tomonidan bir maxrajga keltiriladi.

*Olm.: die kommunikative Sphäre des Übersetzungsprozesses.*

*Ing.: Communicative sphere of translation*

*Rus.: коммуникативная сфера переводческого процесса.*

**TARJIMA JANRI** – 1. Badiiy tarjimada tarjima tilida asliyat bilan bevosita bog'liq bo'lgan matn janri. 2. Turli til birliklari va ularning semsiologik vazifasini ta'minlaydigan ifoda yaxlitligi yoki mazmuni. 3. Murakkab tarkibiy qism.

*Olm.: das Uebersetzungsgenre. Ing.: genre of translation. Rus.: переводческий жанр.*

**TARJIMA JARAYONI** – 1. Bir tildagi matn yoki og'zaki nutqni ikkinchi til vositalari bilan qayta yaratish jarayoni. 2. Bir tildagi til belgilarini ikkinchi tilga o'tkazish jarayoni. 3. Bir tildagi matnni ikkinchi tilda qayta yaratish uchun tarjima tilidan muqobil variantlar topib qo'llash jarayoni. 4. Asliyatdagi matn yoki og'zaki nutq mazmuni va shaklini tarjima tilida muqobil qayta yaratishdagi tarjimon faoliyati.



5. Tarjima jarayoni - asliyat va tarjima o`rtasida kommunikativ zanjirni bog`lash payti. 6. Tarjima jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshib boradi. Vositachi orqali asliyat matni tarjima matniga o`giriladi. Badiiy tarjimada ana shu "vositachi" vazifasini uslubiy kod (A.Popovich) yoki uslubiy kalit (G`.Salomov) bajaradi. Tarjima jarayoni natijasida asliyat tili tarjima tiliga qayta kodlashtiriladi va yangi matn yaratiladi yoki qayta yaratiladi.

*Olm.: das Uebersetzungsprozess. Ing.: process of translation.*

*Rus.: переводческий процесс.*

**TARJIMA JARAYONI BOSQICHLARI** - tarjimon asl nusxani qayta yaratishda quyidagi bosqichlardan o`tadi: 1) asl nusxani idrok etish; 2) asl nusxa interpretatsiyasi; 3) asl nusxani qayta ifodalash.

*Olm.: die Niveaus des Übersetzungsprozesses. Ing.: Levels of the process of translation. Rus.: уровни переводческого процесса.*

**TARJIMANI ZAMONAVIYLASHTIRISH (MODERNIZATSIYA)** - asliyatning badiiy-uslubiy xususiyatlaridan kelib chiqib yoki tarjima o`quvchisi talab-ehtiyojlariga ko`ra uni yaxlit yoki bir qismi lisoniy-mavzuiy jihatlarini qayta ishlash.

*Olm.: die Modernisation in der Uebersetzung. Ing.: modernisation in translation. Rus.: модернизация в переводе.*

**TARJIMAVIY YECHIMLAR XOTIRASI** - tarjimonning o`z ijodiy faoliyati davomida qo`llaydigan uslubiy usulari jamlanmasi.

*Olm.: Das Gedächtnis der Übersetzungslösungen. Ing.: memory of translation solutions Rus.: память переводческих решений.*

**TARJIMANING KOMMUNIKATIV SUB`EKTI** - axborotni uzatuvchi, kommunikatsiya ishtirokchisi vazifasini tarjima bajaradi.

*Olm.: Das kommunikative Subjekt der Übersetzung. Ing.: communicative subject of translation Rus.: коммуникативный субъект перевода.*

**TARJIMA KONTSEPTSIYASI** – 1. Asliyatdagi matnni o`z tilida qanday tarzda ifodalab berosh tarjimonning tarjimaviy kompetetsiyasini belgilaydi. 2. Asliyatdagi matnni tushuna bilish qobiliyati va uni boshqa tilda qayta yaratish imkoniyatiga ega bo`lishlilik. Bunda tarjimonning hayotiy tajribalari va bilimdonlik

darajasi oʻzga tildagi matnni tarjima qila olishiga yetarliligi nazarda tutiladi. Tarjima kompetensiyasiga ikki tildagi matn mansub boʻlgan madaniyatlararo tafovutni bilishlilik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda matnning ikki jihatiga ahamiyat qaratish lozim: 1) janrlar boʻyicha (badiiy, ilmiy-texnil yoki boshqa); 2) tarjima yoʻnalishi (ona tilidan chet tilga yoki chet tildan ona tiliga). Zamonaviy tilshunoslikda bu xususiyatni asliyat tilidagiga nisbatan *retseptiv*, tarjima tilidagiga esa *produktiv* atamaları qoʻllaniladi. Tarjima kontseptsiyasi - asarga qarash, uni qanday oʻquvchiga moʻljallashdan, asl nusxani talqin qilishdan iborat boʻlgan tarjimon ijodiy metodining qoyaviy asosidir. Tarjima kontseptsiyasining tayanch nuqtasi tarjimonning interpretatsion mavqeiga bogʻli boʻladi.

*Olm.: die Uebersetzungskonzept. Ing.: translation concept. Rus.: переводческая концепция.*

**TARJIMAVIY KONKRETIZATSIYA** - asliyat lisoniy-uslubiy vositalarini tarjimada konkretlashtirish, aniq-taniq vositalar bilan berish, aniqlashtirish, ravshanlashtirish.

*Olm.: die Uebersetzungskonkretisation. Ing.: translational concretisation. Rus.: переводческая конкретизация.*

**TARJIMA LEKSIKOGRAFIYASI** – tarjimada lugʻatlardan foydalanish. Zamonaviy tarjimashunoslikdagi yangi, tez rivojlanayotgan soha. Maʼlumki har qanday tarjimon uchun turli xil lugʻat, maʼlumotnoma va qomuslarning ahamiyati katta.

*Olm.: die Lexikographie der Uebersetzung. Ing.: Lexicography of translation. Rus.: лексикография перевода.*

**TARJIMA LINGVISTIKASI** - tarjimaning til xususiyatlarini tilshunoslik asnosida tadqiq qilish.

*Olm.: die Linguistik der Uebersetzung. Ing.: Linguistics of translation. Rus.: лингвистика перевода.*

**TARJIMADA MADANIYAT FAKTORI** - original asar muallifi va tarjimonning madaniyatlararo munosabatlar kontekstida tutgan oʻrni. Har qanday tarjimaga tarjimonning individual uslubi, oʻsha davr tarjima tilidagi madaniyatga oid xususiyatlar oʻz muhrini qoldiradi.

*Olm.: die kulturelle Faktor in der Uebersetzung. Ing.: the cultural factor in translation. Rus.: культурный фактор в переводе.*

**TARJIMADA MADANIYATLAR KESISHUVI** - tarjima matnining bir vaqtning o'zida ikki madaniyat xususiyatlarini aks ettirishi (tarjimaning asliyat tilidagi adabiyot bilan qabul qiluvchi tarjima tilidagi adabiyotni o'zaro omuxtalashtirgan "hujjat" ekanligi).

*Olm.: die Kreuzung der Kulturen in der Uebersetzung. Ing.: crossing of cultures in translation. Rus.: пересечение культур в переводе.*

**TARJIMA MAKTABI** – 1. Muayyan g'oyaviy-estetik qarashlar, tarjimaviy mahorat va malaka va adabiy savodxonlik mushtarakliklariga ega bo'lgan tarjimon mutaxassislar jamoasi. 2. Tarjimashunoslikda o'ziga xos ilmiy-tadqiqot yo'nalishi, metodi va kontseptsiyasiga ega bo'lgan ilmiy maktab. Masalan: *G'aybulla Salomovning tarjimashunoslik maktabi.*

*Olm.: die Uebersetzungsschule. Ing.: Translational school. Rus.: переводческая школа.*

**TARJIMA MATNI** – 1. Tarjima qilish natijasida amalga oshirilgan matn. 2. Tarjima tilidagi matn. Qisqartma: TM – tarjima matni.

*Olm.: die Uebersetzungstext. Ing.: Translational text. Rus.: переводческий текст.*

**TARJIMA MATNINI ADAPTATSIYA QILISH** - tarjima matnini mavzu va unga oid bo'lgan vositalar (personajlar, realiyalar)ni qayta ishlash. Adaptatsiya asliyatni qabul qiluvchi tarjima tili o'quvchilarininr kommunikativ ehtiyojlari va adabiyot qoidalari asosida amalga oshiriladi.

*Olm.: die Anpassung des Uebersetzungstextes. Ing.: Adaptation of the translational text. Rus.: адаптация переводческого текста.*

**TARJIMA MATNIDA ASLIYATNING O'ZGARISH DARAJASI** - Asliyat matni mazmun va shakl jiqatdan o'zgarmas, yaxlitlik kasb etadi. U boshqa tilga o'girilgach, muayyan o'zgarishlarga uchraydi. Tarjima o'quvchisining talablari va qabul qiluvchi til va adabiyotning an'analari ta'sirida tarjima matnida konkretlashtirish yoki

transformatsiyalash qodisasi ro'y beradi. SHu taqdirda qam asliyatning mazmuniy o'zagi o'zgarmagan qolda uning shakli, tasvir vositalari darajasida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

*Olm.: die Stufe der Veränderungen im Übersetzungstext.*

*Ing.: Degree of changes in the translational text.*

*Rus.: степень изменений в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNIDA DAVR MADANIYATINING AKS ETISHI** - asliyat va tarjima matnlari orasida davriy masofaning tarjimada kommunikativ o'zgarishga uchrashi. Tarjimadagi davriy o'zgarish ikki asnoda yuzaga keladi: matnning til materiali va matnning semiotik vazifasi darajasida (vaqt madaniyatni aks ettiruvchi vosita sifatida). Tarjimon uchun bu darajalarning ikkinchisi muqimroq aqamiyatga ega bo'ladi. Asliyat matnidagi madaniyat talqinini tarixiylashtirish (istorizatsiya) yoki zamonaviylashtirish (modernizatsiya) tarjimonning jarayonga kommunikativ munosabatining qandayligiga boqliq bo'ladi. Bunda tarjima tilidagi vaqt aks etgan madaniyat asliyatdagi qolatdan ishgarilab ketishi yoki aksincha qam bo'lishi mumkin.

*Olm.: die Interpretation der Kultur der Zeit im Übersetzungstext.*

*Ing.: Interpretation of culture of time in the translational text.*

*Rus.: Интерпретация культуры времени в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNIDAGI INDIVIDUAL USLUB** - adabiy asar muallifi va uning tarjimoni individual uslublarini aks ettirgan tarjima matnidagi uslub (A.Popovich ta'bi bilan aytganda, - adabiy kommunikatsiya ishtirokchilarining tarjima matnidagi individual uslubi).

*Olm.: die individuelle Stil im Uebersetzungstext. Ing.: Individual style in the translational text. Rus.: индивидуальный стиль в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNINI YARATISHDA KITOBXONNING O'RNI** - tarjima matni obrazlar sistemasi, badiiy uslubiga kitobxonning munosabati. Bunga tarjimonning kitobxon ta'bi va adabiy savodxonlik darajasini e'tiborga olishi bilan boqliq masalalar qam kiradi.

*Olm.: die Rolle des leser in der Bildung des Uebersetzungstextes.*

*Ing.: Role of the reader in creation of the translational text.*

*Rus.: роль читателя в создании переводческого текста.*

**TARJIMA MATNIDAGI KOMMUNIKATIV JARAYON** - kommunikatsiya jarayonida tarjima matniga bo'lgan munosabat; unda tarjimon asliyat matnini qabul qiluvchi rolda ishtirok qiladi. Kommunikativ jarayon tarjima matnining uslubiy qurulishi va o'ziga xosligida namoyon bo'ladi.

*Olm.: das kommunikative Prozess im Uebersetzungstext.*

*Ing.: Communicative process in the translational text.*

*Rus.: коммуникативный процесс в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNINI LOKALIZATSIYALASH** - asliyatda aks ettirilgan lisoniy-poetik va mavzuiy xususiyatlarni tarjima o'quvchisi talab-ehliyolari va qabul qilishni yengillashtirish maqsadida qayta ishlash.

*Olm.: die Lokalisation des Uebersetzungstextes. Ing.: Localisation of the translational text. Rus.: локализация в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNIDA YANGI USLUBNING OCHILISHI** - tarjima matniga asliyatga uslubiy va ma'naviy jihatdan monand keladigan, vatan adabiyotini yangi an'analar va tasvir vositalari bilan boyitadigan matnni olib kirish.

*Olm.: die Eroeffnung des neuen Stils im Uebersetzungstext.*

*Ing.: introduction of new style in the translational text.*

*Rus.: открытие нового стиля в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNINING OBRAZLAR QURULISHI** - uslubni aks ettirishning sintagmatik aspekti. Asliyatdagi obrazlar sistemasining tarjima matnidagi talqini.

*Olm.: die bildliche Struktur des Uebersetzungstextes.*

*Ing.: Figurative structure of the translational text.*

*Rus.: образная структура переводческого текста.*

**TARJIMADA MATN ORTIDAGI VOQE'LIK TALQINI** - tarjimada original asar ortidagi real voqe'lik, qayotni to'laqonli qayta yaratish.

*Olm.: die Interpretation des unausgesprochenen Sinn des Uebersetzungstextes. Ing.: Interpretation of underlying reality in the translational text. Rus.: интерпретация подтекстовой реальности переводческого текста.*

**TARJIMA MATNIDAGI MAVZU** - A.Popovich kiritgan ushbu atama ko'proq G'arb komparavistikasi va tarjimashunoslik fanida qo'llanilib, asliyatning mazmuni va mavzuini tarjimaga o'tkazishdir. A.Toper ushbu "o'tkazish"ni rus tiliga "реализация" deb tarjima qilgan. Bunda asliyatning mavzusi, mazmuni katta o'zgarishlarsiz tarjimaga o'tadi. Agar muayyan mavzuiy o'zgarishlar, siljishlar sodir bo'ladigan bo'lsa, bu asliyat va tarjima matnidagi sotsial-psixologik va madaniy tafovutlarning mavjudligidan kelib chiqadi. Bu esa tarjimon tomonidan o'quvchilarning ta'blariga qarab asliyat matni mavzuyini adaptatsiya, lokalizatsiya, aktualizatsiya qilinishi orqali amalga oshiriladi.

*Olm.: das Thema im Uebersetzungstext. Ing.: Theme in the translational text. Rus.: тема в переводческом тексте.*

**TARJIMADA MAVZU'IY SILJISH** - asliyat va tarjima matnidagi mavzu'iy guruqlar: tarixiy-milliy o'ziga xoslikni ifodalovchi realiylar va boshqa leksik-semantik birliklarning o'zgarishga uchrashi.

*Olm.: die thematische Verschiebung im Uebersetzungstext.*

*Ing.: Thematic shift in the translational text.*

*Rus.: тематический сдвиг в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNIDA TARJIMA BO'LISHLIK VA BO'LMASLIK VOSITALARINING MUNOSABATI** - tarjimada uslubiy va mazmuniy ekvivalentlik masalasi.

*Olm.: die Beziehung zwischen Uebersetzbarkeit und Unuebersetzbarkeit im Uebersetzungstext. Ing.: the relation between translability and untranslability in the translational text. Rus.: отношение между переводимости и непереводимости в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNIDA USLUB** - asliyat matniga nisbatan ekvivalentlikni ta'minlash maqsadida yaratilgan tarjima matnidagi lisoniy-uslubiy o'ziga xoslikka ega bo'lgan matn.

*Olm.: der Stil im Uebersetzungstext. Ing.: Style in the translational text. Rus.: стиль в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNIDA USLUBIY SILJISH** - asliyat matniga mos uslub yaratish maqsadida asliyat va tarjima matnlaridagi ayrim uslubiy vositalarning o'zaro bir xil bo'lmaligi.

*Olm.: Stilistische Verschiebung im Uebersetzungstext. Ing.: Stylistic shift in the translational text. Rus.: стилистический сдвиг в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNIDA "VATAN (O'Z) ADABIYOTI" ESTETIK XUSUSIYATLARINING AKS ETISHI** - tarjima adabiyoti o'quvchilari ehtiyojining inobatga olinishi bilan vatan adabiyoti vakili bo'lgan tarjimon tomonidan mavzuiy va lisoniy vositalarning ifodalanishi.

*Olm.: Die Reflexion der ästhetischen Besonderheit der verwandten Literatur im Übersetzungstext.*

*Ing.: Reflection of esthetic features of the native literature in the translational text.*

*Rus.: отражение эстетической особенности родной литературы в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNIDA "XORIJIY ADABIYOT" ESTETIK XUSUSIYATLARINING AKS ETISHI** - asliyat tili madaniyatini aks ettiruvsi mavzuiy va lisoniy vositalarning tarjima matnidagi talqini. Bunda vatan adabiyotidagi xususiyatlardan farq qiladigan chet el adabiy an'analari tushuniladi.

*Olm.: Die Reflexion der ästhetischen Besonderheit der auslaendischen (fremden) Literatur im Übersetzungstext.*

*Ing.: Reflection of esthetic features of the foreign literature in the translational text.*

*Rus.: отражение эстетической особенности иностранной (чужой) литературы в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNIDA TARIXIYLASHTIRISH** - asliyat muallifi maqsadi, u yaratgan asar poetikasi, ma'no-uslubiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tarjima matniga tarixiy yondoshish, uni mavzuiy va lisoniy jihatdan qayta ishlash.

*Olm.: Historisation im Uebersetzungstext. Ing.: Historisation in the translational text. Rus.: историзация в переводческом тексте.*

**TARJIMA MATNINING USLUBIY YO'NALTIRILGANLIGI** - tarjima matnida asliyatning uslubiy o'ziga xosligining aks ettirilishi. Bunda tarjima matnining uslubiy yo'nalishi, tarjimonga, tarjima o'quvchilariga qaratilgan bo'ladi.

*Olm.: die stilistische Ausrichtung des Übersetzungstextes. Ing.: Stylistic orientation of the translational text.*

*Rus.: стилистическая направленность переводческого текста.*

**TARJIMA MATNIGA USLUBIY SAYQAL BERISH** - asliyatga mos tarjima matni yaratish uchun uning uslubiy o'ziga xosligiga jilo berish, taroshlash.

*Olm.: die stilistische Bearbeitung des Übersetzungstextes.*

*Ing.: Stylistic refinement of the translational text.*

*Rus.: стилистическая обработка переводческого текста.*

**TARJIMA METODI** – 1. Tarjima amaliyoti jarayonida tarjimon tomonidan qo'llaniladigan qayta yaratish usullaridan biri. 2. Tarjimoni amalga oshirish usuli. Tarjima usuli tarjimonning asliyatga individual yondoshuvi asosida amalga oshiriladi.

Bu esa uning adabiy savodxonlik darajasi, mavjud adabiy an'analar va estetik tamoyillarga asoslanishi bilan belgilanadi. Tarjima metodi tarjimonning tarjima jarayonida qo'llaydigan barcha usul va tamoyillarini aks ettiradi.

*Olm.: die Übersetzungsmethode. Ing.: translational method. Rus.: переводческий метод.*

**TARJIMAVIY MUQOBILLIK** – asliyatdagi so'z yoki boshqa lisoniy birlikka tarjima tilida mos keladigan muqobil birlik.

*Olm.: die Uebersetzungsaehnlichkeit. Ing.: Translational similarity. Rus.: переводческая сходность.*

**TARJIMA MUHARRIRI** - tarjimaviy kommunikatsiya ishtirokchisi. Tarjima matni tahriri muayyan adabiy jarayon, adabiyot va til me'yorlari hamda nashriyot talablari asosida amalga oshiriladi. Tarjima muharriri tarjima uchun matn tanlashda ishtirok qilishi mumkin.



*Olm.: der Redakteur der Übersetzung. Ing.: editor of the translation. Rus.: редактор перевода.*

**TARJIMA MURAKKABLIK LARI** – tarjima intellektual mehnat natijasi bo'lganligi uchun uni amalga oshirishda quyidagi qiyinchiliklar bo'lishi mumkin:

- tarjima nazariyasi va metodologiyasi talab darajasida yaratilmagan bo'lsa;

- ilg'or tarjimonlarning namunali ishlari nazariy va amaliy jihatdan umumlashtirilmagan bo'lsa;

- asliyat va tarjima tillarining faqatgina lisoniy o'ziga xosliklariga qiyoslanib, uslubiy muqobillikka oid tadqiqotlarning sustligi.

*Olm.: die Übersetzungsschwierigkeiten. Ing.: Translational difficulties. Rus.: переводческие трудности.*

**TARJIMA NAZARIYASI** - tarjima qonuniyatlari, tarjima qilish printsiplarini sistemali asnoda o'rganadigan fan. Uning mantiqiy-sintaktik, semantik aspektlari bilan birgalikda amaliy asnoda o'rganish sohalari ham mavjud. Tarjima nazariyasi fani mamlakatimizning filologik yo'nalishdagi fakultetlari o'quv rejasiga kiritilgan bo'lib, u chet tillar fakulteti talabalariga chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga tarjima qilish malaka va ko'nikmalarini o'rgatadi.

*Olm.: Theorie der Übersetzung. Ing.: translation theory. Rus.: теория перевода.*

**TARJIMA NAZARIYASINING ADABIYOTSHUNOSLIK YO'NALISHI.** Tarjima nazariyasining adabiyotshunoslik yo'nalishi da'vosicha, badiiy va nobadiiy tarjima o'rtasida jiddiy tafovut bor: badiiy tarjima adabiyot sohasidagi ijodiy faoliyat, nobadiiy tarjima esa til sohasidagi noijodiy faoliyatdan iborat. Muammoni bu tarzda talqin etish o'z-o'zidan shunga olib keladiki, bunda tarjimashunoslik go'yo ikki "tarjima nazariyasi"dan iborat bo'lib qoladi: biri - badiiy tarjima nazariyasi bo'lib, u adabiyotshunoslik sohasi hisoblanmog'i darkor, ikkinchisi esa nobadiiy tarjima nazariyasi bo'lib, bunisi tilshunoslik tilshunoslik sohasiga mansub bo'lmoqi lozim. Binobarin, badiiy tarjima nazariyasi - adabiyotshunoslik sohasi, badiiy adabiyot tarjimonining

faoliyati - adabiy ishning o'ziga xos turi bo'lgandan so'ng, badiiy tarjima muammolariga munosabat ham adabiyot sohasiga mansub, adabiyotshunoslik xarakterida bo'lmog'i lozim. G'.Salomovning fikricha, tarjima nazariyasiga bunday qarashlar yagona tarjima tushunchasining parokanda bo'lishiga hamda ikki tarjima nazariyasi - adabiyotshunoslik sohasiga mansub badiiy tarjima nazariyasi bilan tilshunoslikka mansub lisoniy tarjima nazariyasining bir-biridan ajralib ketishi, parchalaninishiga olib keladi. Tarjima nazariyasining adabiyotshunoslik yo'nalishi bo'yicha sobiq ittifoq davrida birinchilardan bo'lib G.Gachechiladze o'zining "*Введение в теорию художественного перевода*" kitobi bilan chiqqan edi. Mazkur kitobda ilk bor Shekspir asarlarining rus va gruzincha tarjimalari misolida asliyat muallifi uslubiy o'ziga xosligini qayta yaratish masalasi sof adabiyotshunoslik asnosidagi tadqiqot ekanligi ta'kidkanib, bu tarjimashunoslikning adabiyotshunoslik qanoti bo'lishi lozimligini asoslab berilgan.

*Olm.: Literaturwissenschaftliche Richtung der Theorie der Übersetzung.*

*Ing.: Literary criticisms direction of the translation theory.*

*Rus.: литературоведческое направление теории перевода.*

**TARJIMA NAZARIYASI PREDMETI** – tillararo kommunikatsiya natijasida amalga oshirilgan tarjima va uni yaratish jarayoni.

*Olm.: der Gegenstand die Theorie der Übersetzung. Ing.: Subject of translation theory. Rus.: объект теории перевода.*

**TARJIMA NAMUNASI** - talabalarga dars jarayonida misol tariqasida keltirilgan muayyan tarjima namunasi. Bunday namunalar odatda tarjimaning eng muhim muammolarini o'zida mujassamlashtirgan va haqiqatdan ham yuksak darajada bajarilgan tarjimalardan parcha sifatida olinadi. Mazkur amaliyotning tarjima pedagogikasidagi ahamiya katta. Tarjima namunalari o'qituvchilar tomonidan tanlanib, o'zni bilan eng yaxshi tarjimalar bo'shroglari bilan qiyoslanishi ham mumkin. Tarjimada xato-kamchilik bo'ladi, ammo, professional tarjimalardan ham doimo xato axtaravermaslik kerak.

Mufasssalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *tarjima tahlili, lisoniy xatolar, tarjimaviy xatolar.*

*Olm.: die Musterübersetzung. Ing.: translation model. Rus.: образец перевода.*

**TARJIMA NAZARIYASINING LINGVISTIK YO'NALISHI** – *lingvistik tarjimashunoslik.* Bu yo'nalishning mohiyati shundan iboratki, tarjimaga, asosan, hamma hollarda va barcha janrlarda lisoniy faoliyatdan iborat, deb qaraladi. Tarjima muammosi predmetini bunday talqin qilganda, umumiy tarjima nazariyasini tilshunoslikka mansub soha deb qarashni, tarjima muammolarini tadqiq qilishga yondoshish esa lisoniy asnodda bo'lishni taqazo qiladi.

*Olm.: die linguistische Richtung der Theorie der Übersetzung.*

*Ing.: Linguistic direction of the translation theory.*

*Rus.: лингвистическое направление теории перевода.*

**TARJIMANING PRAGMATIK ASPEKTI** – tarjima o'quvchisiga mo'ljallab amalgam oshirilgan tarjimaga qo'yiladigan talab.

*Olm.: der pragmatische Aspekt die Theorie der Übersetzung.*

*Ing.: Pragmatical aspect the translation theory.*

*Rus.: прагматический аспект теории перевода.*

**TARJIMA PRAKTIKOLOGIYASI** - tarjima amaliyotini umumlashgan metodlar bilan boyitib boradigan predmet. Bunga statistika, sotsiologiya, axborot nazariyasi kabilarni kiritish mumkin. Praktikologiya o'z tarkibiga 1) tarjimachilik faoliyati va tarjimachilik dasturlariga nisbatan ijtimoiy-madaniy siyosatda olib borilayotgan ishlarga ta'sir ko'rsatish; 2) tarjimaviy siyosat borasidagi mavjud dasturlarni kitob bozori nuqtai nazaridan tahlil qilib borish; 3) tarjima tanqidining maxsus tamoyillarini aniqlab borish; 4) muharrirlarning tarjima adabiyoti matnini yaratishdagi o'rni; 5) tarjimachilik faoliyati bilan shuqullanuvchi tashkilotlar (jurnallar va assotsiatsiyalar) faoliyati tahlili.

*Olm.: die Uebersetzungspraktikologie. Ing.: practicology of translation Rus.: практикология перевода.*

## **TARJIMAGA QO'YILADIGAN TALABLAR** – 1. *Aniqlik.*

Tarjima asliyat mazmunini aniq aks ettirishi kerak. 2. *Lo'ndalik.* Tarjimon asliyatni qayta yaratishda so'zamollikka, ortiqcha so'zlar ishlatilishiga yo'l qo'ymasligi lozim. 3. *Tushunarlilik.* Tarjimon tushunilishi qiyin bo'lgan birikmalardan lo'nda va sodda til bilan ish ko'rishi kerak. 4. *Adabiy savodlilik.* Tarjima tarjima tili adabiy me'yorlariga amal qilingan darajada amalga oshirilishi talab qilinadi. 5. Tarjimoin nafaqat asliyat (chet tili) lisoniy uslubiy qoidalari, balki tarjima tili lisoniy-uslubiy xosliklari va qoidalarini yaxshi bilishi kerak. 6. Tarjimon asliyat mazmun-mohiyatini yaxshi tushunishi va uni tarjimada muqobil aks ettirishi lozim. Buning uchun: a) asliyat matni leksik minimumini bilishi; b) asliyat va tarjima tili grammatik va uslubiy xususiyatlarini tushunishi; c) tarjima qilish texnikasi, asosiy usullarini mahorat bilan egallagan bo'lishi; d) lug'at, turli ma'lumotnoma va qomuslardan o'rni bilan foydalana olishi; e) tarjima tili adabiy me'yorlari, tilning boy lug'at xazinasidan foydalanishi; f) tarjimada me'yoridan ortiq kalkalashtirish va so'zma-so'zliklardan qochishi; g) realiyalar tarjimasiga ehtiyotkorlik bilan yondoshishi; h) har qanday hollarda ham asliyatga sodiq bo'lib qolishi; i) tarjima nazariyasi va amaliyoti fanidan xabardor bo'lishi; k) tarjima tilidan asliyatga muqobil so'z tanlay bilishi, tarjimaning uslub kalitini topa bilishi talab qilinadi.

*Olm.: die Forderung zur Übersetzung. Ing.: The requirements for translation. Rus.: требования к переводу.*

**TARJIMANI RASMIYLASHTIRISH** – amalga oshirilgan tarjimani og'zaki yoki yozma ko'rinishda ifodalash.

*Olm.: die Erledigung der Übersetzung. Ing.: Translation registration. Rus.: оформление перевода.*

**TARJIMADA RELYATIV (QISMAN) TARIXIYLASHTIRISH** - asliyatda aks etgan tarixiy o'ziga xoslikni tarjimonning ma'noviy-uslubiy maqsadidan kelib chiqqan holda qisman tarixiylashtirish.

*Olm.: Teilweise Historisation der Uebersetzung. Ing.: partial historisation of translation. Rus.: частичная историзация перевода.*

**ZAMONAVIYLASHTIRISH** - asliyatda aks etgan tarixiy o'ziga xoslikni tarjimonning ma'noviy-uslubiy maqsadidan kelib chiqqan holda qisman zamonaviylashtirish.

*Olm.: Teilmodernisierung der Uebersetzung. Ing.: Partial modernization of translation. Rus.: частичная модернизация перевода.*

**TARJIMANING SEMANTIK-SEMIOTIK MODELI** – asliyat va tarjima tillarining lisoniy belgilari va strukturasiidagi nisbat muvofiqligi tipologiyasi tadqiqiga asoslangan Ya.I.Retsker nazariyasi, tarjimada asliyatning muayyan komponentlarigina saqlanishi mumkinligi haqidagi L.S.Barxudarovlar yaratgan semantik-semiotik model

*Olm.: die semantik-semiotische Model der Uebersetzung.*

*Ing.: the semantic-semiotic model of translation.*

*Rus.: семанτικο-семиотический модель перевода.*

**TARJIMANING SEMIOTIK ASPEKTI** - tarjima jarayonining belgisi xarakterga ega bo'lishi. Tarjima asliyat muallifi asariga nisbatan ikkilamchi xususiyatga egaligi bilan xarakterlanadigan belgi (A.Popovich ta'biricha, har qanday matnning yuqori va quyi ko'rinishi hisoblanadi. Agar muayyan bir asar metatekst yoki makrotekst bo'lsa, morfema mikrotekst deb ataladi) bo'ladi. Semiotik aspekt kommunikativ jarayonda asliyat va tarjima o'rtasida davriy, hududiy hamda madaniy-estetik tafovutlar natijasida kelib chiqadigan muammolarda qo'llaniladi.

*Olm.: die semiotische Aspekte der Uebersetzung. Ing.: the semiotic aspect of translation. Rus.: семиотический аспект перевода.*

**TARJIMA SIFATI** – amalga oshirilgan tarjimaning aniqligi, lo'ndaligi, tushunarligi va adabiylikiga ko'ra baholash ko'rsatgichi. Badiiy tarjimalar uchun asosiy ko'rsatgich badiiy ifoda va emotsionallik hisoblanadi.

*Olm.: die Qualität der Übersetzung. Ing.: quality of translation. Rus.: качество перевода.*

**TARJIMA SIMULYATSIYASI (SOXTALASHTIRISH)** - muallif kitobxonlarni ko'proq jalb qilish maqsadida o'zininr original asarini tarjima deb e'lon qiladi. Bunda muallif o'z asarining tarjimalari erishgan yutuqlardan foydalanadi. Tarjima nazariyotida bunday qalbaki tarjimalarni kvazimetatekst deb yuritiladi. Bunday holatlar ko'pincha muayyan adabiy jarayondagi kitobxonlarning adabiy savodxonlik darajalari ommaviy adabiyotni qabul qilishga moyilligi va tijorat maqsadlarining ustivorligi natijasida yuz beradi.

*Olm.: das Simulieren der Übersetzung. Ing.: Translation simulation. Rus.: симуляция перевода.*

**TARJIMA SOTSILOGIYASI** - ijtimoiy kontekstda tarjimaning kelib chiqishi, taraqqiyoti va vazifasini tadqiq qilish. Sotsiologiyani tarjimaning ijtimoiy kommunikatsiya jarayonidagi o'rni qiziqtiradi. Tarjimaning jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy vazifasi (nashriyotlar siyosati, madaniy muloqotlar va boshqalar) sotsiologiya fanining ham o'ziga xos tadqiqot ob'ekti qisoblanadi.

*Olm.: die Soziologie der Übersetzung. Ing.: sociology of translation. Rus.: социология перевода.*

**TARJIMAVIY TADQIQOT MUAMMOLARI** - tarjima tahliliga tortilgan tadqiqot ob'ekti va predmeti bilan bog'liq qiyinchiliklar nazarda tutiladi. Ularni quyidagicha differentsiatsiya qilinadi: 1) turli yozuvchilarning har xil asarlarini tarjima qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar. Masalan, Gyotening "Faust" asari bilan Anna Zegersning "Barqayot o'liklar" asarini tarjima qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar. Bunda roman tarjimasi tragediya tarjimasidan qiyin bo'lishi ham mumkin; 2) bir yozuvchining ayni bir asarini tarjima qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar. Masalan, "Boburnoma" asarini Kayzer, Klaprot, Shtammler tarjimalari bir-biridan farq qiladi; 3) bir yozuvchining bir necha asarlarini tarjima qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar. Masalan, Shillerning "Makr va muhabbat" tragediyasini o'girish bilan "Qaroqchilar" dramasini tarjima qilishning o'ziga xos muammolari bor; 4) turli janrlarga oid asarlarni tarjima qilish qiyinchiliklari. Masalan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonini olmon tiliga tarjima qilish bilan Odil Yoqubovning "Ulug'bek

xazinasini" romanini olmon tiliga o'g'irishning qiyinchiligi bir xil darajada bo'lmaydi; 5) bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, uchinchi tilga o'g'irishdagi qiyinchiliklardan farq qiladi.

*Olm.: die Probleme der Übersetzungsforschung. Ing.: Problems of translational research. Rus.: проблемы переводческого исследования.*

**TARJIMAVIY TAHLIL** – 1. Tarjima matnining asliyatga muqobilligini aniqlash maqsadida uni mazmun va shakl jihatdan turli qismlarga bo'lib o'rganish. 2. Tarjimashunoslikda qo'llaniladigan tadqiqot metodlaridan biri. 3. O'zga tildan yuborilgan axborotni qabul qilish, anglash va tushunish jarayoni.

*Olm.: die Übersetzungsanalyse. Ing.: the translational analysis. Rus.: переводческий анализ.*

**TARJIMANING TAKRORIYLIGI** - muayyan til va adabiyotda chet tilidan o'g'irilgan asar tarjimasi turli variantlarining bo'lishi. Tarjimaning takroriyliigi yoki qayta tarjimaning bo'lishi til taraqqiyoti, uslublarning yangilanishi, muayan davr adabiyotidagi yangi an'analar va qiziqishlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Original asarni qayta tarjima qilishga yangi avlodning kirib kelishi, uning ehtiyojlari sabab bo'lishi mumkin. Bu tarjima asarining adabiy-tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

*Olm.: die Rückfälligkeit der Übersetzung. Ing.: Frequency of translation. Rus.: повторность перевода.*

**TARJIMA TARIXI.** Har bir fanning o'z tarixi bo'lganidek, tarjimaning ham o'z tarixi mavjud. Tarjimashunoslik fani – tarjima tarixi, tarjima nazariyasi va tarjima tanqidiga bo'lib o'rganiladi. Shu ma'noda tarjima tarixi - tarjima kontseptsiyasi, tarjima metodi va taraqqiyoti tarixidir. U adabiy aloqalar va tarixiy stilistika bilan kesishib ketadi. Muayyan xalq adabiy tiliga o'g'irilgan va shu tildan xorijiy tillarga tarjima qilingan asarlar va boshqa tarjima matnlarining yaratilish tarixini ham ajratib qarash mumkin. Sobiq ittifoq davrida O'zbekistonda tarjima tarixi ikkiga: inqilobgacha va undan keyingi davrda yaratilgan tarjimalar tarixiga bo'linardi. Hozirda esa, quyidagi davrlashtirish tavsiya etiladi: 1) O'rta asrlar o'zbek mumtoz

adabiyotidan oktyabr to'ntarishiga qadar amalga oshirilgan tarjimalar; 2) Sho'rolar davri tarjima tarixi; 3) Mustaqillik davri tarjima tarixi.

G.Salomovning ta'kidlashicha, tarjima tarixi tadqiqi quruq sanalar va asarlar tarjimasining xronologik joylashuvidan emas, balki tariximizdagi har bir davr tarjimachiligida ro'y bergan eng muhim voqe'lik va o'zgarishlar, yangi an'analarning paydo bo'lishi va taraqqiyoti tarixidan iborat bo'lishi kerak

*Olm.: die Geschichte der Übersetzung. Ing.: Translation history.*

*Rus.: история перевода.*

**TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK** - ijodiy jarayon yoki san'at hisoblangan tarjimadan maxsus fan hisoblanmish tarjimashunoslikni bir-biridan farqlamoq kerak.

*Olm.: die Uebersetzung und Translationwissenschaft. Ing.: Translation and translation studies Rus.: перевод u perevodovedenie.*

**TARJIMADA TARIXIY DAVR TASVIRI** - bunda asliyat va tarjimaning aynan bir tarixiy (taqvimiy) paytda namoyon bo'la olmasligini ko'rsatuvchi qolat bilan belgilanadigan kommunikativ sharoitlardagi farqlar, tafovut nazarda tutiladi. Har ikkovining zamoni o'rtasidagi farq ikki vaziyat bilan ifodalanadi: 1) tarjimon o'z zamondoshining asarini o'giradi. 2) tarjimon o'ziga zamondosh bo'lmagan asar bilan ish ko'radi. U tarixiy davrni aks ettirgan muallif kabi o'tmishni faollashtiradi va uni zamondoshlariga etkazadi. Tarjimani qabul qiluvchi tomon qiziqish va ehtiyojlari, mavjud adabiyot qoida va me'yorlari talablari asosida amal qiladigan adabiyot uslubiy qurilishi. (Bu o'rinda o'zbek tarjimashunosligida muayyan davr tarixiy o'ziga xosligi yoki badiiy asarda aks etgan tarixiy kolorit tushunchalari ishlatiladi).

*Olm.: Historische Zeit in der Uebersetzung. Ing.: Historical time in the translation. Rus.: историческая время в переводе.*

**TARJIMADA TEMATIK AMALIYOT** - asliyat tarkibi yaxlitligini saqlash uchun tarjimada asliyatga monand keladigan o'xshash va analogik (o'rnini bosadigan boshqa vosita) lisoniy tasvir birliklarini qidirish. Asliyat va tarjima matni tilida o'zaro denotativ



identifikatsiya (muvofiqlashtirish)ni amalga oshirish, konnotativ elementlarning mosini topa bilish.

*Olm.: die Durchführung der thematischen Bearbeitung der Übersetzung.*

*Ing.: conduct of thematic refinement of translation.*

*Rus.: проведение тематической обработки перевода.*

**TARJIMADA KREOLIZATSIYA (KESISHUV) HODISASI** - asliyat tili sistemasidagi leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarning kalkulashtirish vositasida tarjima tiliga kirib kelishi bilan asliyat tili bilan tarjima tilining o'zaro kesishish nuqtalari.

*Olm.: die Kreolisation in der Uebersetzungssprache. Ing.: Creolization in the translation language. Rus.: креолизация в переводческом языке.*

**TARJIMA TIPLARI** – erkin, so'zma-so'z, harfma-harf, ekvivalentli, adekvat tarjimalar.

*Olm.: die Typen der Uebersetzung. Ing.: Types of translation. Rus.: типы перевода.*

**TARJIMADA TRANSFORMATSIYA QILISH** - tarjimada asliyat tili lug'ati, uslubini modifikatsiya qilish; transformatsiya natijasida tarjima matni asliyatga yaqinlashtiriladi.

*Olm.: die Transformation in der Uebersetzung. Ing.: Transformation in translation. Rus.: трансформация в переводе.*

**TARJIMA TURLARI** - tarjimaning amal qilishi va vazifasiga ko'ra tiplarga ajratilishi (ilmiy, badiiy, publitsistik va boshqalar).

*Olm.: die Arten der Übersetzung. Ing.: kinds of translation. Rus.: виды перевода.*

**TARJIMA TUZILISHI** – tarjima matni tarkibining muayyan tartibda joylashuvi.

*Olm.: die Struktur der Übersetzung. Ing.: structure of translation. Rus.: структура перевода.*

**TARJIMADA USLUB KALITI** - tarjimada munosib uslub kalitini topish asarning yozilish uslubi bilan g'oyasi hamda muallif dunyoqarashi o'rtasidagi bog'lanishni to'g'ri belgilash, marom, ohang, sintaktik tarz va timsollar silsilasiga xos xususiyatlarni to'g'ri tayin qila

bilishga bog'liq. Biror asarni tarjima qilishda maqbul uslub kaliti topilmas ekan, tarjima asl nusxaga teng qiymatlilik holatida bo'ladi.

*Olm.: der stilistische Schlüssel der Übersetzung. Ing.: Stylistic key of translation Rus.: стилистический ключ перевода.*

**TARJIMADA USLUBIY KALKALASH** - aslyatdagi tayyor uslubiy qurilma va metodlarni tarjima matniga ko'chirib o'tkazish. Bunday ko'chirish makro va mikromatn darajasida amalga oshirilishi mumkin.

*Olm.: der stilistische Schlüssel der Übersetzung. Ing Stylistic calque in translation. Rus.: стилистическая калькирования в переводе.*

**TARJIMADA USLUBIY YO'QOTISHLAR** - adabiyotlararo muloqot jarayonida tarjima matnida uslubiy g'alizliklarga yo'l qo'yilishi natijasida aslyat matni uslubiy o'ziga xosligiga putur etishi.

*Olm.: stilistische Durchpausen in der Übersetzung. Ing.: Stylistic loss in translation. Rus.: стилистическая потеря в переводе.*

**TARJIMA USULI** – original yoki boshqa bir aslyat tilidan tarjima tilga o'g'irishda qo'llaniladigan tarjimaviy usullardan biri.

*Olm.: die Übersetzungsaufnahme. Ing.: Translational reception. Rus.: переводческий приём.*

**TARJIMA TANQIDI** - tarjima jarayonini kuzatib, chop etiladigan asarlarni baholab beradi, tarjimalar sifatining yaxshilanishiga ko'maklashadi. Tarjima tanqidi tarjimachilik ishining amaliy va tashkiliy masalalarini ko'tarib chiqadi, adabiy tanqid bilan hamkorlikda rivojlanadi. Bunda uch xil baholash sodir bo'ladi: tarjima sifatiga o'quvchilarning munosabati; tarjima matnida aslyatning g'oyaviy-estetik xususiyatlari tarjima matnida qay darajada aks ettirilganligi; qabul qiluvchi adabiyot kontekstida aslyatning g'oyaviy-estetik ahamiyati.

*Olm.: die Uebersetzungskritik. Ing.: translational criticism. Rus.: переводческая критика.*

**TARJIMA TAHLILI** - tarjimani aslyat bilan qiyosiy tahlil qilish va uning adekvatligini aniqlash.

*Olm.: die Uebersetzungsanalyse. Ing.: translational analysis.*

*Rus.: переводческий анализ.*

**TARJIMA TADQIQI YO'NALISHLARI:** 1) sohalar va janrlar bo'yicha - aniq va gumanitar fanlarga doir kitoblar tarjimasi; tarjima va luqatshunoslik (ikki va ko'p tilli luqatlar tuzish tajribasi); 2) til printsiplari bo'yicha (inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha, olmoncha-o'zbekcha, o'zbekcha-olmoncha, arabcha-o'zbekcha, o'zbekcha-arabcha, forsha o'zbekcha, o'zbekcha-forsha, ruscha-o'zbekcha-o'zbekcha-ruscha va qakazo tarjimalar); bilingvizm va tarjima; 3) tarixiy an'analar va mahalliy sharoitga oid tipik belgilar bo'yicha (Xorazm tarjima maktabi, Toshkent tarjima maktabi, Leyptsig tarjima maktabi, Sankt - Peterburg tarjima maktabi va hakazo); 4) davrlar bo'yicha (XI-XII asrlar tarjima tarixi, XV asr tarjima tarixi, XIX asr tarjima tarixi, XX asr tarjima tarixi, mustaqillik yillari tarjima tarixi);

*Olm.: die Uebersetzungsanalyse. Ing: directions of translational analyses. Rus.: направления переводческих исследований.*

**TARJIMA VARIANTLARI** - 1) Asliyatdagi bir til birligining turli tarjima variantlari; 2) Bir asarning bir necha tarjimalari yoki asliyatning bir necha tarjima variantlari.

*Olm.: die Uebersetzungsanalyse. Ing: variants of translation.*

*Rus.: переводческие варианты;*

**TARJIMA O'QITISH METODIKASI** – tarjimashunoslikni amaliy o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan turli o'qitish metodlari majmuasi.

*Olm.: die Übersetzungsmethoden der Ausbildung. Ing: Translational methods of teaching. Rus.: переводческие методы обучения.*

**TARJIMADA QAYTA KODLASHTIRISH** – bir tildagi matnni ikkinchi bir tilga tarjima qilish.

*Olm.: die Umkodierung in der Übersetzung. Ing: recoding in translation. Rus.: перекодирование в переводе.*

**TARJIMADA QAYTA HIKOYA QILISH** - asliyatdagi matn mazmunini tarjima tiliga qayta ifodalab berish.

*Olm.: die Nacherzählung in der Übersetzung. Ing: retelling in the translation. Rus.: пересказ в переводе.*

**TARJIMADA QAYTA JOYLASHTIRISH** - 1. Asliyatdagi lisoniy birliklar tartibini tarjima tili qonuniyatlari bo'yicha qayta tartibga keltirish. 2. Tarjimada ikki tilning leksik-semantik xususiyatlaridagi farqlardan kelib chiqqan holda grammatik transformatsiyani amalga oshirish.

*Olm.: die Umstellung in der Übersetzung. Ing: Shift in translation. Rus.: перестановка в переводе.*

**TARJIMA QUSURLARI.** Tarjimashunoslikda tarjima qusurlariga quyidagilar kiradi:

- asar uslubini tushunmaslik, o'z tilidan unga muvofiq ifoda tarzini topa olmaslik (buni uslubiy befarqlik yoki uslubiy o'jizlik illati deb ta'riflash mumkin);

- tarjimonda hayotiy tajribaning yetishmasligidan kelib chiqadigan nuqsonlar (masalan, tarjimon kitobda tasvirlangan xo'jalik sohasi, ishlab chiqarish, xalq yoki mamlakat qayotini bilmasligi mumkin);

- tarjimonning badiiy ijodga layoqatsizligi, tilni bilgani bilan, uni his qila olmasligidan kelib chiqayotgan illat;

- asl nusxada tasvirlangan xalq hayotining milliy o'ziga xos tomonlarini durust aks ettira olmaslik;

- tarjimada so'z tanlashda, so'z qo'llashda yuz beradigan xato-kamchiliklar va hokazo.

*Olm.: Die Übersetzungsmängel. Ing: Translational shortcomings. Rus.: переводческие недочетки.*

**TARJIMA O'QUVCHISI** - qabul qiluvchi adabiy kommunikatsiya ishtirokchisi, tarjima asari kitobxon.

*Olm.: der Leser der Übersetzung. Ing: reader of translation. Rus.: читатель перевода.*

**TARJIMAVIY USULLAR** – asliyatni qayta yaratish jarayonida mutarjim tomonidan qo'llaniladigan turli xil tarjima qilish yo'llari. Tarjimaviy usullarni tarjima usuli terminidan kengrog ma'noda qo'llanilishiga ahamiyat berish lozim. Tarjimaviy usullarga so'zma-so'z

tarjama, asliyatni aniqlashtirish, konkretlashtirish, soddalashtirish, adaptatsiya, kalkalash, muqobil variantlardan foydalanish kabilarni kiritish mumkin. Tarjima jarayonida mazkur tarjima usullaridan o'rniga qarab foydalana bilish tarjimondan katta mahorat talab qiladi.

*Olm.: Uebersetzungsverfahren. Ing.: modes of translation . Rus.: переводческие способы.*

**TARJIMON** – 1. Bir tildagi matni yoki og'zaki nutqni boshqa til vositalari bilan qayta yaratuvchi mutaxassis. 2. Ikki tilaro kommunikativ muloqotni axborot yuboruvchidan qabul qilib boshqa tilda ifodalovchi shaxs. 3. Tilmoch, og'zaki tarjimani amalga oshiruvchi shaxs.

*Olm.: der Übersetzer, der Dolmetscher. Ing: translator, interpreter. Rus.: переводчик.*

**TARJIMONNING ADABIY MA'LUMOTLILIGI** - tarjimonning original asar to'g'risidagi ma'lumotlari. Bunga qabul qiluvchi adabiyot haqidagi axborotlar ham kiradi. Mazkur ma'lumotlarga: - asliyatda aks ettirilgan voqe'lik to'g'risidagi axborot, tarjima asarining adabiy jarayondagi o'rnini, original asar muallifi, tarjima o'quvchisi qiziqish va ehtiyojlari, tarjimonning chet el va vatan adabiyotiga munosabati haqidagi qarashlar ham kiritiladi.

*Olm.: Literatur Bildung des Übersetzters. Ing: Literary erudition of the translator. Rus.: литературная образованность переводчика.*

**TARJIMON DASTURI** - tarjima uchun matn tanlash. Tarjimonning bu boradagi dasturi mavjud ijtimoiy-madaniy jarayon, tarjimaga bo'lgan ehtiyoj, kitobxonlarning adabiy savodxonlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Tarjimon dasturi mavjud me'yorlardan orqada qolishi yoki ilgarilab ketgan bo'lishi ham mumkin. Bu uning mavjud jarayonga individual yondoshuvidan ham kelib chiqadi.

*Olm.: das Programm des Übersetzters. Ing: The program of the translator. Rus.: программа переводчика.*

**TARJIMON INTUITSIYASI** - tarjimonning tarjima jarayonida asliyatga mos lisoniy-uslubiy vositalarni oldindan topa bilish qobiliyati.

*Olm.: die Intuition des Übersetzters. Ing: Intuition of the translator. Rus.: интуиция переводчика.*

**TARJIMONLAR JAMOASI** - hammuallif tarjimonlardir. Bir asarni tarjima qilish maqsadida o'zaro hammualliflik qilgan bir necha tarjimonlardan iborat jamoa. Bunday jamoa asosan yirik asarlar, ko'p tomli romanlar tarjimasida tashkil qilinadi.

*Olm.: der Kollektiv der Uebersetzer. Ing: Collective of translators. Rus.: коллектив переводчиков.*

**TARJIMONNING LISONIY MAVQE`YI** - tarjimonning asliyat mohiyatini o'rganish maqsadida amalga oshiradigan analitik tahlili. Bunda asliyat matni adabiyotlararo jarayon ishtirokchisi bo'lgan matn xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. Asliyatni qayta yaratish bilan bog'liq amaliyotlar ana shu tahlil natijasida yuzaga chiqadi.

*Olm.: die sprachwissenschaftliche Position der Übersetzer. Ing: Linguistic position of translators. Rus.: лингвистическая позиция переводчика.*

**TARJIMON VAZIFALARI** – I. Tarjima qilinadigan matn mazmunini to'g'ri tushunish va mazkur mazmunni asliyatga aniq va muqobil ravishda o'zga til vositalari bilan tarjima qilish.

*Olm.: die Aufgaben des Übersetzers. Ing: objectives of the translator. Rus.: задачи переводчика.*

**TARJIMONNING AXBOROT KO'MAKCHILARI** - I. Umimiy lug'atlar. 1. Ikkitilli lug'atlar (so'zliklar) va ikki tilli frazeologik lug'atlar. 2. Birtilli lug'atlar: a) bir tilining izohli lug'atlari; b) bir tilli sinonimik, omonimik va antonimik lug'atlar; ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar. II. Umumiy ensiklopediyalar. Bulardan barcha tarjimonlar foydalanadilar.

*Olm.: der informative Helfer des Übersetzers. Ing: the informational assistants of the translator. Rus.: информационный помощник переводчика.*

**TARJIMONNING SOXTA DO'STLARI** – I. Chet tilidagiga o'zining tovush ohangi va grafik ifodasi bilan to'la yoki qisman mos keladigan, ammo, mazmuni boshqacha ma'no anglatadigan so'z yoki so'z birikmasi. 2. Ikki tildagi shaklan bir-biriga mos kelsdigan, ammo mazmuni o'xshamaydigan leksik birliklar. Qarang: *soxta do'stlar*.

*Olm.: die falschen Freunde des Übersetzers. Ing: False friends of the translator. Rus.: ложные друзья переводчика.*

**TARJIMONLAR JUFTLIGI** - asliyat muallifi asari va uning tilini biladigan mutaxassislarning hammualliflikda ishlashi.

*Olm.: Übersetzungspaare. Ing: Translational pair. Rus.: переводческие пары.*

**TARJIMONNING G'OYAVIY MAVQE'I** - tarjimonning original asar g'oyaviy-estetik o'ziga xosliklariga bo'lgan munosabati, asliyat muallifining ijtimoiy o'rni va adabiy faolligiga baho berishi.

*Olm.: die Ideenlage des Übersetzers. Ing: ideological Position of the translator. Rus.: Идейное положение переводчика.*

**TARJIMON USLUBIY MAVQE'I** - tarjimonning individual uslubni aniqlash asosida muayyan adabiyotda qukm surib turgan adabiy an'ana va adabiy kontseptsiya moqiyatiga munosabat bildirishi. Slovak olimi Baltsejana uslubiy moslashtirishning uchta bosqichini ko'rsatadi: a) nolga teng bo'lgan - tarjimada uslubiy moslashtirish bo'lmaydi; b) ortiqcha axborotli - tarjimada uslubga xos faqat miqdoriy jihatlar aks etadi; c) tarjimada yangi uslubning yaratilishi.

*Olm.: die stilistische Lage des Übersetzers. Ing: stylistic Position of the translator. Rus.: Стилистическое положение переводчика.*

**TARJIMONLARNING QAROR QABUL QILISH JARAYONI** - tarjimonlik faoliyatida u yoki bu uslubiy o'ziga xosliklarni afzal ko'rish yoki ko'rmaslikni tanlash imkoniyati. Bu jarayon tarjimonning uslub borasida to'plagan tajribasidan kelib chiqadi. Asliyatga mos uslubiy vositalar tanlash avvalo asliyat matni xususiyatlariga, qolaversa, tarjimonning uslubiy kalit topa bilish qobiliyatiga va majud kommunikativ jarayonga bog'liq bo'ladi.

*Olm.: der Prozess die Annahme die Lösung des Übersetzers.*

*Ing: Process acceptance the decision of the translator.*

*Rus.: процесс принятия переводчиком решения*

**TARJIMON POETIKASI** - adabiy me'yorlar va amall qilayotgan tarjima metodlari asnosida tarjimonning asliyatni qayta yaratish uchun tarjima tilida adekvat tasvir vositalari topish mahorati. Bu hodisaning asosiy omillari sifatida tarjimonning individual uslubi bilan bog'liq siljish namoyon bo'ladi. G'arb tarjimashunosligida *tarjimon poetikasi*, O'zbekistonda esa *tarjimon mahorati* termini ishlatiladi. Bu borada bir qator nomzodlik dissertatsiyalari (Ogahiy, Lev Pen'kovskiy, Abdulla Qahhor) himoya qilingan. Umiman, tarjimashunoslik bo'yiucha

olib boriladigan har qanday tadqiqot oxir-oqibat tarjimon mahoratiga borib raqaladi.

*Olm.: die Meisterschaft des Übersetzers. Ing: mastery of the translator. Rus.: мастерство переводчика.*

**TARJIMONNING USLUBIY MAHORATI** - original asarni tarjima qilish uchun tarjimonning tayyorgarlik darajasi, adabiy savodxonligi, lisoniy-uslubiy vositalardan foydalanish malakalarini egallaganligi, asliyat ruhini tarjimada bera olish qobiliyati.

*Olm.: die stilistische Meisterschaft des Übersetzers. Ing: stylistic Skills of the translator. Rus.: стилистическое мастерство переводчика.*

**TARJIMASHUNOSLIK** – tarjima tarixi, nazariyasi, tanqidi va uning umumiy qinuniyatlarini oʻrganuvchi mustaqil fan.

*Olm.: der Translationwissenschaft. Ing: translation studies Rus.: переводоведение.*

#### **TARJIMASHUNOSLIK FANLARI TASNIFI.**

- tarjima tarixi; tarjima nazariyasi; tarjima tanqidi; sinxron tarjima.

*Olm.: die Klassifikation der Translatologische Wissenschaften.*

*Ing: classification of translation studies*

*Rus.: классификация переводоведческих наук.*

**TARJIMAVIY QIYOSDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR** - tarjima tahliliga bag'ishlangan bir qancha ishlarda qiyos masalasida ikki xil xatoga yo'l qo'yiladi:

1) biron xorijiy yoki rus tilida yozilgan kitobning o'zbekcha tarjimasini o'rganishda ikki tomonlama (agar asl nusxa xorijiy tilda yozilgan bo'lsa, zarurat tug'ilgan chog'da - uch tomonlama) qiyos joiz bo'lsada, ba'zan o'sha asarning qozoq, qirg'iz, turkman, tatar tillaridagi tarjimalari bilan ham chog'ishtiriladi. Chog'ishtirish miqyosining kengayishi, umuman olganda, ijobiy hol. Ammo bunday qiyos bemaqsad bo'lmasagina tegishli ilmiy xulosalarga olib kelishi mumkin.

2) tadqiqotchilar biron chet el adabiyoti asarining o'zbek tiliga qilingan tarjimasini, aytaylik, asl inglizcha, olmoncha, frantsuzcha nusxasi bilan chog'ishtirib, aniqlangan barcha "nomuvofiqliklar" uchun tarjimonni koyiy boshlaydilar. Afsuski, fakt va dalillar, ko'pincha, umumiy kontekstdan yulib olib tahlil qilinadi. Garchi umumiy



mazmundan ajratib olib qaraganda xato ekanligi, chindan ham, yaqqol ko`rinib tursada, lekin kontekst ichida, o`sha so`z va iboraning to`g`ri, joiz ekanligi ma`lum bo`ladi. Yomoni shundaki, bunda holatlarda ko`pincha fazilatlar nuqsonga yo`yib qo`yiladi.

*Olm.: die gemachten Fehler infolge der vergleichenden Analyse der Übersetzung.*

*Ing: consequent errors of comparative analysis of translation*

*Rus.: сделанные ошибки в результате сравнительного анализа перевода.*

**TARJIMACHILIK FAOLIYATI** – bir tildan ikkinchi bir tilga muayyan shaxs yoki muallaiflar jamoasi tomonidan muntazam ravishda tarjima qilib borish amaliyoti.

*Olm.: der Translationsfaehigkeit. Ing: Translational activity.*

*Rus.: переводческая деятельность.*

**TAVSIFIY TARJIMA** – asliyatni qayta yaratishga erkin yondoshilgan tarjima.

*Olm.: die umschreibende Übersetzung. Ing: Descriptive translation. Rus.: описательный перевод.*

**TAXALLUS QO`YISH YO`LI** - muallifning o`z asarini boshqaning nomi bilan atashga qaratilgan harakati. Tarjimada bunday holatlarga nisbatan fiktiv (qalbaki) muallifi tarjimon, deb ham yuritiladi.

*Olm.: die Weise das Einstellen des Pseudonymes. Ing: way of insertion of pseudonym. Rus.: способ вставление псевдонима.*

**TERMIN** – 1. Maxsus sohalar (ilmiy, texnik, ijtimoiy va madaniy soha) larga oid tushunchlarni aniq ifodalash uchun qo`llaniladigan so`z yoki so`z birikmalari. 2. Faqat bitta semantik ma`noni ifodalaydigan maxsus sohaga oid bo`lgan so`z yoki so`z birikmasi.

*Olm.: das Terminus. Ing: term. Rus.: термин.*

**TERMINLAR TARJIMASI.** Terminlar tarjimasida quyidagilar tavsiya qilinadi:

- Tarjimada asliyatdagi so`z anglatgan ma`noni aniq tarjima qilish.
- Tarjimonning asliyatdagi termin anglatadigan ma`nosini yaxshi bilishi va unga muvofiq tarjima muqobilini topa bilishi.

- Tarjimada sinonim va muqobil variantlardan foydalanish faqatgina asliyatdagi terminga aynan muqobil bo'lmagan taqdirdagina mumkin.

- Terminlar tarjimasining murakkabligi ularning asosan birgina ma'noni anglatishidir. Ko'p ma'nolilik jua da kam hodisa.

Terminlarni tushunish qiyinchiliklariga ko'ra quyidagilarni bilish tavsiya etiladi:

1. Xorijiy voqe'likni ifoda etadigan terminlar. (Bunday terminlar baynalminal bo'laganligi uchun ularni tushunish unchalik qiyin emas);

2. Tarjima tilidagi voqe'likda bo'lmagan termin-realiyalar. Bunday terminlar tarjimasida: a) izoh va tushuntirishlar beriladi; b) so'zma-so'z tarjima qilinadi; c) qisman yoki yaxlit translitaratsiyalanadi; d) transliteratsiya va so'zma-so'z tarjima usullaridan foydalaniladi. Bunday terminlar tarjimasida termin-realiyalarning asliyat, xorijiy voqe'lik kontekstida anglatadigan ma'nosiga ahamiyat berib, uni mahalliyashtirishdan qochish lozim.

3. Terminning aynan qaysi sohaga mansubligini to'g'ri anglash kerak.

4. Terminlarni ko'plik shaklining yasalishi va uning tarjimadagi ifodasini ham e'tibordan qichirmaslik muhimdir.

*Olm.: die Uebersetzung des Terminus. Ing: translation of terms.*

*Rus.: перевод терминов.*

**TERMINOLOGIYA** - 1. Muayyan sohaga oid terminlar majmuasi. 2. Terminlarni tadqiq qiluvchi tilshunoslik sohasi.

*Olm.: die Terminologie. Ing: terminology. Rus.: терминология.*

**TESKARI TARJIMA** - bir tildan ikkinchisiga qilingan tarjimani yana asliyat tiliga qayta ag'darish. Bunday tarjima ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda tajriba tariqasida ishlatiladi.

*Olm.: die Rückübersetzung. Ing: back translation. Rus.: обратный перевод.*

**TEXNIK TARJIMA** - 1. Ilmiy-texnikaga oid matnlar tarjimasini. 2. Texnik mavzudagi matnlar tarjimasini bilan shug'ullanuvchi tarjimashunoslikning maxsus sohasi.

*Olm.: die technische Uebersetzung. Ing: technical translation. Rus.: технический перевод.*

**TILLARARO TARJIMA** - bir tabiiy tildan ikkinchisiga amalga oshirilgan tarjima.

*Olm.: die intersprachliche Übersetzung. Ing: Interlanguage translation. Rus.: межязыковой перевод.*

**TILMOCH** - og'zaki tarjimoni amalga oshiruvchi shaxs. 1. Tilmochlar odatda milliy va xalqaro tashkilotlarda davlat tashkiloti vakili yoki mustaqil tarjimon sifatida (to'la, o'rindoshlik, qisman shartnoma asosida) xizmat qiladilar. 2. Tilmochlar faoliyati ko'plab mamlakatlarning milliy va xalqaro tashkilotlari tomonidan tartibga solinadi. Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *tarjimonlik*.

*Olm.: der Dolmetscher. Ing: Interpreter. Rus.: устный переводчик, долмач.*

**TIL BILISH.** Tarjimonning asliyat mazmunini tushunishi va boshqa tilda qayta yaratishi uchun har ikki tilni aktiv yoki passiv egallaganlik darajasi. Bunga yana quyidagi jihatlar kiradi: tillarni kontrastiv (bir-biridan keskin farq qiladigan tomonlarini bilish) egallaganlik qobiliyati, tilni tarjima amaloyotida qo'llay bilish, yozma nutq malakalariga (yozish texnikasini bilish) ega bo'lish, Shuningdek, matn interpretatsiyasi va matnni tahrir qila olish malakalari.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *tarjima, tarjima jarayoni*.

*Olm.: die Sprachbeherrschung. Ing.: knowledge of language. Rus.: владение языком.*

**TILNI QO'LLAY BILISH.** Muayyan davr va sharoitda biror bir tilda so'zlashuvchilarning ko'pchiligi qo'llaydigan til qoidalari majmuyi.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *me'yor, tahririy ko'rsatmalar*.

*Olm.: Sprachgebrauch. Ing.: ability to use language*

*Rus.: умение применять язык.*

**TILNI HIS QILISH.** Tarjimonning tilni juda tez ravishda *intuitiv (ichki sezgi bilan)* tushuna olish qobiliyati.

*Olm.: die Sprachgefuehl. Ing.: feeling language. Rus.: языковые чувства.*

**TRANSKRIPTSIYA** – 1. Asliyat tilidagi so'zni tarjima tili tovushlari vositasida aniq aks ettirishga asoslangan tarjima usuli. 2.

O'zga til matnidagi so'zlarni tarjima tili alifbosidagi harflar talaffuz qoidalari asosida ifodalash. 3. Fonetik printsipga asoslangan tovush vositasida tarjima qilish usullaridan biri.

*Olm.: die Transkription. Ing.: transcription. Rus.: транскрипция.*

**TRANSLITERATSIYA** - 1. Cet tilidagi so'zning grafik obrazini tarjima tilidagi harflar vositasida o'g'irishga asoslangan tarjima usuli. 2. Bir alifbo sistemasidagi so'z yoki matnni (AT) ikkinchi til alifbosi sistemasi (TT) bilan almashtirish. 3. Chet tilidagi so'zni ona tili alifbosi qoidalari vositasida o'g'irish. Tarjima matnini fuqarolashtirish.

*Olm.: die Transliteration. Ing.: transliteration. Rus.: транслитерация.*

**TRANSPOZITSIYA** - 1. Asliyatdagi lisoniy birlikning mazmunini saqlagan holda uning shaklini o'zgartirgan holda tarjima qilish. 2. Bir janrdagi matnni boshqa janr bilan tarjima qilish. Jumladan, she'riy matnning nasriy bayoni.

*Olm.: die Transposition. Ing.: transposition. Rus.: транспозиция.*

**TUSHUNCHA** - 1. Predmet yoki voqe'likning muayyan tur yoki xilga mansubligini mantiqiy anglash. 2. Biror narsa yoki hodisa haqida tasavvurga ega bo'lish. 3. Konkret yoki abstrakt holda bo'lgan voqe'lik yohud muayyan predmet xususiyatlarini ifodalaydigan fikriy birlik. Tushuncha biror bir so'z, atama yoki belgi bilan ifodalanishi mumkin.

*Olm.: Begriff. Ing.: concept. Rus.: понятие.*

**TUSHUNTIRUVCHI TARJIMA** - tarjimada asliyatga mos so'z o'miga ko'proq uning anglatadigan ma'nosini tushuntirishga asoslangan tarjima.

*Olm.: die erklärende Übersetzung. Ing.: Explanatory translation. Rus.: пояснительный перевод.*

**TO'LAQONLI BO'LMAGAN INTERPRETATSIYA (TALQIN)** - tarjimada asliyatning faqat ayrim jihatlarinigina adekvat aks ettirib, qolgan qismiga e'tiborsizlik bilan qarash. Ayniqsa, uning ekstralingvistik jihatlarini nazardan chetda qoldirish.

*Olm.: die minderwertige Interpretation. Ing.: Defective interpretation. Rus.: неполноценная интерпретация.*

**TO'LAQONLI TARJIMA** – asliyatga adabiy-uslubiy va lisoniy-ma'noviy jihatdan to'la muqobil bo'lgan tarjima. Biroq har qanday tarjima asliyatni ideal darajada muqobil aks ettira olmaydi. Boshqacha aytganda asliyatning har bir tarjimasi uni to'laqonli o'g'irish uchun qo'yilgan qadamdir.

*Olm.: die vollwertige Uebersetzung. Ing.: accurate translation.*

*Rus.: полноценный перевод.*

**TO'LIQ TARJIMA** – asliyat matni hajmini, mazmuni va shaklini to'liq aks ettirgan tarjima. To'liq tarjima to'laqonli bo'lmasligi mumkin. Chunki unda asliyatni to'liq hajmda aks ettirish maqsad qilinadi.

*Olm.: die volle Übersetzung. Ing.: Full translation. Rus.: полный*

*перевод.*

## ~ U ~

**UNIVERSAL TARJIMA** - tarjima jarayoni xarakteri va tarjima turlari va usullari to'g'risidagi umumiy tushunchalar(maxsus, og'zaki, yozma va hokazo tarjimalar). Tarjimaning umumiy xususiyatlari sa tarjima haqidaqi fanning asosiy ob'ekti hisoblanadi (A.Lyudskanov).

*Olm.: die universelle Übersetzung. Ing.: Universal translation.*

*Rus.: универсальный перевод.*

**USLUBIY KALIT** - asliyat va tarjima matnining stilistik kod (kalit)i. Uning asosini matnning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va badiiy matn strukturasi yaxlitligini ta'minlash uchun qo'llaniladigan tasviriy vositalar sistemasi tashkil qiladi.

*Olm.: der stilistische Schlüssel. Ing.: Stylistic key. Rus.:*

*стилистический ключ.*

## ~ V ~

**VOSITACHI TIL** – 1.Turli xalqlar o'rtasidagi muloqotlarda faol ishlatiladigan millatlararo til. 2. Original asarni uchinchi bir tilga o'g'irishda vositachilik qiladigan til. Sobiq ittifoq davrida bu vazifani rus tili o'ynagan. G'arbiy Evropa tarjimachiligi tarixida turli davrlarda fransuz, olmon va ingliz tillari vositachi til bo'lganlar.

*Olm.: die Sprache der Vermittler. Ing.: intermediary language. Rus.: язык-посредник.*

~ X ~

**XOS SO`ZLAR** – xalq tilidagi narsa, tushunchalar, voqea-hodisa, geografik muhitga xarakterli, madaniyat, moddiy va maishiy turmush yoki xalqlar, millatlar, yurt, qabilalarning ijtimoiy-tarixiy xususiyatlarini bildiradigan so`z va so`z birikmalari *realiya* yoki *xos so`zlar* deyiladi.

Qarang: *Realiya*.

*Olm.: die Realien. Ing.: realia. Rus.: реалий.*

~ Y ~

**YANGLISH MA'NO (TARJIMADAGI G'ALIZLIK).** Matn kontekstidagi ma'noni noto'g'ri talqin qilish natijasida kelib chiqadigan tarjimaviy g'alizlik. Yanglish ma'no haqida gapirganda avvalo leksik darajadagi g'alizlikka yo'l qo'yilganlik tushuniladi. Shuning uchun u butun matnga nisbatan q'llanilmasligi kerak. G'alizlik leksik birliklar ma'nosini yanglish o'g'irishga nisbatan qo'llanilsa, xato matnni noto'g'ri tarjima qilish ma'nosida ishlatiladi.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *tarjimonning soxta do'stlari, interferentsiya, duch kelgan so'z*.

*Olm.: falsche Bedeutung. Ing.: incorrect meaning. Rus.: неправильное значения.*

**YASHIRINLASHTIRILGAN TARJIMA** - asliyatning ayrim jihatlarini yashirilgan, tarjima qilinmagan tarjima. Bunday tarjima qabul qiluvchi adabiyot uchun muhim bo'lgan jihatlarinigina saqlab qolishni maqsad qiladi. Qolgan jihatlar esa yashirin holda qolaveradi. O'rta asarlarda nasroniy dinga e'tiqod qiluvchi yoki buddaviylikka asoslangan adabiyotlar namunalarini musulmon xalqlari tillariga o'g'irish juda murakkab bo'lib, asliyatning ko'p tomonlarini yashirin holatda qoldirish lozim bo'lgan. Hindlarning "Kalila va Dimna" kitobining forscha tarjimalari tarixida shunday holatlar uchraydi. Tarjimashunoslar A.Popovich va A.Toperlar buni *скрытый перевод* termini bilan ishlatadilar.

*Olm.: die verborgene Übersetzung. Ing.: the latent translation. Rus.: скрытый перевод.*

**YASHIRIN MA`NOLI ALOQA** - asliyat matni tarjimada qabul qiluvchi tomonning talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib me`yoridan ortiq darajada idiomalashtirib yuboriladi.

*Olm.: die Verbindung mit der verborgenen Bedeutung. Ing.: Communication with the latent meaning Rus.: связь с скрытым значением.*

**YOZILGAN VARAQDAN TARJIMA** – yozma nutqning og`zaki tarjimasi bo`lib, u asliyat tilini bilmaydigan muayyan auditoriya tinglovchilariga mo`ljallangan bo`ladi.

*Olm.: die Übersetzung vom Blatt. Ing.: Translation at sight. Rus.: перевод с листа.*

**YOZMA NUTQ** – 1. Yozma shakldagi nutq. 2. Muayyan tilning adabiy me`yorlari bilan amalga oshirilgan nutqning uslubiy xilma-xilligi.

*Olm.: die schriftliche Rede. Ing.: Written speech. Rus.: письменная речь.*

**YOZMA TARJIMA** - 1. Bir tildagi matnni ikkinchi bir tilda yozma shaklda amalga oshirilgan tarjima. 2. Xotira hajmi chegaralanmagan yozma shakldagi tarjima.

*Olm.: die schriftliche Übersetzung. Ing.: Written translation. Rus.: письменный перевод.*

**YOZMA NUTQNING YOZMA TARJIMASI** – bir tildagi yozma matndan ikkinchi bir tilga ham yozma shaklda amalga oshirilgan tarjima.

*Olm.: die schriftlich- schriftliche Übersetzung. Ing.: Written-written translation. Rus.: письменно-письменный перевод.*

**YOZMA NUTQNING OG`ZAKI TARJIMASI** - bir tildagi yozma matndan ikkinchi bir tilga og`zaki shaklda amalga oshirilgan tarjima.

*Olm.: die schriftlich- mündliche Übersetzung. Ing.: Written-oral translation. Rus.: письменно-устный перевод.*

**YUBORUVCHI.** Bir tildagi vositalarni matnda yoki o`g`zaki ifodalab, boshqalarga yuboruvchi shaxs. Matn yuboruvchining o`z nutqi

(muallif nutqi), yuboruvchi o'zgarar nutqini asli holida (iqtibos bilan) yoki o'zlashtirma shakldagi nutqni uzatishi ham mumkin.

*Sin.: autor, muallif.*

*Olm.: der Sender. Ing.: sender. Rus.: отправитель.*

## ~ O' ~

**O'ZLASHMA SO'Z** – bir tilga xorijiy tillardan kirib kelgan so'z.

Masalan: 1. *U vague ko'zoynagi tutardi.* 2. *Bizda know-howlar anchagina.*

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *anglizizm, interferensiya.*

*Olm.: Entlehnung. Ing.: borrowing. Rus.: заимствование.*

**O'ZLASHTIRISH** – bir til lug'atiga boshqa tildan so'z kirib kelishi.

*Olm.: Entlehen. Ing.: loan. Rus.: заимствование.*

**O'QIB BERIB TARJIMA QILISH** – 1. Tarjima ta'limida qo'llaniladigan usullardan bo'lib, unda o'qituvchi asliyat matnini chet tilda o'qiydi va talabalar uni ona tilida talqin qiladilar. 2. Asliyat tilidagi yozma matnni chet tilida o'qib berish paytining o'zida og'zaki yo'sinda sinxron tarjima qilish.

Qarang: *diktant-tarjima.*

*Olm.: die Simultanübersetzung nach die Lektüre des Originals.*

*Ing.: Simultaneous interpretation following the original reading.*

*Rus.: синхронный перевод после чтения оригинала.*

**O'TMISHDA YARATILGAN ASARLARNI QOZIRGI DAVR TILLARIGA TARJIMA QILISH** - slovak olimi Anton Popovich tarjimadagi tarixiy o'ziga xoslikni tipologik jihatdan tadqiq qilar ekan, unda quyidagi farq ko'zga tashlanishini aytadi:

1. Tarjimon o'z zamondoshi yaratgan asarni tarjima qiladi. Bunda sinxron (bir vaqtning o'zida) tarjima hosil bo'ladi. Asliyatdagi tarixiy davr (ATD) = Tarjimadagi tarixiy davr (TTR);

2. Tarjimon o'ziga zamondosh bo'lmagan muallif asariga murojaat qiladi. Demak, bunday asar tarixiy asar hisoblanadi. Odatga ko'ra tarjimon ana shunday asardagi tarixiylikni aktuallashtiradi va o'z zamondoshiga tushunarli qilishga intiladi. Bunda "*историзация*"



(tarixiylashtirish) yoki "модернизация" (zamonaviylashtirish) deb ataluvchi tamoyillar qo'llanadi. Demak, ATD va TTR bir-biriga teng bo'lmaydi.

*Olm.: die Übersetzung des Werk sich verhaltend zur historischen Vergangenheit.*

*Ing.: Translation of works concerning the historical past.*

*Rus.: перевод произведения относящийся к историческому прошлому.*

## ~ Sh ~

**SHAKLBOZLIK** – asliyat mazmuni e'tibordan chetda qolib, uning shaklini ifodalashga asosiy e'tibor qaratib amalgam oshirilgan tarjima. G'arb tarjimachiligida buni *formalizm*, *bukvalizm* kabi atamalar bilan ham nomlanadi.

*Olm.: das Formalismus. Ing.: formalism. Rus.: формализм.*

**SHAXSSIZLANTIRISH.** Asliyat tilida qo'llanilgan shaxsni tarjimada shaxssiz shaklda ifodalash. Masalan: Ingliz tilida: *As you enter the shop, you are greeted by hundreds of chairs.* Olmon tiliga: *Beim Betreten des Ateliers wird man von hundert von Stühlen empfangen.* O'zbekchada: *Atel'ega kirishda yuzlab stullarga duch kelinadi.* Bu o'rinda asliyat tilidagi *you (siz)* shaxsi olmonchaga *man* bilan, o'zbek tiliga shaxssiz gap bilan o'girilgan.

Mufassalroq ma'lumot olish uchun qaralsin: *animatik ifodalash.*

*Olm.: die Entpersöhnlichung. Ing.: depersonification. Rus.: денерсонилизация.*

**SHE'RIY TARJIMA** – asliyatdagi she'riy matnning ohangi, vazni va qofiyasini qayta yaratish diqqat markazda turadigan badiiy tarjima janrlaridan biri. O'zbek tarjimashunosligida bunday tarjimada *ekviritmiya (ohang hamohangligi)*ga alohida ahamiyat qaratiladi.

*Olm.: die Versuebersetzung. Ing.: poetic translation. Rus.: стихотворный перевод.*

## LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSI

Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi
Aa	<i>Aa</i>	a	Qq	<i>Qq</i>	qe
Bb	<i>Bb</i>	be	Rr	<i>Rr</i>	er
Dd	<i>Dd</i>	de	Ss	<i>Ss</i>	es
Ee	<i>Ee</i>	e	Tt	<i>Tt</i>	te
Ff	<i>Ff</i>	ef	Uu	<i>Uu</i>	u
Gg	<i>Gg</i>	ge	Vv	<i>Vv</i>	ve
Hh	<i>Hh</i>	he	Xx	<i>Xx</i>	xe
Ii	<i>Ii</i>	i	Yy	<i>Yy</i>	ye
Jj	<i>Jj</i>	je	Zz	<i>Zz</i>	ze
Kk	<i>Kk</i>	ke	O' o'	<i>O o</i>	o'
Ll	<i>Ll</i>	el	G'g'	<i>Gg</i>	g'e
Mm	<i>Mm</i>	em	Sh sh	<i>Sh sh</i>	she
Nn	<i>Nn</i>	en	Ch ch	<i>Ch ch</i>	che
Oo	<i>Oo</i>	o	Ng ng	<i>Ng ng</i>	nge
Pp		Pp		pe	

## FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR

### Ozbek va rus tillaridagi adabiyotlar.

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. Энциклопедия, 1969. – 608 с.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975. – 230 с.
3. Борисова Л.И. «Ложные друзья переводчика». Общенаучная лексика. – Москва, 1999.
4. Влахов С., Флорин С. Непереводимые в переводе. – М.: Международные отношения, 1980. – 352 с.
5. Гез Н.И., С.Сайдалиев и др. Немецко-русско-узбекский словарь методических терминов. – Ташкент: Укитувчи, 1975. – 140 с.
6. Гринев С.В. Введение в терминоведение. – Москва, 1993.
7. Жўраев К. Таржима санъати. – Тошкент: Фан, 1982. – 60 б.
8. Исомиддинов З. Якин туркий тиллардан шеърий таржима хусусиятлари “Манас” эпоси таржимаси мисолида: Филол. фанлари номз. дисс. автореф ... . – Тошкент, 1991.- 22 б.
9. Комилов Н. Ибн Сино ва Данте. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 234 б.
10. Комилов Н. Бу қадимий санъат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 192 б.
11. Комиссаров В.Н. Слово о переводе // Очерк лингвистического учения о переводе. – Москва: ИМО., 1973. – 215 с.
12. Лапасов Ж. Мумтоз адабий асарлар ўқув лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994 – 272 б.
13. Левий Иржи. Искусство перевода. – Москва: Прогресс, 1980. – 396 с.
14. Лилова А. Введение в общую теорию перевода. – Москва: Высшая школа, 1985. – С. 115-147.
15. Латышев Л.К. Курс перевода. (эквивалентность перевода и способы её достижение). – Москва, 1981.
16. Марчук Ю.Н. Проблемы машинного перевода. – Москва, 1983.
17. Миньяр-Белоручев Р.К. Как стать переводчиком. – Москва, 1994.
18. Миньяр-Белоручев Р.К. Последовательный перевод. – Москва, 1969.
19. Навоий асарлари учун қисқача лугат. Тузувчи Б.Ҳасанов. Т.: Фан, 1993. – Б. 154.

20. Нелюбин Л.Л. Проблемы термина и научно-технического перевода. // Терминоведение, 1995. №2. – С.10-12.
21. Нелюбин Л.Л. Теория перевода и терминологическая практика. // Русский филологический вестник, 1996. – Т.81. – С.117-122.
22. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. – Москва: Наука, 2003. 320 с.
23. Найда Ю.А. Наука перевода // Вопросы языкознания, 1970. №4.
24. Отажонов Н. “Бобурнома” жаҳон адабий жараёнида: Филол.фан. док. дисс. автореф. - Тошкент: 1993. - 50 б.
25. Попович А. Проблемы художественного перевода. Перевод со словацкого. - Москва: Высшая школа, 1980. – 352 с.
26. Раҳмонов В. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача лугат. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 200 б.
27. Раҳмонов В. Мумтоз адабиёт манбалари лугати. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – 432 б.
28. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати (туркий сўзлар). –Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
29. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода. – Москва, 1974.
30. Розенталь Д.Э., Теленова М.А. Справочник лингвистических терминов. – Москва: Просвещение, 1972.
31. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 220 б.
32. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1983. - 220 б.
33. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима.- Тошкент: Фан, 1980. - 158 б.
34. Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. - 190 б.
35. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 280б.
36. Саломов Ғ., Н.Комилов. Дўстлик кўприқлари. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 221 б.
37. Содиков З. Сўз маъноси // Тафаккур. – Тошкент, 2000 - № 3. - Б.116-118.
38. Содиков З. “Кутадғу билиг” таржималарининг киёсий-типологик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2007 й. – 146 б.
39. Садыков З., Д. Абдурахманова. Новые значения старых слов // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2006. №4. - С.77-81.

40. Таржимон махорати / Саломов Ғ., Комилов Н., Салимова З., Жўраев К., Отажонов Н. - Тошкент: Фан, 1979. - 194 б.

41. Умархўжаев М.И., Назаров К.Н. Олмонча-русча-ўзбекча фразеологик луғат. - Тошкент: Ўқитувчи, 1994 - 160 б.

42. Умархўжаев М. Олмон тили лексикологияси ва фразеологияси. – Андижон: АДТПИ, 2010. – 150 б.

43. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. - Москва: Просвещение, 1983. - 290 с.

44. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Фан, 2002.

45. Ҳомидов Ҳ., Ш.Абдуллаева, С.Иброҳимова. Адабиётшунослик терминлари луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1970.- 288 б.

46. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминлари русча-ўзбекча луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

47. Цвиллинг М.Я. Синхронный перевод как объект экспериментального исследования. // «Тетради переводчика» . - Москва, 1966.

48. Чуковский К. Высокое искусство. – Москва: Искусство, 1975. – 348 с.

#### **Chet tilidagi adabiyotlar**

49. Abraham Werner. Terminologie zur neueren Linguistik – Tuebingen: Niemeyer, 1988.

50. Albrecht Joern. Linguistik und Uebersetzung - Tuebingen: Niemeyer, 1973.

51. Albrecht Joern. Wissenschaftlichtheoretischer Status und praktischer Nutzen der Uebersetzungswissenschaft. In Ehnert, R. Und Schleyer, W. (Hrsg), *Uebersetzen in Fremdsprachenunterricht*. Beitrage in Uebersetzungswissenschaft – Annaeherungen an eine Uebersetzungsdidaktik. (Matherialien Deutsch als Fremdsprache 26) – Regensburg, 1987, S. 9-23.

52. Bech Rudolf. Terminologie der Literaturwissenschaft. Ein Handbuch fuer Anglistikstudium. – Ismaning: Hueber, 1997.

53. Budin Gerhard und Buehler Hildegund. Grundsuetzen und Methoden der neueren Terminographie. In Hoffmann ,L, Kalverkaemper H., Wiegand H.E. in Verbindung mit Galinski Ch. Und Huellen W. (Hrsg), *Fremdsprachen*. Ein internationales Handbuch zur Fachsprachenforschung und Terminologiewissenschaft – Berlin/New-York: de Grueter, 1998.

54. Catford John. Linguistic theory of translation – London: Oxford, 1965.

55. Fleischmann E., Kutz W., Schmitt P. Translationsdidaktik. Grundfragen der Uebersetzungswissenschaft – Tuebingen: Narr, 1997.
56. Gerzymisch-Arbogast Heidrun. Uebersetzungswissenschaftliches Propaedeutikum – Tuebingen: Francke, 1994.
57. Gerzymisch-Arbogast Heidrun und Muderbach Klaus. Methoden des wissenschaftliches Uebersetzens. – Tuebingen-Basel: Francke, 1998.
58. Grbic Nadja und Wolf Michaela. Text-Kultur-Kommunikation. Translation als Forschungsaufgabe – Tuebingen: Staufenburg- Verlag, 1997.
59. Guettinger Fritz. Zielsprache. Theorie und Technik des uebersetzens. – Zuerich: Manesse, 1993.
60. Jean Delisle, Hannalore Lee-Jahnke, Monique C.Cormier. Terminologie der Uebersetzung. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamin Verlag, 1999.
61. Hoenig Hans G. und Kussmaul Paul. Strategie der Uebersetzung. – Tuebingen: Narr, 1982.
62. Knobloch Jochan. Sprachwissenschaftliches Woerterbuch. – Heidelberg: Winter Verlag, 1986.
63. Koller Werner. Grundprobleme der Uebersetzungstheorie. – Berlin-Muenchen: Francke, 1972.
64. Kussmaul Paul. Uebersetzen als Entscheidungsprozess. Die Rolle der Fehleranalyse in der Uebersetzungsdidaktik. In Snell-Hornby, Marie (Hrsg), Uebersetzungswissenschaft – Eine Neuorientierung. Zur Integrierung von Theorie und Praxis. – Tuebingen: Francke, 1994.
65. Kussmaul Paul. Training the Translator – Amsterdam: John Benjamin's, 1995.
66. Langenscheidts Großwörterbuch. Langenscheidt KG, Berlin und München, 1993.
67. Neubert A. Pragmatische Aspekte der Übersetzung. - Leipzig. 1968. S.30-31.
68. Nord Christiane. Loyalitaet statt Treue – Vorschlaege zu einer funktionalen Uebersetzungstypologie // In *Lebenden Sprache*. 34 (3), 1989. – S.100-105.
69. Nord Christiane. Einfuehrung in das funktionale Uebersetzen: *am Beispiel von Titeln und Ueberschriften*. – Tuebingen: Francke, 1993.
70. Plett Heinrich F. *Einfuehrung in die retorische Textanalyse*. – Hamburg: Buske, 1979.
71. Poeckl Wolfgang und Reiner Franz. *Einfuehrung in die romanische Sprachwissenschaft*. – Tuebingen: Niemayer, 1979.

72. Prunch Erich. Einfuehrung in die Translationswissenschaft: Universitaet Graz, 2000.
73. Prunch Erich. Translationskultur. Versuch einer konstruktiven Kritik einen Translatorischen Handelns. / In Vermeer H.J. und Holz Maenttari J. (Hrsg) Textcomtext Voll.NF 2. Nr.2. S.99-127.
74. Reiss Katharina. Texttyp und Uebersetzungsmethode – der operative Text. – Kronberg: Scriptor Verlag. Wissenschaftliche Veroeffentlichungen, 1976.
75. Reiss Katharina. *Moeglichkeiten und Graenzen der Uebersetzungskritik*. Kategorien und Kriterien. Fuer eine Sachgerechte Beurteilung von Uebersetzungen. – Muenchen: Hueber Verlag, 1986.
76. Reiss K., Vermeer H.J. Grundlagen einer allgemeinen Translationstheorie. – Tuebingen: Niemayer, 1984.
77. Salevsky Heidemarie. *Wissenschaftliche Grundlagen der Sprachmittlung*. Berliner Beitrage der Uebersetzungswissenschaft. – Frankfurt am Main/Berlin: Peter Lang Verlag, 1992.
78. Schreiber Michael. Uebersetzung und Bearbeitung. – Tuebingen: Narr, 1993.
79. Schwanke M. Maschnelle Uebersetzung. Ein Ueberblick ueber Theorie und Praxis. – Berlin: Springer Verlag, 1991.
80. Snell-Hornby Mary, Hoenig Hans, Kussmaul Paul, Schmitt Peter A. Handbuch Translation. – Tuebingen: Stauffenberg Verlag, 1998.
81. Stolze Radegundis. *Hermeneutisches Uebersetzen*. Linguistische Kathegorien des Verstehens und Formulierens bei Uebersetzens. – Tuebingen: Narr Verlag, 1992.
82. Stolze Radegundis. *Uebersetzungstheorien*. Eine Einfuehrung. – Tuebingen: Narr Verlag, 1994.
83. Vermeer Hans. Uebersetzen als kultureller Transfer. / In Snell-Hornby (Hrsg), Uebersetzungswissenschaft – eine Neuorientierung. Zur Integrierung von Theorie und Praxis. – Tuebingen: Francke Verlag, 1994.
84. Wills Wolfram. Uebersetzungswissenschaft. Probleme und Methoden. – Stuttgart: Klett Verlag, 1977.
85. Wotjak Gerd. Techniken der Uebersetzung. / In *Fremdsprachen* – Leipzig, 1985.

## MUNDARIJA

Muqaddima.....	3
Shartli qisqartmalar.....	5
~ A ~ .....	6
~ B ~ .....	15
~ D ~ .....	20
~ E ~ .....	23
~ F ~ .....	24
~ G ~ .....	26
~ H ~ .....	28
~ I ~ .....	28
~ J ~ .....	38
~ K ~ .....	38
~ L ~ .....	45
~ M ~ .....	47
~ N ~ .....	54
~ O ~ .....	57
~ P ~ .....	58
~ Q ~ .....	60
~ E ~ .....	62
~ S ~ .....	63
~ T ~ .....	69
~ U ~ .....	108
~ V ~ .....	108
~ X ~ .....	109
~ Y ~ .....	109
~ O' ~ .....	111
~ Sh ~ .....	112
Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi.....	113
Foydalanilgan adaboyotlar.....	116



